

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

SAN'ATSHUNOSLIK FAKULTETI  
“TASVIRIY SAN'AT VA DIZAYN KAFEDRASI”

MURATOV XUSAN XOLMURATOVICH

**TASVIRIY SAN'AT FANLARIDAN  
TALABALARING MUSTAQIL TA'LIM  
OLISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH  
VA BOSHQARISH METODIKASINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

*(Monografiya)*

Toshkent  
«ZEBO PRINT»  
2023

UO'K  
KBK

-

MURATOV XUSAN XOLMURATOVICH. TASVIRIY SAN'AT FANLARIDAN TALABALARING MUSTAQIL TA'LIM OLİSH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH [Monografiya]: - Toshkent. Zebo Print - 2023.- 148 bet.

### **Taqrizchilar:**

Mazkur monografiya respublika oliy ta'limga muassasa-larining tasviriy san'at fanlaridan talabalarning mustaqil ta'limga olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodikasini takomillashtirish, xorijiy tajribalardan foydalanish, mustaqil ta'limga modernizatsiyalash, optimallashtirish hamda raqamlashtirish masalalariga bag'shlangan.

Monografiya 60111200 - Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi hamda 70111201 - Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati ta'limga yo'nalishilarida tahsil olayotgan bakalavriat va magistratura talabalari, shuningdek, soha bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilar uchun mo'ljallangan.

ISBN

## Mundarija

<b>KIRISH .....</b>	4
<b>I BOB. TALABALARLING MUSTAQIL TA'LIM OLİSH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNING ILMİY NAZARIY ASOSLARI .....</b>	7
1.1-§. Talabalarling mustaqil ta'lism olish faoliyatini tashkil etish muammosining pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarda o'rganilganlik darajasi va uning pedagogika oliv ta'lism tizimidagi holati....	7
1.2-§. Talabalarling mustaqil ta'lism olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish mazmuni.....	16
1.3-§. Mustaqil ta'limning talabalarda tasviriy san'at fanlaridan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati .....	31
<b>II BOB. TALABALARLING MUSTAQIL TA'LIM OLİSH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH METODIKASI.....</b>	49
2.1-§. Tasviriy san'at yo'nalishlari talabalarining mustaqil ta'lism faoliyatini tashkil etish va boshqarish modeli .....	49
2.2-§. Talabalarling mustaqil ta'lism olish faoliyatini tashkil etish va boshqarishda pedagogik rahbarlik qilish metodikasi .....	64
2.3-§. Talabalarling tasviriy san'at fanlaridan mustaqil ishini tashkil etish va bosharishning metodik ta'minoti .....	78
<b>XULOSALAR .....</b>	116
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	118
<b>ILOVALAR .....</b>	135

## KIRISH

Ta'lim sohasidagi islohotlar jamiyat ravnaqi va taraqiyotiga ijobiy ta'sir qilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning intellektual salohiyatini oshirish davlat ta'limi standarti, malaka talablarida qo'yilgan talablarga javob bera oladigan, yetuk, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning muhim omili hisoblanadi. O'qitish samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalarining joriy qilinishi ta'limda istiqbolli vazifalar yechimini ta'minlashga nisbatan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

"O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida" kadrlar tayyorlashdagi mavjud muammolar qatorida "Talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirilmagan"i alohida ta'kidlangan [110]. Xalqaro talablar asosida yuqori malakali, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash strategik maqsad sifatida belgilab olindi. Talabalarni mustaqil va ijodiy faoliyatga yo'naltirish, ularni zarur bilim va ko'nikmalarni egallashga bo'lgan mas'uliyatini oshirish, oliy ta'limda belgilangan ma'lum bir me'yorlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Bu borada zarur qadamlar qo'yildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida nizom"da mustaqil ishlarga ajratiladigan soatlar miqdori oshirilib, uning ulushi bakalavriatda umumiyl o'quv yuklamasining 50-60 foiz, magistraturada esa 60-70 foizni tashkil etishi belgilab qo'yildi. Xususan, pedagogika oliy o'quv yurtlarining 60111200-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishida o'quv auditoriya soatlari 1870 soatga qisqarib, mustaqil ta'lim soatlari 16,3% ga ortgan.

Belgilangan mazkur tartib oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish va nazorat qilish

mexanizmini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy ta'lrim muassasalarida innovatsion yondashuvlar asosida talabalarni mustaqil ta'lrim olishga o'rgatish, mustaqil ta'limga tashkil etish, boshqarish va nazorat qilish zarurligi, mustaqil ta'limga amaldagi mexanizmlaridagi bo'shlari, tizimdagagi nomuvofiqlik kabi bir qancha muammolar bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu o'z navbatida talabalarda mustaqil ta'lrim olish faoliyati xususiuatlari, uning mohiyati, tashkil qilish tamoyillari, mazmuni va metodlari bo'yicha mavjud yondashuvlarni yanada chuqur tadqiq qilishni taqozo qiladi. Bunda axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali mustaqil ta'limga tashkil etish, boshqarish o'qitish samaradorligini oshirish hamda bo'lajak kadrlarni iste'molchilar talabiga muvofiq maqsadli tayyorlash pedagogik jarayonning barcha subektlari kompetensiyalarini rivojlantirish zaruratini belgilamoqda.

Respublikamizda fan, ta'lrim va ishlab chiqarish intagratsiyasiga mos ravishda talaba shaxsini kompetensiyaviy imkoniyatlarini mustaqil ta'lrim orqali yanada takomillashtirish, kompetentli kadrlarning innovatsion faoliyatini dasturiy maxsulotlar, mediatalim, interaktiv ta'lrim texnologiyalarida amalga oshirish zarurati kuchaymoqda. Bu esa, oliv ta'lrim muassalarida tasviri san'at ta'lrim tizimidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar, fan dasturlarini qayta ko'rib chiqishni, o'quv dasturlari mazmuniga zamonaviy ta'lrim texnologiyalarini singdirish, fanlararo aloqadorlikning nazariy-metodologik asoslarni rivojlantirish hamda ta'lrim oluvchilar amaliy va mustaqil faoliyatlarini takomillashtirishda uning tatbig'ini oshirish muammoosini har tomonlama chuqur tadqiq qilishni taqozo qilmoqda.

Muammoga doir ko'plab ilmiy va pedagogik tadqiqotlar amalga oshirilganiga qaramay, talabalarning mustaqil fikr yuritish qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni jahon standartlariga javob beradigan mutaxassis kadr qilib tayyorlashda mustaqil ta'limga takomillashtirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish,

boshqarish, nazorat qilish hamda baholashga ahamiyat berilmagan, mehanizmlari ishlab chiqilmagan.

Rivojangan xorijiy OTMlarda Talaba bir hafta davomida o'rtacha 10-15 soat auditoriya darslarida, 25-30 soat auditoriyadan tashqari mustaqil ishlar bilan band bo'ladi. Professor-o'qituvchilar faoliyatini "o'qitish"dan ko'ra ko'proq "o'rgatish"ga tomon yo'naltiradi, bu esa talabalarning kasbiy o'zini o'zi takomillashtirishga bo'lgan mas'uliyatining ortishiga turki beradi. Talabalarning mustaqil ijodiy ishlari antiplagiat orqali originalligi tekshirilib undan so'ng baholanadi. Mustaqil ta'lim topshiriqlari xususiyatiga ko'ra moslashuvchan bo'lib, ayrimlari onlayn tashkil etiladi hamda boshqariladi va bu yuqori samara beradi. Mustaqil ta'limni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish va baholashda o'yinli platformalar, raqamli va mediata'l'm vositalaridan faol foydalanadi.

Oliy ta'limda mustaqil ta'limni yuqori saviyada tashkil etish, talabalarni mustaqil ta'limga faol ongli yo'naltirish, qiziqtirish juda ko'plab omillarga bog'liq ekanligi uqoridagi fikrlarimiz tahlillaridan ma'lum bo'lib turibdi. Xususan, OTM moddiy texnik bazasi, laboratoriysi, professor-o'qituvchining kompitensiyasiga, ilg'or pedagogik texnologiyalarga, o'quv yuklamasiga, axborot ta'minotiga, akademik xizmat ko'rsatish salohiyatiga, nazorat qilish mexanizmlari va boshqa jihatlarga ham bog'liq masala. Shu sababdan bo'lajak kadrlarning zamon talablariga doimiy moslashib borishi, yangi O'zbekistonning yangi pedagogik kadrlariga aylanishi, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil qilish hamda nazorat qilishga kompleks yondashishni, bu borada xorijiy tajribaning ilg'or yutuqlaridan ijodiy foydalanishni talab etadi.

# **I BOB. BOB. TALABALARING MUSTAQIL TA'LIM OLİSH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISHNING İLMIY NAZARIY ASOSLARI**

## **1.1-§. Talabalarning mustaqil ta'lif olish faoliyatini tashkil etish muammosining pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarda o'rganilganlik darajasi va uning pedagogika olyi ta'lif tizimidagi holati**

Bugungi kunda bo'lajak pedagog kadrlarning kasb-mahoratini auditoriyalarda akademik o'qish jarayoni bilan bir qatorda ularda mustaqil ta'lif olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodikasini takomillashtirish, mahoratli pedagoglar sifatida tarbiyalash birinchi galdeg'i muhim vazifalardan biri sifatida bo'lib kelmoqda. Muammoni muvafaqiyatli hal qilish uchun esa, mustaqil ta'lifni tashkil etish metodikasini takomillashtirish asnosida mustaqil faoliyat olib borish va ta'lifda uzviylik hamda uzluksizlik tamoyillaridan maqsadli foydalanish muhimdir. Mazkur muammoni biroz kengroq olib qaraydigan bo'lsak, mustaqil ta'lif nafaqat olyi ta'lif talabalariga, balki uzluksiz ta'lifning barcha bo'g'inlariga tegishli va mazkur muammo boy tarixga ega ekanligini ishonch bilan aytish mumkin.

Mustaqil faoliyat haqidagi g'oyalarning rivojlanishi qadimgi davrlarda boshlangan bo'lib, Suqrot, Platon, Arastu asarlarida insonning faol mustaqil faoliyati uning tafakkurini muvaffaqiyatli rivojlantirish, qobiliyatlarini takomillashtirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. O'rta asrlarda faylasuflar F.Rabel, M.Monten, T.Kampanellalar ta'lif-tarbiya bilan shug'ullanuvchilar o'z o'quvchilarini mustaqilliga o'rgatish hamda tarbiyalash, ularning o'zлari u yoki bu sohada bilim yo'lini tanlay olishlariga da'vat etganlar. Mashhur olim va nazariyotchilardan A.Disterveg, J.J.Russo, I.G.Pestalossilarning asarlarida yoshlarning mustaqil faoliyatiga taalluqli nazariy masalalar batafsil ko'rib chiqilgan.

Mustaqil ta'lif olish orqali yetuk mutaxassis bo'lib

yetishishning nazariy va amaliy jihatlari bilan ajdodlarimiz ham yosh avlodni kasb-hunar o'rgatish, ustoz-shogird tizimida tarbiyalab, yetuk, tarbiyali, el-yurt taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi inson bo'lib yetishishiga katta ahamiyat berishgan. O'rganilayotgan muhim muammo bilan sharqning buyuk qomusiy allomalari ham o'zlarining mashhur asarlarida ko'plab ta'riflar bergenlar. Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad Al-Farg'oniy, Axmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, Shayx Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshbandiy, Abdurahmon Jomiy, Imom al-Buxoriy, Ahmad Yugnakiy va Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar mehnat qilishni va biron-bir kasb-hunarni egallahsha ustoz-shogird tizimida faoliyat olib borib, ustozdan o'rnak olgan holda mustaqil fikrlaydigan va faoliyat olib boradigan shaxs sifatida kamol topish muhimligini ulug'laganlar.

O'tgan asrda rus olimlaridan M.N.Skatkin, B.P.Yesipov, A.A.Gorsevskiy va M.I.Lyubitsinlar mustaqil faoliyat bilan bog'liq psixik jarayonlarni va uni tashkil etish usullarini o'rganganlar. Jumladan, XX asrning so'nggi yillarda talabalarda mustaqil ta'limga tashkil etish muammolari bo'yicha V.N.Bessonova, B.P.Esipov, I.Y.Lerner, M.A.Lozovskiy, R.A.Lozovskiy, I.L.Naumchenko [120], P.I.Pidkasistiy [131] va boshqa olimlar tadqiqot olib borganlar. Shuningdek, so'nggi yillarda taniqli olim va tadqiqotchilarning fikriga ko'ra talabalarning mustaqil ishi ta'limga faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Bu jarayon talaba yangi bilimlarni topish va ulardan foydalanish, innovatsion ta'limga texnologiyalarini qo'llash, ijodiy nostandard vazifalarni amalga oshirish, seminarlar, testlar, imtihonlarga faol tayyorgarlik va boshqalardan iborat.

Mustaqil ta'limga tashkil qilishning pedagogik muammo sifatida ekanligi va uning bo'lajak mutaxassislar kasbiy tayyorgarligining muhim omili ekanligi masalalari bilan o'zbek olimlaridan N.A.Muslimov [109], U.N.Nishonaliyev [122], N.Sayidahmedov [140], A.R.Xodjaboyev [162], Safo Matchanov [111], Z.Nishanova [121], T.Niyazmetova [124], J.Tolipova [148] va boshqalar o'z ishlarida tadqiq qilganlar. U.N.Nishonaliyev

[122] mehnat ta'limi o'qituvchisini tayyorlashning tarixiy taraqqiyoti va shaxsiy xislatlari; N.Sayidaxmedov talabalarni, umumta'lim maktablari o'quvchilarini unumli mehnatga rahbarlikka tayyorlash; A.R.Xodjaboyev [162] mehnat ta'limi o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligining o'quv-metodik majmuaviy ta'minoti; Q.P.Husanboyeva odob-axloq va ta'lim berish jarayonida o'quvchilarni mustaqil fikrleshga o'rgatish. kabi muammolar ustida tadqiqotlar olib borganlar.

Mustaqil ishlarni tashkil etish jarayonida yoshlarni mustaqil fikrleshga o'rgatish, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va ta'lim sifatini oshirish masalalari bir qancha olimlar: P.N.Andriyanov, O.B.Berdiyeva, E.I.Zakinov (6-8 sinflarda mustaqil ishlarni tashkil qilishning pedagogik asoslari), O'.N.Sultonova (fizika fanidan o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish va metodikasini takomillashtirish), Sh.Sharipov (talabada ixtirochilik ijodkorligini shakllantirishning pedagogik asoslari), Sh.Yunusova (o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirish), Z.Nishonova, J.Tolipova va N.Xalilovlar talabalar mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etish shakllariga bag'ishlangan ilmiytadqiqotlarida o'rganganlar.

Taniqli filolog, malakali pedagog olim Safo Matchanovning ilmiy tadqiqot ishi ham biz tadqiq etayotgan muammo bo'yicha dolzarb masalalarga bag'ishlangan bo'lib, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishga qaratilgan. Xususan, unda mashg'ulotlar jarayonida ta'lim oluvchilarning yozma va og'zaki ijodiy ishlarini tashkil etish masalalari tadqiq qilingan. O'zining mustaqil tafakkuri, o'z nuqtayi nazariga ega bo'lishi o'quvchining badiiy jihatdan barkamol, ijodkor bo'lishining omili sifatida aniq misollarda keltirilgan, mustaqil faoliyat yurita olishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

Taniqli olima T.R.Niyazmetovaning "O'zbek tili va adabiyoti darslarida mustaqil ish bajarish uslubiyati" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi [124] umumiyl o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish yo'llari va usullari, o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirish,

bilimlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan.

Turli soha pedagog olimlarining ta'kidlashiga ko'ra, mustaqil ta'limga tashkil etish jarayonini faollashtirish malakali kadrlar tayyorlash sifatini takomillashtirishning asosiy mezoni hisoblanadi. Talabalarning mustaqil ta'limga olishlarini tashkil etishda oliy ta'limga faoliyat olib boruvchi barcha professor-o'qituvchilarda kasbiy mahoratning yuqori bo'lishi, talabalarni u yoki bu sohaga qiziqtira olish birinchi galdagi masala bo'lsa, talabalarning bo'lajak o'z kasbiga sadoqati, davlat va jamiyat oldidagi burchi, kelajakka intilishi, shu yurt, shu vatanga sodiq xizmat qilishda egallayotgan bilim va malakalarini mustaqil ta'limga faoliyati davomida takomillashtirish ham navbatdagi muhim masalalardan hisoblanadi. Bunda ta'limga, kasbiy mahoratni oshirishda yuqori natijalarga erishishga intilishda, pedagoglik kasbini tanlash va egallash ishida jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiquvchi shaxsni shakllantirishda mustaqil ta'limga muhim omil sifatida qaraladi. Mustaqil ta'limga olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi. Mustaqil ta'limga shaxsning o'zi tomonidan boshqarilishini e'tiborga olib, bu faoliyat bilan inson erkin holda va istagan vaqtda maqsad, vosita, mazmun nuqtayi nazardan manbalarni tanlab foydalanishi mumkin. Mustaqil bilim olishda avtonomlik bu o'qitish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, metodi va vositalarini aniqlash va tanlash, ularni qiynalmasdan hamda tashqi ta'sir yordamisiz, amalga oshirish qobiliyatidir.

Shuni alohida e'tirof etish kerakki, uzoq yillar davomida mustaqil ta'limga olish muammosi faqat umumta'limga muktabalaridagi o'quv jarayoni bilan bog'liq holda hal qilib kelingan. Oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonida esa, bu muammolarga ancha keyinroq e'tibor berildi.

Biz o'rganayotgan tasviriy san'at fanlarini o'qitish metodikasi nuqtayi nazardan esa, bugungi kungacha respublikamizda yetarli darajada fundamental ilmiy tadqiqot ishi olib borilmagan. O'tgan asrning oxirlarida tasviriy va amaliy

san'at sohalarida respublikamizning yetakchi olimlaridan B.B.Baymetov [64], S.S.Bulatov [75], N.X.Tolipov [147] va boshqalar bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ularning tadqiqotlarida pedagogika oliy ta'lif muassasalarining badiiy grafika fakultetlarida talabalarga tasviri san'at darslarini tashkil etishda o'zbek milliy xalq amaliy san'ati namunalaridan foydalanishda mustaqil ta'lif usullarini qo'llash, amaliy san'atning turlarini yoshlarga o'rgatishda ustoz-shogird an'analaridan foydalanish va bo'lajak usta naqqoshlarni malakali mutaxassis sifatida tarbiyalab voyaga yetkazish, umumta'lif mакtablarining 1-7 sinf o'quvchilarini tasviri san'atga o'rgatishda to'garak mashg'ulotlaridan foydalanish va o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishda mustaqil ishlarni tashkil etish metodikasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Keyingi vaqtida ko'plab tadqiqotlarda mustaqil ta'lifni tashkil etishning intensivlashuvi nuqtayi nazardan yondashilmoqda, bu nafaqat o'quvchi yoki talabalarning faolligini oshirishni, balki o'qituvchining faolligini oshirishni, auditoriyadan tashqari ishlar sifati va samaradorligini oshirish bilan bog'liq barcha masalalarni hal qilishni o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lif tizimida turli o'quv predmetlarini o'qitish jarayonida o'quvchi va talabalarda mustaqil ish bajarish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Matematik olimlar S.I.Demidova va L.O.Denishevalar mustaqil ta'limga quyidagicha ta'rif berganlar: "O'qituvchi tomonidan mustaqil ish mazmuni, mustaqil ishlashni faol tashkil etish, o'quvchilarni ular oldiga qo'yilgan didaktik maqsadlarni bajarishga yo'naltirilgan va shunga maxsus ajratilgan vaqt tushuniladi. Bilimlarni qidirish, ularni anglab yetish, mustahkamlash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirish, bilimlarni umumlashtirish, tizimlashtirish jarayoni tushuniladi".

Biz o'rganayotgan mazkur tasviri san'at yo'nalishi bo'yicha talabalarning mustaqil bilim olishini tashkil etish, qiziqishlarini oshirish va qobiliyatlarini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi omillarni shakllantirish muhim hisoblanadi.

Mazkur muammoni hal etishning muhim omili sifatida tasviriy san'at fanlaridan ilmiy va ijodiy bilim va malakalarni takomillashtirish talab etiladi.

Bu ta'rifda faollik, tizimlilik, maqsadga yo'nalganlik, mustaqillik kabi faoliyat xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. Bunda mustaqil ta'limning bir jihatni sifatida mustaqillik tilga olingan. Mustaqil tafakkur ta'limning bir qismi bo'lishi mumkin.

Talabalarning jadval asosida o'tkaziladigan rasmiy darslardan bo'sh vaqtlarida mustaqil ta'lim asosida nazorat qilinadigan akademik mustaqilligini kengaytirish asosiy tendensiya hisoblanadi.

Dunyoning AQSh, Germaniya, Angliya, Fransiya, Avstriya, Yaponiya kabi eng yirik xorijiy mamlakatlarining oliv ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etish, talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish uchun didaktik asoslarini ishlab chiqishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Bu mamlakatlarda o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish, ularning individual xususiyatlarini bilish, o'quv jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda maqsadli yordam ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yuqoridagi rivojlangan mamlakatlarning olimlari mustaqil ta'lim olish tamoyillarini biroz boshqacharoq tarzda talqin qilishadi. Ularning fikricha, ta'limni individuallashtirish, tushunish zarur va u har bir shaxsning o'z ijodiy yo'lini topib olish imkonini beradi. Ular eng yaxshi ta'lim "alohida qobiliyatli yoshlarni maqsadli ravishda ajratib o'qitish", deb ta'kidlaydilar. Bu konsepsiya ta'lim sohasidagi ko'plab yangi loyihalarini nazariy jihatdan asoslab beradi.

Taniqli olim D.Brunerning fikricha, talabaga har qanday murakkablikdagi masalalar topshirilsa ham mustaqil ta'limda uni yechish imkoniyati bo'laverishi ta'kidlanadi. Xorijiy pedagogik adabiyotlarda "mustaqil ish" tushunchasi turli ta'riflar bilan izohlanadi: "mustaqil ish" (independent activity) "o'z-o'ziga ko'rsatma berib ish bajarish" (individual instruction study), "avtonom (ayro holda) bajariladigan ish" (autonomous study), "o'z-o'zini yo'naltirib bajariladigan ish" (self-directed

learning), “o’z-o’ziga qulay ish” (self-access learning). Ushbu atamalarning ta’rifi va farqlanishi D.J.Boud asarlarida keltirilgan.

Uslubiy adabiyotlar tahlili mustaqil ta’lim faoliyatining muammolari nazariy jihatdan ancha chuqur ishlab chiqilganligini ko’rsatdi. Biroq, oliy ta’lim tizimida bo’lajak pedagog kadrlarni kasbiy tayyorlash masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar hali yetarli darajada tadqiq qilinmagan va u bugungi kunda yechimini topishi kerak bo’lgan sohalardan biridir.

O’quvchilarning mustaqil badiiy faoliyati Rossiya Fanlar akademiyasining Maktabgacha ta’lim instituti tomonidan uzoq yillar davomida o’rganilgan. Xususan, N.V.Dyagilyevanig [85] dissertatsiyasitasviriy san’at darslarida maktab o’quvchilarining ijodiy mustaqilligini rivojlantirish masalalariga bag’ishlangan.

Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish jarayoni o’quv faoliyatining majburiy tarkibiy qismidir. Shuning uchun uni fakultet va kafedralarda puxta uslubiy o’rganish va metodik jihatdan tashkil etish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi kerak. Uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, mustaqil faoliyat muammolari nazariy jihatdan ancha chuqur ishlab chiqilgan. Biroq, barcha pedagogika oliy ta’lim muassasalarining o’ziga xos xususiyatlari turlicha bo’lib, shu sababli hamma uchun bir xil yechimlarni topish mumkin emas. Taniqli olim M.S.Bostanov “Har bir kurs uchun talabalarning mustaqil ish dasturini ishlab chiqish va uning bajarilishini tizimli ravishda nazorat qilish muhim” [73], deb ta’kidlaydi.

Tadqiqotimizning yo’nalishini to’g’ri belgilab olish uchun mustaqil ta’lim tushunchasini aniqlab olishimiz kerak bo’ladi. Zamonaviy falsafiy, pedagogik, psixologik, didaktik va uslubiy adabiyotlarda o’quvchilar va talabalar mustaqil ta’limining turli jihatlari ko’rib chiqilgan. Biroq, ba’zi muammolarni hal qilishda ma’lum qiyinchiliklar mavjud. Shuning uchun “mustaqil ish” tushunchasining yagona talqini yo’q.

Ushbu masalani aniqlashda fikrlar turlicha bo’lishining sabablari quyidagicha: ba’zi mualliflar mustaqil ta’limni o’qitish usullariga bog’laydilar (L.V.Jarova, A.V.Usova [150], G.D.Kirillova

va boshqalar). Boshqalar esa mustaqil ta'lif faoliyatni tashkil etishning shakli deb hisoblashadi. Shuningdek, mustaqil ta'lif o'quv faoliyatining bir turi sifatida ham talqin qilinadi. Ba'zi tadqiqotchilar esa o'qitish vositasi sifatida qaraydilar (I.Y.Lerner, P.I.Pidkasistiy, M.N.Skatkin va boshqalar).

Mustaqil ta'lif, o'quv jarayoniga kiritilgan talabalarning ishi – o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, lekin uning topshirig'iga binoan, ma'lum belgilangan vaqtida bajariladigan ish bo'lib, bunda o'quvchilar ongli ravishda o'z kuch-g'ayratlarini ishga solib, aqliy yoki jismoniy (yoki har ikkala) harakatlarining natijasini u yoki bu shaklda ifodalab, topshiriqda qo'yilgan maqsadga erishishga intilishlaridir. Mustaqil ta'lif jarayonida o'qituvchining roli, uning bevosita ishtiroki ham muhim bo'lib, u talabaning ijodiy faolligini takomillashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Taniqli olima A.V.Usova [150] o'z dissertatsiyasida ushbu tushunchaga to'liqroq ta'rif beradi. Xususan, uning fikricha, talabalarning mustaqil ishi – talabalar tomonidan o'qituvchining ko'rsatmasi va nazorati ostida, lekin uning bevosita ishtirokisiz, darslardan bo'sh vaqtida maxsus bajariladigan mustaqil ish. Buning uchun o'quvchilar o'zlarining aqliy kuchlarini ishga solib, u yoki bu shaklda (og'zaki javob, grafik ish, tajribalar tavsifi, o'lchov natijalarini qayd etish, hisob-kitoblar, tajribalardan olingan xulosalar va hokazo) ifodalab, maqsadga erishishga ongli ravishda intiladilar. Aqliy va jismoniy harakatlarni bajarish nazarda tutiladi. Bu ta'rifda o'quvchilar tomonidan aqliy kuch ishlatish va o'qituvchi tomonidan nazorat qilish zarurligi ta'kidlanadi.

Bizning fikrimizcha, bu ta'rif an'anaviy ta'limga ham tegishli, chunki u o'qituvchining ushbu faoliyatini tashkil etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Rivojlantiruvchi ta'lif tizimida mustaqil ta'lif kursdoshlar bilan, iloji bo'lsa mutaxassislar bilan, bizning holatlarimizda rassomlar bilan muloqot qilish imkoniyatini o'z ichiga olishi kerak. Talaba tomonidan bajariladigan o'quv-ijodiy ish mustaqillik maqomini yo'qotmaydi, chunki u o'z rahbari bilan maslahatlashadi, do'stlari bilan suhbatlashadi,

ya'ni maqsadga muvofiq muloqotda qatnashadi. Bu nafaqat ijodiy jarayonda, balki kelajakda mustaqil tarzda badiiy-ijodiy faoliyatda ham foydali bo'ladi.

"Mustaqil ish shunday o'quv quroliki, u o'zlashtirishning har bir aniq holatida muayyan didaktik maqsad va vazifaga mos keladi; talabada bilimga intilish va ta'limning har bir bosqichida ma'lum bir vazifalarni hal qilish uchun zaruriy hajmdagi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiradi hamda shunga mos ravishda aqliy faoliyatning quyi bosqichlaridan yuqori darajalariga o'tadi. Talabada o'z bilimlarini mustaqil ravishda tizimli to'ldirishga psixologik munosabatni rivojlantiradi va yangi kognitiv muammolarni hal qilishda ilmiy va kasbiy ma'lumotlar oqimida harakatqilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kognitiv faoliyat usullarini o'zlashtirish talabaning o'z-o'zini shakllantirish va o'z-o'zini boshqarishning eng muhim sharti hisoblanadi. O'quv jarayonida talabaning mustaqil bilish faoliyati pedagogik yo'l-yo'riq va boshqarishning eng muhim vositasi hisoblanadi.

Bu ta'rif, bizningcha, o'rganish uchun vosita va shart sifatida qaraladigan mustaqil ishning muhim xususiyatlarini ochib bermaydi. Agar ushbu ta'rifdan foydalanib, o'quv vositasi va boshqa har qanday (masalan, didaktik material o'quv vositasi sifatida) farqni aniqlasa, unda ko'rsatilgan barcha fikrlar ushbu o'quv vositalariga mos keladi.

Umuman olganda, uslubiy adabiyotlarda mustaqil ta'lim ko'pincha o'qitish shakli yoki usuli sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, u ta'lim jarayonini faollashtirish vositasi sifatida ham, bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish, talaba yoki o'quvchilarining ko'nikma va malakalarini shakllantirishning zarur sharti sifatida ham belgilanadi. "Ta'lim jarayoni tizimida mustaqil ishslashga ham ta'lim vositasi, ham o'quv va ilmiy bilish shakli sifatida qaralishi kerak".

Mazkur muammoga bag'ishlangan ba'zi ilmiy tadqiqot ishlarida mualliflar mustaqil ta'limning asosiy belgilarini aniqlashga harakat qilishadi.

Yuqorida talabalar uchun mustaqil ta'limni tashkil

etishning tamoyillari bilan tanishib chiqdik. Ular talabalarni pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorlashdagi asosiy maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda to'ldirilishi va ta'limning turli bosqichlarida yanada takomillashtirilishi mumkin. Biroq, o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, talabalarni kasbiy pedagogik faoliyatga tarbiyalashda mustaqil ta'lim tizimining asosilarini egallashlari, bu yo'lда talabalarning tasviriy faoliyatda qanday nazariy qoidalarni o'zlashtirganliklari, turli tasvirlash vositalaridan foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirganliklari, ijodiy mustaqillikni rivojlantirib, o'z-o'zini tarbiyalashga qodir rassom-o'qituvchi shaxsi sifatida kasbiy shakllanishlari, nazariy va amaliy bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirish imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin. Ishning keyingi bosqichlarida mana shu masalalarga e'tibor qaratiladi.

### **1.2-§. Talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish mazmuni**

Tadqiqotimiz mohiyatini to'g'ri anglashlarini ta'minlash uchun mustaqil ish tushunchasi evolyutsiyasini ko'rib chiqish, shuningdek, birlamchi nuqtani belgilab, kelgusida qo'llaniladigan atamalar mazmuniga oydinlik kiritib olish maqsadga muvofiqdir. Falasafa, psixologiya, didaktika va uslubiyatga doir zamonaviy adabiyotlarda o'quvchi va talabalar mustaqil ishining turli jihatlari ko'rib chiqilgan. Biroq ayrim masalalarni hal qilishda muayyan qiyinchiliklar ko'zga tashlanadi. Masalan, "mustaqil ish" tushunchasining yagona talqini mavjud emas. Ushbu tushuncha mohiyatini belgilashda fikrlar farq qilishining sabablaridan biri shundaki, ayrim olimlar mustaqil ishni ta'lim berish usullari qatoriga kiritishadi.

Mazkur muammo bo'yicha faoliyat olib borgan pedagoglar mustaqil ish tushunchasiga turlicha ta'rif berishadi. Masalan, talabalarning mustaqil ishi deganda, "ularning yuksak faollik, ijodkorlik, erkin fikrlash, tashabbuskorlik muhitida amalga oshiriladigan faoliyati" tushuniladi. Ushbu ta'rifda

o'quvchilarning o'z aqliy salohiyatidan foydalanishi va o'qituvchi tomonidan nazorat qilinishi alohida ta'kidlangan. Fikrimizcha, bu ta'rif ham an'anaviy ta'lismiz tizimi doirasiga kiradi, chunki u o'qituvchining mazkur faoliyatni tashkil qilishda hal qiluvchi rol o'ynashini taqozo etadi. Rivojlantiruvchi ta'lismiz tizimida esa mustaqil ish kitob ko'rsatmalariga tayanish, kursdoshlar bilan muloqot qilish, imkonni bo'lsa mutaxassislar, bizning misolimizda, rassomlar bilan fikrlashishni nazarda tutgan bo'lishi kerak. Talabaning o'z rahbari bilan maslahat qilishi, do'stлari bilan hamsuhbat bo'lishi, ya'ni maqsadli muloqotda ishtirok etishi u bajargan o'quv-ijodiy ish mustaqilligiga rahna solmaydi, aksincha, bu nafaqat ijodkorlik, balki bilim olish nuqtayi nazardan ham kreativ yondashuvdir.

Mustaqil ish tushunchasiga bu tarzda yondashuv rivojlantiruvchi ta'lismiz qoniqtirmaydi, chunki u o'quv jarayonini tashkil qilish mohiyatidan emas, balki shaklidan kelib chiqadi xolos. "Subyektning mustaqil ishi pedagogning yo'qligi bilan ham, xatto, u yoki bu topshiriqni o'qituvchining yordamisiz bajarish qobiliyati bilan ham yakuniga etmaydi. Uning zamirida yanada muhim salohiyat, ya'ni hech kimning ko'magisiz, ongli ravishda u yoki bu maqsad va vazifalarni o'z oldiga qo'yish, o'z faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish qobiliyati" yashiringan.

Talabalarning mustaqil ishi tushunchasiga aynan shunday mohiyatan yondashuv, uni professor A.V.Petrov [130] ta'biriga ko'ra "O'quvchilardagi shaxsiy faollikni ongli ravishda tartibga solish maqsadida mustaqil bilim olish, o'zini o'zi tarbiyalash qobiliyatini shakllantirish"ga qaratilgan rivojlantiruvchi ta'lismiz tizimining ilmiy maktabi tarkibiga kiritish imkonini beradi.

Erkin mushohada qilish qobiliyati rivojlantiruvchi ta'limga maqsadga erishishning asosiy ko'rsatkichidir. Bularning hammasini inobatga olib, ushbu tadqiqotda mustaqil ish talabalarning o'z oldiga ongli ravishda u yoki bu maqsad, vazifalarni qo'yish, shaxsiy o'quv-ijodiy faoliyatini rejalashtirish, amalga oshirish va xolisona baholash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta'lismiz jarayoni sifatida tushuniladi.

“Rangtasvir” fanini o’qitishda talabaning mustaqil o’quv va ijodiy faoliyatining ko’p qirraliligi ikki jihat orqali:

1) talaba tomonidan tasviriy savodxonlikka doir tayyor bilim, nazariy tushunchalar, qalamtasvir va rangtasvir usullari va uslublarini o’zlashtirish va ular asosida ijodiy vazifalarni hal qilish;

2) talabaning ijodiy vazifalarni mustaqil olib borish, ularni hal qilishning yangi usullarini topishga urinishida namoyon bo’ladigan ijodiy faoliyatlarni erkinligining shakllanishida namoyon bo’ladi.

Anglashimizcha, “mustaqil ish” tushunchasi ikki xil ma’noga ega. Bir tomondan, mustaqil ish – bu talabaning mustaqil bajaradigan ishi, uning faoliyat obyekti. U talabaga o’qituvchi yoki mustaqil ish rejasi va dasturi bo'yicha beriladi. Boshqa tomondan esa, mustaqil ish – talabaning o’quvijodiy vazifalarni bajarishda muayyan idrok, xotira, ijodiy tasavvur va tafakkur ko’rinishida aks etadigan faoliyati bo’lib, u, oxir-oqibatda, yangi, ilgari ma'lum bo'limgan bilimlarni egallah, shuningdek, shu paytgacha o'rganganlarini yanada chuqurlashtirish va kengaytirishga undaydi. Har ikki holat ham talabaning aqliy va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Har qanday o’quv jarayonida mustaqillik mavjud, masalan, talabalarning o’zlari o’qituvchilarining ma’ruzalarini tinglashadi, o’zlari naturani kuzatishadi, o’zlari etyud chizishadi, ya’ni bular ham mustaqil ishdir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, kelgusida biz talabaning auditoriyadan tashqarida yoki uyda amalga oshiradigan mustaqil ishi to’g’risida so’z yuritamiz.

Hozirgi kunda mustaqil faoliyatning ishtiyoq beruvchi (motivatsiya), kognitiv, hissiy-irodaviy va refleksiv unsurlardan tarkib topgani to’g’risidagi tasavvur keng tarqalgan.

Motivatsiya unsuri ongli faoliyatga undaydigan sabablar tizimidan iborat (S.L. Rubinshteyn); u insonning xulq-atvorini belgilab beradigan barcha ruhiy omillar yig’indisi (P.M. Yakobson); nima maqsadda harakat qilayotganini anglatib, inson faoliyatiga rag’bat beradigan (I.A. Ponomarev) kuchdir. Mustaqil faoliyatda, uning boshqa turlarida bo’lgani kabi, ish

tabiatiga aloqador bo'lмаган ташқи ва мөһиятга дaxлдор ichki motivatsiyani ajratib ko'rsatish mumkin. Har qanday faoliyat turida bo'lgani kabi, mustaqil ish yuritishda ham ishtyoq (motivatsiya) tizimni shakllantiruvchi tarkibiy qism hisoblanadi. Motiv – ehtiyojning namoyon bo'lish shaklidir va faoliyatga undaydi. Talabalarning mustaqil ishiga doir maqsadlari, motivlari, qiziqish va munosabatlari yig'indisi, uning ushbu faoliyatga tayyorligini anglatadigan ishtyoqini aks ettiradi. Bilim olishda mustaqillikka undovchi omillar (motivlar) talaba mustaqil ishi samaradorligining muhim ko'rsatkichidir. Amaliyot va kuzatuvlar o'quvchilarning ishtyoqi (motivatsiyasi) darajasi va mustaqil ish muvaffaqiyatining uzviy bog'liq ekanini ko'rsatmoqda. Tadqiqotchilar har bir talabada muvofiqlashtirib boriladigan, ustuvor va tobe omillar ierarxik tartibda shakllantirilgan maxsus motivlar tizimi borligini ta'kidlashadi. Insonning o'zligini, shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish istagi ko'pincha ijodning asosiy va rag'batlantiruvchi omili (motivi) sifatida ko'rsatiladi. Psixologiya va pedagogikaga oid adabiyotlarni atroflicha tahlil qilish, kuzatuvlar va ushbu tadqiqot doirasida o'tkazilgan suhbatlar asosida "San'atshunoslik" fakultetlari talabalarini mustaqil ishni bajarishga undaydigan quyidagi sabablar aniqlandi:

- bilish istagi (yangi bilim va malakalarga intilish);
- shaxsiy rivojlanish istagi (o'zini o'zi uzluksiz rivojlantirib borish ishtyoqi);
- burch tuyg'usi (zarur ekanini his qilish);
- sharaf istagi (obro'li bo'lish);
- ijtimoiy identifikatsiya (e'tirof) (atrofdagi insonlar, do'stlar, ota-onal, o'qituvchilar hurmatini qozonish);
- hissiy omillar (his-tuyg'ularini namoyon qilish ehtiyoji).

Qalamtasvir va rangtasvir fanlari bo'yicha mustaqil ish uchun asosiy motivlar o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va bilish istagidir. Uyga vazifa talaba tomonidan qunt bilan bajarilgandagina rejalashtirilgan ta'sirini ko'rsatadi. Shunday qilib, asosiy maqsad talabalarni uyga berilgan vazifalarni

mustaqil va ishtiyoy bilan bajarishga undaydigan zarur sharoitlarni yaratishdir.

Motivatsiyani oshiradigan qoidalar auditoriya ishi uchun ham, uyga berilgan vazifa uchun ham bir xil va ulardan qalamtasvir va rangtasvirni, shuningdek, boshqa fanlarni o'rganishda muvaffaqiyat bilan foydalanish mumkin.

Agar gap ijodiy topshiriqlar haqida bo'lsa, muammoni qiziqarli tarzda yetkazish zarur. Mashg'ulotlarga kelsak, talabalarning kasbiy ko'nikmasini takomillashtirishga bo'lgan ishtiyobi rag'batlantiruvchi omil bo'lishi mumkin. Imkon qadar ko'proq bilishni istamagan talaba kam.

Baholarni e'lom qilish, bajarilgan ishlarni jamoaviy muhokama qilish, talabalar ishlari ko'rgazmasini o'tkazish muayyan darajada motivatsiya beradi. Bu o'rinda har bir talabaning e'tibor va e'tirofga intilish xususiyatidan foydalaniladi.

Talabalarning qiziquvchanligi va ijodiy izlanishi, hissiyotga beriluvchanligi, ishtiyoqmandligi, ijodiy muvaffaqiyatlarga erishish istagi, yetakchilikka talpinishi, burch va mas'uliyat tuyg'usi, ijodiy faoliyatining xususiy ahamiyati, ijodiy qobiliyatlarini mustaqil rivojlantirishi, o'z-o'zini tarbiyalashi kabi shaxsiy sifatlari ham motivatsiya omili bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, mustaqil ish samaradorligi uchun talabalarda maqsadga intilish, rejalashtirish va vaqtdan oqilona foydalanish, qunt bilan ishslash iste'dodi, o'z-o'zini nazorat qilish, shaxsiy qobiliyati va muvaffaqiyatlarini mustaqil baholash kabi o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish kerak. Motivlar rang-barangligi sanab o'tilganlari bilan cheklanib qolmaydi, lekin aynan ular talabalarning bilish istagi, ijodiy faolligi va mustaqilligini kuchliroq rag'batlantiradi, o'z ustida ishslashga bilim va ko'nikmalarini yanada takomillashtirishga undaydi.

Kognitiv unsur talabaning bilish jarayonidagi nisbatan barqaror individual xususiyatlarini aks ettiradi: xotira, fikrlash, kreativlik darajasi va boshqalar. Mushohada qilish qobiliyati, ayniqsa, talaba mustaqil tarzda yangi bilimlargacha yetib borgan, ularni o'zi uchun yangidan kashf qilgan va bilimlarmag'zi

shundoqqina namoyon bo'lgan pallalarda sof, yorqin shaklda ko'rindi. Bu talaba bilim va ko'nikmalarini faoliyat maqsadi va uning tarkibiy qismlarini yaxshi anglagan holda ishlatganda emas, balki ularni tanlashga undagan sabablar va erishish yo'llarini his qilganida sodir bo'ladi. Xuddi shu vaziyatda talaba tafakkuri yangi bilimlarni kashf qiladi. Bilimlarni o'zlashtirish va ularni qo'llashning bunday mustaqil faoliyat yo'li ijodiy tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Talaba bilimi muammoli vaziyatdan kuch oladi va uni ijodiy izlanish jarayonida anglab yetishdan shakllanadi.

Hissiy-irodaviy komponent talabaning belgilangan maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni bartaraf qilishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilish, muvofiqlashtirib borishida ifodalanadi. U hissiy va irodaviy tarkibiy qismlardan iborat. Bular:

- maqsadga intiluvchanlik;
- sabr-qanoat;
- qat'iyat;
- tirishqoqlik;
- orttirilganyokianglabyetilgan imkoniyatva qobiliyatlarni o'zgartirish, qayta ishlash, yanada takomillashtirishga intilish qobiliyati;
- o'z faoliyatini mustaqil tashkil qilish, ya'ni shaxsning o'z-o'zini safarbar qilish va o'z imkoniyatlaridan belgilangan maqsadga og'ishmay borishda faol foydalanish qobiliyati;
- o'z-o'zini tarbiyalash, o'zligi va iqtidorini namoyon qilish mahorati.

Jismoniy va ruhiy salomatlik, o'zligini anglash, xususiy iroda sifatlari va qibiliyatlari shaxsning o'zini o'zi rivojlantirish, o'z taqdirini o'zi belgilash, faoliyatini mustaqil tashkil qilish asosidir.

Refleksiv komponent quydagilardan iborat:

- hissiy munosabat;
- o'zligini xolis baholash;
- o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyati.

Faoliyatini mustaqil tashkil etish va o'zini o'zi nazorat

qilish, ya'ni mahoratini yanada takomillashtirish maqsadida o'z ustida ongli ravishda ishlash alohida ahamiyat kasb etadi. Ishga mas'uliyat bilan yondashish, tanlagan mutaxassisligiga mehr qo'yish, o'zligini yuqori darajada anglash, ijodiy tafakkur o'z-o'zini tashkil qilishning eng muhim tarkibiy qismlaridir. I.L.Naumchenkoning TMI yuzasidan olib borgan tadqiqotlari oliy o'quv yurtining mutaxassislar tayyorlash tizimida mazkur jarayonni tashkil etish muayyan qonuniyatlarga bo'ysunishini ko'rsatdi va ularning asosiyilari quyidagilar:

- qo'shimcha rag'batlarsiz, mustaqil ravishda bajarish uchun ichki ishtiyoq, axloqiy va irodaviy qudrat talab qiladigan MIning psixologiya va pedagogika nuqtayi nazardan asoslanganligi;

- ushbu faoliyat turining talabada faol, tashabbuskor, har tomonlama rivojlangan shaxs dunyoqarashini shakllashtirishga qaratilgan tarbiyaviy ahamiyati;

- mustaqil mehnat qilish va o'quv-tarbiya jarayoni o'rtaсидagi uzviylik, bilim va faoliyat uyg'unligi.

"Mustaqil ish" tushunchasiga oydinlik kiritishga qaratilgan turli yondashuvlarni qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlaridan ta'lim berishga nisbatan tahlil qilib, bu jarayonning eng ahamiyatli xususiyatlarini ajratib oldik:

- ishtiyoq (motivatsiya), maqsad va vazifalarning mavjudligi;

- o'qituvchining vazifani bajarishda bevosita yordam bermasligi;

- talabalar mustaqil ishni bilvosita boshqarish tizimining borligi.

Mustaqil ta'limni samarali tashkil qilish uchun uning tarkibiy tuzilishini o'rganish muhimdir. Tarkibiy tuzilma deganda, muayyan yaxlit birlikdan iborat va belgilangan tartibda o'zaro bog'langan ko'p sonli unsurlar tizimi va uning ichki tashkiliy shakli tushuniladi. Tabiiyki, talabalarning auditoriyadan tashqaridagi o'quv-ijodiy faoliyatini tashkil qilish muammosiga tizimli yondashuv mohiyati, uning tuzilmasi va

faoliyat mexanizmini o'rganishda ifodalanadi. P.I.Pidkasistiy [132] mustaqil faoliyatni tizim sifatida ko'rib chiqarkan, talaba hayotida ahamiyat kasb etadigan shaxsiy harakatlarni quyi tizimlarga ajratadi. Bu tizimning motiv, maqsad, ilm olish, malaka, ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan harakatlarini amalga oshirish vositalari, usuli kabi jihatlari, bir tomonidan, talab va shartlar, boshqa tomonidan esa talabaning o'z mustaqil faoliyatini tashkil qilishda tayanadigan vositalar sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi.

Mustaqi ish asosi "maqsad–vosita–nazorat" uchligi zamiriga qurilgan. Uning muvaffaqiyati talabaning o'z harakatlarini ongli ravishda muvofiqlashtirish qobiliyati bilan belgilanadi. Bilim, malaka va ko'nikma olish maqsadiga yo'naltirilgan bu harakatlar talaba faoliyatida ham rag'bat, ham maqsad sifatida maydonga chiqadigan u yoki bu ishtyoqli ehtiyojni yuzaga keltiradi. Shunday qilib, qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlarida talabalar mustaqil ishi, har qanday faoliyat turidagi kabi, quyidagi tuzilmaga ega: motiv, ijro, nazorat. Umumlashtirgan holda, talabalar mustaqil ish tuzilmasini quyidagicha ta'riflash mumkin:

1) mazmuniy jihat (tushunchalar yoki idrok va tasavvur timsolida aks etgan bilimlar);

2) kundalik (operativ) jihat (xilma-xil harakatlar, ko'nikmalar, usul va uslublardan foydalanish);

3) natijaviy jihat (yangi bilimlar, ko'nikmalar, yechimlar; shaxsning yangicha nigohi, orttirgan tajribasi, g'oyalari, nuqtayi nazari, qobiliyati va sifatlari).

Ularning barchasi uzviy bog'liq bo'lib, talabalar mustaqil ishini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonida inobatga olinishi kerak. Talabalar mustaqil ish unsurlari o'rtasidagi bog'liqlik va ularning tuzilma tarkibidagi o'zaro munosabati tahlili har qanday vazifani bajarishda muqarrar o'tiladigan tipik bosqichlar mavjudligini ko'rsatdi. Ular analitik (tahliliy), operativ (kundalik) va sintetik (umumlashtiruvchi) bosqichlardan iborat.

Analitik bosqich mazmuni vazifaning talaba tomonidan

umumiyl shaklda taqdim qilinishi, uning yakuniy natijasini oldindan ko'ra bilishi, bu maqsadga erishishning umumiyl shartlarini anglashida namoyon bo'ladi. Operativ bosqich vazifani amalga oshirishda yakuniy natijaga olib boradigan aniq harakatlarni belgilashda ifodalanadi. Nihoyat, sintetik bosqich shu paytgacha bajarilgan ishlar, amalga oshirilgan harakatlar tahlilidan iborat. Refleksiya omillari har bir bosqichga nisbatan ta'sir ko'rsatishini inobatga olsak, faoliyatning yakuniy sintetik bosqichi avvalgi ikki pog'ona bilan birlashib ketgandek tasavvur uyg'otadi.

Mustaqil ishni bajarishda talaba o'z harakatlari va ularning ketma-ketligini vazifa talablaridan kelib chiqib belgilaydi va o'z faoliyatini ixtiyoriy tarzda nazorat qilib boradi. Talabalar mustaqil ishining bajarilish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 1) maqsad va vazifalarni belgilash (yakuniy natijani tasavvur qilish va unga erishishning umumiyl shartlarini aniqlashtirish);
- 2) vazifani bajarish (topshiriq ijrosini ta'minlaydigan harakat usullarini tanlash va zarur ketma-ketlikda qo'llash, uni amalga oshirish uchun kerakli vositalarni aniqlashtirish);

3) shaxsiynazorat(bajarilgan ishni tahlil qilish: belgilangan vazifa qo'llanilgan va o'ylab topilgan usullar yordamida hal qilinyaptimi yoki ularga tuzatishlar kiritish kerakmi).

"Mustaqil ishlar mohiyati bilishga yetaklovchi vazifalarning mustaqil ishlar muayyan turlari va shakllari mazmuniga yashiringan xususiyatlari bilan belgilanadi".

Mustaqil o'rganish faoliyati (umuman olganda, ta'limning quyi tizimi sifatida) o'quvchining muayyan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirayotgani bilangina emas, balki uning o'ziga singdirayotgan mazmunga nisbatan harakat usullarini o'rganayotgani orqali ham namoyon bo'ladi. Talabalarning faoliyat usullarini o'rganishga bo'lgan intilishi va tashkilotchiligi mustaqil ishning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, har bir mustaqil ish turida, ayniqsa, tasviriy san'at fanlarini o'qitishda, muvaffiyat va samaradorlikni aniq

shakllantirilgan o'quv-ijodiy vazifa belgilab beradi. Topshiriqni shaklga solish va anglab yetish jarayoni talabaga o'z faoliyatining yakuniy natijasini tasavvur qilishga imkon yaratadi. Tasviriy san'at sohasiga o'qitishda vazifani aniq belgilash zarurligi ko'plab buyuk rassom-murabbiylar tomonidan e'tirof qilingan. G.K.Savitskiy o'z shogirdlariga shunday deydi: "Mutlaqo aniq maqsad va vazifasiz, siz hech nima bermaydigan natijaga ega bo'lasiz va o'z ishingiz taraqqiyotini his qilolmaysiz". P.P.Chistyakov o'quv vazifalarini bajarishda shogirdlarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish to'g'risida g'amxo'rlik qilgan, amalga oshirayotgan harakatlarini to'la anglashlarini istagan. "Har qanday ta'llim berish jarayoni aniq shakllantirilgan maqsadga ega bo'lishi va u aynan shu vazifa doirasida bajarilishi kerak, toki, kelgusida boshqa, yanada "oliv" maqsadlar ustida ishlashga imkon bersin", – deya maslahat beradi. Ushbu ulug' pedagog o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ularda "rassom ijodiy shaxsi"ni shakllantirish juda muhim ekanini ko'p ta'kidlagan.

S.V.Gerasimov talabalarni asosan rangtasvir masalalarini mustaqil hal qilish, buning uchun yangicha yechim va usullarni o'ylab topishga ilhomlantirgan. Talabalarni rangtasvir ummonida "mustaqil suzish" uchun yo'naltirarkan, u bu usulni yosh musavvir ijodiy shaxsini shakllantirishning muhim sharti deb hisoblagan [116; 41-b].

"Talabalarni u yoki bu uslubiy vazifani bajarishga jalb qilish ularning qalamtasvir, rangtasvir fanlariga bo'lgan qiziqishini so'ndirmaydi, aksincha, u ijodiy vazifani bajarishda ranglar jilosi va maftunkorligini chuqurroq anglashga yetaklaydigan, yanada murakkab rangtasvir sahnalarini ro'yobga chiqarishda jur'at beradigan oqilona yo'ldir", – deya ta'kidlagandi taniqli rassom-pedagog A.A.Unkovskiy.

Vazifa, bir tomondan, topshiriqqa qo'yiladigan maqsad va sharoitdan kelib chiqadigan harakatlar usuli, tabiatini belgilab beradi. Boshqa tomondan esa, belgilangan vazifa yechimi muayyan harakatlar ketma-ketligini belgilaydigan faoliyat shartlari va vositalariga bog'liqdir. Talaba tasviriy savodxonlik

nazariyasiga doir u yoki bu hodisa yoxud tushunchani shaxsiy kuzatuvlari, mushohadasi va natura bilan olib borgan amaliy ishlari natijasida anglab yetadi. Uning bu jarayondagi muayyan harakatlari to'la-to'kis mustaqil hal qilinadi yoki o'qituvchining uslubiy ko'rsatmalari asosida bajariladi. Ular talaba tomonidan maqsad sifatida belgilangan yakuniy natijani taqdim qilish yordamida boshqariladi.

A.G.Ball [66] fikriga ko'ra, o'quv vazifalarining asosiy maqsadi masalalarni hal qilishning vositalarini o'zlashtirish va ularni bajarish davomida yangi tajribaga ega bo'lishdek yana bir ustuvor maqsadni qo'lga kiritishdir. Tasviriy san'at yo'nalishida tahsil olishning oliy maqsadi, shuningdek, oraliq maqsadlar (har bir semestr maqsadlari) talabaga bo'lajak ishlari natijalarini tafakkurida jonlantirishga imkon beradi va ular bir vaqtning o'zida ham faoliyatining ichki motiviga aylanadi. Maqsadga ongli ravishda erishish uchun talaba diqqat-e'tibori, xotira va irodasini jamlaydi. Vazifa bir paytda ham oqibat, ham faoliyat mezoni, ya'ni ularning uyg'unligi asosi sifatida xizmat qiladi. Talaba tomonidan ichki (aqliy) rejallashtirish orqali ishlab chiqiladigan harakatlar dasturida maqsad faoliyatning birlamchi nuqtasi shaklida namoyon bo'ladi. Mazkur rejdasturni amalga oshirish faoliyat poydevoriga aylanadi va mustaqil ish ijro bosqichining hal qiluvchi omili hisoblanadi.

Shunday qilib, o'quv-ijodiy vazifalarini bajarish davomida yuzaga keladigan yangi bilimlarni o'zlashtirish va o'z ko'nikmasini yanada takomillashtirish ehtiyoji talabaning mustaqil faoliyatida rag'batlantiruvchi kuch sifatida maydonga chiqadi. Talaba yangi mashg'ulotlar vazifasi maqsadidan kelib chiqib, ilgari olgan bilim va tajribalarini safarbar etadi. Keyin u vazifa mazmunini tahlil qiladi, uning yakuniy natijasini tasavvurida jonlantiradi, topshiriqni bajarish tartibini belgilaydi va maqsadga erishishga olib boradigan vositalarni aniqlashtiradi. Bilish jarayonining navbatdagi pog'onasi ijro bosqichi bo'lib, uning amalga oshishi belgilangan natijaning qo'lga kiritilishi bilan ifodalananadi.

Yakuniy pog'ona-shaxsiy nazorat bosqichi bo'lib, u amalga

oshirilgan ishlar tahlilini o'z ichiga oladi. Belgilangan vazifa mavjud va qo'llanilgan vositalar, bilim, ko'nikma va malaka yordamida ro'yobga chiqyaptimi yoki ularga o'zgartirishlar kerakmi degan savolga javob izlashni taqozo etadi.

Yangi bilim, ko'nikma va malakalar ehtiyoji va ularni egallash yo'llarini rejashtirish, mustaqil ish vazifasining aniq shakllantirilgan maqsadi yo'qligi, afsuski, zamonaviy ta'limgiz tizimida ko'p uchraydi, uning ijrosida talabalarning mustaqil faoliyati tabiatiga nisbatan befarqlikka olib keladi. Talaba mustaqil ravishda qancha ko'p ish bajarmasin, ularni amalga oshirish jarayoni, aqliy va ijodiy rivojlanish nuqtayi nazardan olganda, "xato va kamchiliklar"dan o'tib borish bilan kechadi yoki avvaldan shakllangan qolip asosida, odatiy sxema bo'yicha qilinadi. Ko'rsatish uchun muayyan miqdordagi bir xil ishlar bajariladi (talabalar tili bilan aytganda, "son uchun"). Har ikki yo'lning ham samarasi kam. Birinchi holatda, talabaning rivojlanish jarayoni pedagog uchun mavhumligicha qoladi, demak, uni boshqarish imkonsiz. Shu sababli, mustaqil ishni bajarish davomida shakllangan bilim, malaka va ko'nikmalar talaba, uning ijodiy qobiliyati, tashabbuskorligi va mustaqilligi rivojlanishiga ta'sir qilsa ham, bu jarayon ko'pincha tartibsiz kechadi. Ta'limgiz tizimi ham o'zining rivojlantiruvchi va shakllantiruvchilik xususiyatlarini sezilarli darajada boy beradi. Ikkinchisi yo'l ham xato, hatto zararlidir. Etyudlarni muayyan qolip asosida, o'quv vazifalari mohiyatini anglash va ularni hal etishga harakat qilmay bajarish naturani akonstant tasavvur qilish, koloristik tafakkurning rivojlanishi, kasbiy malaka va ko'nikmalar orttirish jarayonini sekinlashtiradi. Bunday vaziyatlarda "sonning" "sifat"ga o'tishi juda qiyin. Ijodiy ish bilan shug'ullanishga urinish esa yanada ko'proq muammolar tug'diradi. Talabalar mustaqil ta'limidagi vazifa tabiatini va uning murakkablik darajasi ta'limgiz turli bosqchilarida o'zgarib boradi. Vazifalarning asta-sekin murakablashishi zamonaviy ta'limgiz jarayonida mustaqil ishni shunday tashkil qilish talablaridan kelib chiqadi va u talabalarga dasturda nazarda tutilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtiribgina qolmay,

balki o'z ijodiy salohiyatini rivojlantirish, faollik va mustaqillikni shakllantirishga imkon beradi. Lekin talabalar qalamtasvir va rangtasvir namunalarini yaratish usullarini o'zlashtirmasalar, bu maqsadlarga erishib bo'lmaydi.

Talabalar mustaqil ta'lif dasturi (ta'limning muayyan bosqichida biron-bir yo'naliш bo'yicha o'qitishda talabalar mustaqil ishlarining mazmunini belgilaydigan hujjat), birinchidan, talabaning o'quv-ijodiy faoliyatida mustaqil ishni bajarish arafasida belgilangan maqsadga muvofiq amalgam oshiriladigan shaxsiy amaliy harakatlarini muvofiqlashtirish asosi bo'lib xizmat qilsa, ikkinchidan, o'qituvchiga talabalarda eng ko'p qiyinchilik tug'dirayotgan vazifalarni aniqlashtirish va, aksincha, oson topshiriqlarni belgilab olishda yordam ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, pedagog murakkablik darajasi va vazifalar soniga o'zgartirishlar kiritishi, guruhning hamma a'zolari uchun umumiyligini va har bir talaba uchun alohida topshiriqni belgilash orqali ularning bilim, malaka va ko'nikmasini shakllantirish jarayonini maqsadli boshqarishi mumkin. Psixologiya bo'yicha o'tkazilgan ko'p sonli tadqiqotlar va ushbu ilmiy ish doirasidagi ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, o'quv materiallarini o'zaro bog'langan vazifalar sifatida talabalarning mustaqil o'quv faoliyati tizimiga kiritish juda yaxshi samara beradi.

Tashqi omillar sifatida talaba tomonidan subyektiv ma'noda qabul qilingan vazifa mustaqil ishni amalgam oshirish paytida mavjud bilimlar (faoliyati tajribasi) va kutilayotgan natija (yangi bilimlar va tajriba) o'rtaSIDA nomutanosiblik keltirib chiqaradi va u ko'nikmani mustaqil ravishda o'rganishga undaydigan ichki motivga aylanadi. "Vazifa har qanday mustaqil ishning o'zagi sifatida mustaqil o'rganish faoliyatining boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, darsning didaktik maqsadlariga muvofiq, talaba faoliyatiga muayyan oydinlik kiritadi. Psixologlar va didaktik olimlarning ko'p sonli tadqiqotlari bu fikrni tasdiqlaydi. Ijodiy vazifa, shuningdek, intuitiv ijodiy tafakkurni talab qiladi. Mustaqil ta'limning har bir vazifasi ma'lum vositalardan foydalananib yangi bilimlarni kashf qilish va sinab ko'rish yoki ilm olishning yangi yo'llarini

izlash, topish usullarini yaratishni taqozo qiladi.

Zamonaviy didaktikada mustaqil ish tasnifi masalasida yakdillik mavjud emas. U turli mezonlar, xususan:

- ta'lim olayotganlarning o'quv faoliyatini tabiat;
- didaktik maqsadlar;
- bilish faoliyatini tabiat;
- ishning mustaqillik darajasi va evristik mohiyatiga ko'ra amalga oshiriladi.

Bizningcha talabalar bilish faoliyatining tizimlilik va bosqichma-bosqich oshib borishining quyidagi turlarini e'tirof etish mumkin:

- 1) namunaga ko'ra yaratiladigan mustaqil ishlari (mashhur rassomlar asarlaridan nusxa ko'chirish);
- 2) ijodiy kompozitsiyalar ishlash;
- 3) ilmiy tadqiqot ishlari.

Mustaqil faoliyatni tasniflashning turli yo'llarini tahlil qilish orqali, biz tasviriy san'atning asosi bo'lgan qalamtasvir va rangtasvir fanlari bo'yicha mustaqil ishning quyidagi turlarini aniqladik.

Talabalar faoliyatini tabiatiga ko'ra:

- o'quv - maqsadlarda belgilangan qisqa muddatli va davomli qalamchizgi va etyudlar;
  - ijodiy (o'rganuvchi) - qalam, mo'yqalam va bo'yoqlar bilan ishlash bo'yicha usullarni mustahkamlash, palitra yoki usta rassomlarning o'ziga xos ishlash xususiyatlaridan foydalanib etyudlar yaratishga qaratilgan o'quv mashqlari;
  - tahliliy (analitik) - san'atshunoslikka oidilmiyadabiyotlar (albomlar, monografiyalar) va ma'lumotnomalar (qalamtasvir va rangtasvir texnologiyalari bo'yicha usta rassomlarning asarları, tasviriy san'atga oid qomusiy ma'lumotlar va hokazolar) bilan ishlash, kuzatish, usta rassomlarning grafika va rangtasvir asarlarini tahlil qilish, reproduksiyalar, illustratsiyalar, sxemalar va boshqalardan foydalanib yaratiladigan ishlari - vazifalar;
- kompozitsiya bo'yicha izlanishlar - ma'lum g'oya asosida badiiy-ijodiy asar yaratishga qaratilgan etyudlar, badiiy asar yaratish uchun davomli ishlarning hissiy va g'oyaviy mohiyatini

aks ettirish uchun ranglar mutanosibligini o'rganishga yo'naltirilgan etyudlar, rang taassurotlarini namoyon qiladigan etyud-qoralamalar, qisqa muddatli ijodiy lavhalar, qisqa muddatli etyudlar, kartina ustida ishslash.

Didaktik maqsadlarga ko'ra qo'llaniladigan mustaqil ish:

- yangi bilimlarni o'zlashtirish;
- olingan bilimlardan amalda foydalana olish;
- talabalarning olgan bilim, malaka va ko'nikmalarini tekshirish va mustahkamlash.

Ijodkorlikning namoyon bo'lish darajasiga ko'ra: namuna asosidagi bajarilgan mustaqil ish (biror rassomning asarini ko'chirish, nazariy va amaliy vazifalarni hal qilishning ma'lum usulini xuddi shunga o'xshash vaziyatda qo'llay olish uchun bajariladigan mustaqil ish). Ma'lum bir asar g'oyasini o'zidan chiqarib, kompozitsiyasi va tuzulishiga o'zgartirishlar bilan ko'chirish. Ijodiy mustaqillik amaliy ahamiyat kasb etishni boshlaydi.

Vazifani hal qilishning mavjud bir necha usullarini bilish va ularni u yoki bu vaziyatga nisbatan qo'llashda birlashtirib, eng oqilona yo'ldan borish qobiliyatini talab qiladigan mustaqil ish. U talabalarning qisman izlanishni taqozo etadigan ijodiy mustaqilligiga kiradi.

Talabalarni mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatga jalb qilishni nazarda tutadigan va nazariy bilimlarni bilish usuli sifatida o'rgatadigan mustaqil ish. Tasviriy san'at bo'yicha ta'lim berishning ibtidosida aksariyat talabalarda mustaqil ishni namuna asosida, ya'ni ijodiy yondashuvsz bajarishga moyillik kuzatiladi. Bu esa talabalarning o'quv-ijodiy faoliyatini o'rganilayotgan muammolarni mustaqil tahlil qilish, turli tabiatga ega vaziyatlarda harakatlanish va ularni mavjud shart-sharoitdan kelib chiqib muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyatini shakllantirish imkoniyatini beradigan darajada tashkil qilish zarurligini ko'rsatadi.

### **1.3-§. Mustaqil ta'limning talabalarda tasviriy san'at fanlaridan amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishdgi o'rni va ahamiyati**


Talabalarning qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlari ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayonidagi mustaqil ishi ularning o'z oldiga maqsad va vazifalarni qo'yish, shaxsiy o'quv va ijodiy faoliyatini rejalashtirish, natijalarini xolis baholash qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimidir. Bu jarayonning tarkibiy qismlarini o'zaro uyg'unlashtirish va muvofiqlashtirish talabalar mustaqil ishini muvaffaqiyatlari tashkil etishning asosidir. Bo'lajak rassom-pedagoglarning auditoriyadan tashqaridagi o'quv-ijodiy faoliyati muvaffaqiyati ta'lim tizimining umumiy samaradorligini ham belgilaydi, shuning uchun bu jarayonni to'g'ri va oqilona uyushtirish tasviriy san'at sohasi o'qitish uslubiyatining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

So'nggi paytlarda oliyo'quvyurtlari ta'lim jarayonini tashkil qilishda auditoriyada beriladigan yuklamalar qisqartirilib, mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish rejalashtirilgan. Bunda talabalar mustaqil ta'limining ahamiyatini yanada oshirish yo'lidan borilmoqda. "Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarning mustaqil ta'lim olishida, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish talabalar bilimini baholash tizimining texnologiyalarini takomillashtirib borish va xolisonaligini ta'minlash, jumladan, baholashning talabalar bilan bevosita aloqasiz shakllarini rivojlantirib borish, fanlarni o'zlashtirishda talabalar orasida sog'lom raqobatni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish" uning asosiy

mohiyatini tashkil etadi.

Bo'lajak Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi davlat standartining kasbiy fanlar blokidagi qalamtasvir va rangtasvir ustaxonalarida o'tkaziladigan mashg'ulotlarga ajratiladigan vaqt ulushini sezilarli miqdorda kamaytirishni nazarda tutadi. Bu esa qalamtasvir va rangtasvir asoslarini o'rgatishda mustaqil faoliyatga ko'proq e'tibor qaratishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-sون Qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi Nizomda mustaqil ishlarga ajratiladigan soatlар miqdori oshirilib, uning ulushi bakalavriat ta'limida umumiyl o'quv yuklamasining 50-60 foizini, magistratura mutaxassisligida esa 60-70 foizini tashkil etishi belgilab qo'yilgan. Xususan, pedagogika oliy o'quv yurtlarining 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishida o'quv auditoriya soatlari 1870 soatga qisqarib, mustaqil ta'lim soatlari 16,3% ga ortgan (1.3.1-rasm).



### **1.3.1-rasm. 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishining o'quv rejasidagi soatlар miqdorining o'quv yillari kesimida o'zgarishi**

Belgilangan mazkur tartib oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish va nazorat qilish mexanizmini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Nazarimizda, mustaqil ish samaradorligi talabalarning maqsad va vazifalari aniq belgilangan, shunigdek, ijodiy topshiriqlar ham kiritilgan, auditoriyadan tashqarida amalga oshiradigan o'quv-ijodiy faoliyati natijasida shakllanadigan ijodiy erkinlik va faollik bilan belgilanadi.

Oliy ta'limning o'quv bo'limg'ari tomonidan tuzilgan rasmiy jadvali asosida ta'lim jarayonida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini malakali tarzda kasbiy tayyorlashning imkoniyati ancha mushkul masala. Shu sababli talabani mustaqil bilim olish va izlanishga o'rgatish kompetensiyalarini shakllantirish, o'z-o'zini rivojlantirish yo'llarini izlab topish muhim masalalardan biri. Bundan ko'rindiki, talabalarning mustaqil ta'lim olish texnologiyalarini ilmiy jihatdan o'rganish va qo'llab-quvvatlagan oliy ta'limning bo'lajak mutaxassislarining sifati ham shunga qarab yuqori bo'ladi.

Talabalar mustaqil ta'limini qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlarida olib borishdan asosiy maqsad shundaki, ushbu fanlar bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy tayyorlashda asosiy fan hisoblanadi va u o'quv jarayonining ajralmas tarkibiy qismidir. "San'atshunoslik" fakultetlari bitiruvchilarining o'qib-o'rganishdan mustaqil kasbiy faoliyatga tabiiy ravishda o'tishini tezlashtiradi. Bu esa ta'lim berish tizimini yanada takomillashtirish, ijodiy vazifalar ulushini ko'paytirish, nazariy fanlarni amaliyotga uzviy bog'lashni talab qiladi.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda auditoriya ishi bilan mustaqil o'qish, ijodiy faoliyat (uy ishi) o'rtasidagi uzviylik ikki tomonlama namoyon bo'ladi. Tasviriy savodxonlik nazariyasi bo'yicha ma'ruzalar va rassomlik ustaxonalarida pedagog rahbarligida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar talabalarning mustaqil faoliyati uchun poydevor vazifasini o'taydi, boshqa tomondan esa, mustaqil o'rganishning o'zi yangi bilimlar orttirishga bo'lgan ehtiyojni

tug'diradi. Oliy ta'lim muassasasida o'qish jarayonidagi mustaqil ta'lim olish va mustaqil o'rganish o'rtaqidagi oraliq bosqichdir. Talabalar mustaqil ta'limi tizimida auditoriya va uy ishini bir-biriga bog'lash bilan cheklanib qolmasdan, turli fanlar (tasviriy san'at tarixi, kompozitsiya, haykaltaroshlik, badiiy bezak va amaliy san'at, tasviriy san'at texnologiyalari) ni ham o'zaro uyg'unlashtirishga alohida ahamiyat berish kerak. Ushbu uzviylikka erishish orqali talabalarning bo'lajak mutaxassisligi asoslarini o'rganishdan tashqari, professional faoliyatida ham o'z ovozi va o'rniga ega shaxs sifatida shakllanib, ijodiy salohiyatini to'la-to'kis ro'yobga chiqara oladigan ta'lim-tarbiya muhitini yaratish mumkin.

Tasviriy san'at bo'yicha talabalar mustaqil ta'limi boshqa o'quv fanlari, ayniqsa, ijodiy faoliyat bilan o'zaro bog'langan bo'lishi kerak. Chunki realistik rangtavsirda kartina kompozitsiyasini yaratish talablariga rioya qilish shart. Zero, unga qo'yiladigan asosiy talablar – kompozitsiya jihatdan tuzilishi, shakllarning konstruktiv va perspektiv qurilishi va buyum tekisligida realistik joylashtirish, shakllarning o'zaro nisbatlariga e'tibor qaratish, hajmli shakllardagi yorug'-soyani bilish va jismlar orasidagi rang tusi munosabatlarini yaxshi anglash kabi xususiyatlarni o'zaro birlashtirish orqali atrofimizni o'rab turgan olamning turfa qiyofasini ranglar orqali tasvirlashga erishish mumkin.

Umuman olganda, qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlariga o'rgatish o'zaro izchil bog'langan uch tarkibiy qismidan iborat bo'lishini talab qiladi. Ular quyidagilardan iborat:

- ta'lim mazmuni;
- pedagogning mashg'ulotlarni ilmiy asosda shakllantirganligi;
- ta'lim jarayonida talabaning ijodiy faolligi.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarining "San'atshunoslik" fakultetlarida Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim

vazirligi tomonidan tasdiqlangan Malaka talablari va o'quv rejalarida, o'z aksini topgan. Ushbu Malaka talablari bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy tayyorlash ixtisosligi bo'yicha ta'lif berishga asoslangan va shakllangan muayyan bilimlar tizimidan iborat. Tabiiyki, u tizim sifatida bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan elementlar yig'indisidan iborat ichki tuzilmasiga egadir. Xuddi shu tarzda biror-bir qonuniyatlar to'plami (kompozitsion yechimi, rang-tus munosabatlari qonuni, soyalar nazariyasi, ranglar uyg'unligi nazariyasi va b.)ni ham ajratib olib, ulardan har birini quyi tuzilma sifatida qabul qilish mumkin.

O'z navbatida, har qanday nazariyani ham asosiy tarkibiy qismlarga taqsimlasa bo'ladi. Tushuncha, qonunlar, tamoyillar, qoidalar nazariyaning shunday tarkibiy unsurlari hisoblanadi. Biz ayrim mezonlarga tayanib, o'rganilayotgan hodisalar doirasini aniqlashtirib olishimiz mumkin:

birinchidan, belgilangan maxsus tushunchalarga tayanib, bu hodisaga ta'rif berishimiz;

ikkinchidan, aniqlangan qonuniyatlar, qoidalar va tamoyillar asosida bu hodisalarning o'zaro qanday munosabatda ekanini izohlashimiz;

uchinchidan, ishlab chiqilgan uslubiy ko'rsatmalar yordamida bu hodisalarni tasviriy vositalar orqali qanday aks ettirishni ko'rsatishimiz mumkin.

O'quv materiallari talabalarning mustaqil o'rganishi uchun to'g'ri tuzilgan va tartibga solingan bo'lishi kerak. Bu masala pedagogning mahorati, uning nazariy va uslubiy bilimi darajasiga juda ko'p jihatdan bog'liq. Professor N.N.Rostovsev [135] yozganidek: "O'qituvchining vazifasi – bu murakkab ish to'plamini tarkibiy qismlarga chuqur o'ylab va oqilona taqsimlashdir. Talabalar mustaqil bilim olish va bu jarayonga ijodiy yondashish uchun o'zlari o'rganilayotgan o'quv fanini o'zlashtirishlari va u bilan ishslashni uddalashlari kerak". Tabiiyki, talabalarning qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlari bo'yicha mustaqil o'quv-ijodiy faoliyatini jonlantirish uchun, ta'lif jarayonida mutaxassislikka

oid qonuniyatlarni o'zlashtirishda ko'maklashadigan o'ziga xos harakat shakli va vositalarini ta'kidlab o'tish kerak. Harakatlarning muayyan ketma-ketligi va vositalaridan iborat qalamtasvir va rangtasvir usullari naturani etyud orqali tasvirlash uchungina xizmat qilmaydi, balki ularning o'zi fanning o'rganishga arziydigan qismidir.

Ta'limning tarbiyaviy maqsadlari va talabalarning tashabbuskorligi, qiziqishlari va ijodiy erkinligini rivojlantirish masalasi o'quv materiallari doirasida cheklanib qolmay, uning tuzilmasiga ham taalluqli bo'lishi kerak.

Talabalar mustaqil ta'limi oliv o'quv yurti ta'lim tizimining muhim jihatlaridan biri. Chunki pedagog talabalarning ilm o'rganish faoliyatini tashkil qiladi va qiziqishlarini yo'naltiradi, xolos. Uning samaradorligi esa tahsil oluvchilarning shaxsiy sa'y-harakatlariga bog'liqdir. Mustaqil bilim o'rganish va shaxsiy ko'nikma, malakalarini takomillashtirish oliv o'quv yurtida o'qishning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Mohiyatiga ko'ra, oliv maktab ta'limining butun jarayoni maxsus tashkil qilingan talabalar mustaqil ta'limidan iborat bo'lishi kerak.

Talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishni ta'minlaydigan auditoriyadan tashqari ishlarni rejalashtirish – bo'lajak mutaxassislarini ixtisoslikka tayyorlashni kuchaytirish va yangilashning strategik yo'nalishidir. Ta'limga oid meyoriy hujjatlarda OTMning ilmiy-pedagog xodimlari ta'lim olayotganlarning mustaqilligi, tashabbuskorligi, ijodiy qobiliyatini rivojlantirishi shartligi ta'kidlangan. Bu muammo yechimi esa oliv kasbiy ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda talabalar mustaqil ta'limini to'g'ri tashkil etish va oqilona rejalashtirish, uyushtirish va nazorat qilishning uslubiy tamoyillaridan foydalanishni taqozo etadi.

Zamoanaviy ta'lim texnologiyalarining samaradorligi ikki teng kuchga ega natijalar bilan baholanadi:

– OTM bitiruvchilarini yaxshi shakllantirilgan va tizimga solingen bilimlar bilan qurollantirish;

– mustaqil o'qib-o'rganish orqali o'z malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, yangi bilimlarni idrok etishga

tayyorlash.

Uyga vazifa berish zaruriyati uning pedagogik maqsadlaridan kelib chiqadi. Ta'lif tizimining eng muhim vazifalaridan biri – barcha tahsil oluvchilarning asosiy bilim va malakalarni birdek teng o'zlashtirishiga erishishdir. Lekin yangi mavzularni o'zlashtirishda talabalar qabul qilish tezligi, demakki, o'rganish vaqtiga ko'ra farq qiladi.

Yuqori qobiliyatli talabalarga qalamtasvir va rangtasvirning asosiy tushunchalarini o'zlashtirish uchun kam sonli mashqlar kifoya qiladi. O'quv vazifalarini sekinroq bajaradigan va harakat qiladigan talabalarga esa ko'proq mashq va muddat zarur. Biz har bir talaba faqat dars vaqtidagina mustahkam bilim va malaka olishi mumkin, degan fikrga qo'shilmaymiz. Bunday vaziyatlarda uyga vazifalar berish kerak. Shu bilan birga, qat'iy muvozanatni ham saqlash shart, chunki tez o'rganish qobiliyatiga ega va topshiriqlarni ustaxonaning o'zida osonlikcha bajaradigan ilg'or talabalar ishtiyoqini yengil-yelpi vazifalar bilan so'ndirish mantiqsizlik bo'lib, noto'g'ri harakat hisoblanadi.

Qolaversa, mustaqil uy ishi shaxs sifatidagi xususiyatlarni rivojlantirishda juda muhim ahamiyat kasb etadi va ularning qiymati faoliyat davomida talabning ko'pligi bilan baholanadi. Ish jarayonida ehtiyoj tug'ilmagan shaxsiy xususiyatlar esa rivojlanmay qolaveradi.

Mustaqillik, majburiyat va mas'uliyat masalasini aynan shu nuqtayi nazardan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ba'zan juda iqtidorli talaba ham hayotda mag'lubiyatga uchraydi, "sinadi", "qoqiladi", chunki unda iroda kuchi, shaxsiy intizom, qunt, sabr-toqat, burch va mas'uliyat tuyg'usi kabi fazilatlar yetishmaydi. Vaholanki, bu xususiyatlarning ahamiyati zakovat va ijodiy salohiyatdan yuqori bo'lsa borki, kam emas.

Auditoriya mashg'ulotlari vaqtida bu xislatlarga e'tibor berib ketilishi mumkin, lekin ularni to'laqonli rivojlantirish imkoniyati mavjud emas, chunki bu jarayon talabandan o'z-o'zini izchil va uzluksiz nazorat qilish, muayyan sa'y-harakatlarni ongli ravishda amalga oshirishni talab etadi. Mustaqil uy ishi, barcha

pedagogik tadbirdilar singari talaba shaxsini rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Uyga vazifa berish zaruriyatini talablar nuqtayi nazaridan asoslash uchun, taklif qilinayotgan uy vazifasi va shu ishni bajarish orqali rivojlanadigan xususiyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aniqlashtirish kerak.

Auditoriyadan tashqaridagi ishning to'g'ri tashkil qilinishi oliv ma'lumotli mutaxassis shaxsining yetakchi xislatlaridan biri hisoblangan mustaqillikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi va talabalarda quyidagi xislatlarni tarbiyalaydi: fan bo'yicha bilimlarini ongli va mustahkam o'zlashtirish; mustaqil o'qish va ijodiy faoliyat olib borish usul va uslublarini o'rganish; shaxsiy bilimlarini mustaqil to'ldirib borish ehtiyojini rivojlantirish vositasi va boshqalar bo'lib xizmat qiladi.

Mustaqil tayyorgarlik yuqori aqliy mehnat madaniyatini shakllantiradi, mustaqil ish ko'nikma va usullarini o'zlashtirish, o'z vaqtini unumli va oqilona taqsimlash, muvaffaqiyatlari o'qish va kasb mahoratini oshirishda yordam beradigan ma'lumotlarni to'plash va ulardan foydalanishga xizmat qiladi. U talabalarda tashkilotchilik, intizom, tashabbuskorlik, iroda kabi xislatlarni rivojlantiradi, mushohada qilish (tahlil, sintez, qiyoslash, taqqoslash va b), mustaqil fikrlash, o'zining qiziqishlari va iste'dodidan kelib chiqib, shunga mos keladigan ishslash uslubini yaratishda ko'maklashadi.

"San'atshunoslik" fakultetlari talabalarining "Tasviriy san'at" yo'nalishi bo'yicha auditoriyadan tashqarida olib boradigan mustaqil faoliyati ularning nazariy bilimlarini yanada chuqurlashtirish, bo'lajak rassom-pedagoglarning ijodiy qobiliyatlari va badiiy jihatdan tafakkurini shakllantirish, kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladi.

Mustaqil ish talabalarining ijodiy faolligini yangi bosqichga olib chiqadi. Mustaqil o'qish-o'rganish orqali orttirilgan bilim va tajriba yangi ijodiy izlanishlar uchun zamin yaratadi. Muammoli vaziyatlarni sinchkovlik bilan tahlil qilish va ularning yechimini topishga mo'ljallangan vazifalar talabalarни erkin va sermahsul fikrlashga undaydi, ularning ham ijodkor, ham bo'lajak pedagog shaxs sifatidagi qirralarini charxlaydi, o'ziga bo'lgan ishonchini

mustahkamlaydi.

Mustaqillik – shaxsning o‘z oldiga muayyan maqsadlarni qo‘yish va ularga ichki imkoniyatlaridan kelib chiqib erishishga harakat qilish orqali namoyon bo‘ladigan muhim xislati hisoblanadi. Erkin tafakkur yoki izlanuvchanlik shaxsning faolligi va qiziquvchanligi mezondir. Talabalarning mustaqilligi tizimli nazoratsiz, o‘qituvchi tomonidan beriladigan rag‘bat va ishtiyoqsiz ham yangilik yaratish ustida ishslash, o‘zining o‘qish-o‘rganish, ijodiy faoliyatining tarkibiy qismlarini o‘zaro uyg‘unlashtira olish qobiliyatida aks etadi. Ijodiy erkinlik tasavvur, yangidan yangi g‘oyalar ustida izlanish, yangicha tashabbuslarni o‘rtaga tashlash bilan tavsiflanadi.

Kasbiy-ijodiy mustaqillik talabalarning quyidagi didaktik maqsadlarga rioya qilishi zamirida shakllanadi:

- yangi bilimlarni mustaqil izlash;
- o‘quv va ijodiy vazifalarni rejalashtirishda tizimlilik va izchillikka e’tiborli bo‘lish;
- alohida vazifalarni yagona kompleksning tarkibiy qismi sifatida yaxlitlikda tasavvur qilish.

San‘atshunoslik, psixologiya va pedagogikaga oid adabiyotlarni tahlil qilish asnosida biz talabalar ijodiy mustaqilligining uch darajasini aniqladik: yuqori, o‘rta va past. Ularning tavsifi 1.3.1-jadvalda keltirilgan.

### 1.3.1-jadval

## Mustaqil ish jarayonida talabalar ijodiy mustaqilligini baholash mezonlari

Mezonlar	Darajalar		
	<i>Yuqori</i>	<i>O'rta</i>	<i>Past</i>
Motivatsion ehtiyojli	Atrof-muhitga nisbatan kuzatuvchanlik, tasviriy faoliyatda uning go'zalliklarini ko'ra olish; tasvirlash jarayonida tasviriy san'at qonun-qoidalaridan mustaqil foydalana olish; yuqori ijodiy salohiyat, ijodiy vazifalarni izlash, faoliyatga shaxsiy munosabatni hal qilishga intilish; mustaqil ta'lif jarayoniga o'ta mas'uliyat bilan qarash va berilgan topshiriqlarni so'zsiz amalga oshirish.	Atrof-muhitga qiziqish bildirish, tabiatdagi shakl va hodisalarini tasvirlashda o'qituvchining ko'magidan foydalinish; reproduktiv faoliyatni afzal ko'rish, ijodiy vazifalarni standart shaklda hal qilish; mustaqil faoliyat jarayonining vaziyatlariga bog'liqligi, o'qituvchi ko'magiga ehtiyoj.	Atrof-muhitga e'tiborsizlik, kuzatilayotgan hodisalarining mohiyatiga qiziqishning yo'qligi; faqat tayyor ko'rsatmalar bo'yicha ishlay olish, tashabbuskorlik va ijodiy vazifalarga qiziqishning yo'qligi, ularni hal qilishda sustlik; mustaqil ta'lilda minimum talablarni ham bajara olmaslik, eskiz va chizgilarini tasvirlashga qiziqishning yo'qligi;
Emotsional irodaviy	Qiyinchiliklarni mustaqil hal etishga intilish; bo'sh vaqtini faqat mustaqil-ijodiy ishga sarflash.	Qiyinchiliklarni mustaqil hal etishda boshqalarining va o'qituvchining yordamiga muhtojlik sezish; mustaqil ta'lif olishga ba'zi-ba'zida qiziqish.	Qiyinchiliklarga qarshi umuman kurasha olmaslik; mustaqil ta'lif olish va tasviriy faoliyatning biror-bir turiga bo'lgan qiziqishning yo'qligi;
Kognitiv	yuqori o'z-o'zidan ixtiyoriy kognitiv faoliyat; inkvizitivlik; qiziqish; keng dunyoqarash, mavzuni iloji boricha yaxshi bilish istagi, dasturdan tashqariga chiqish istagi, predmet zamonaviy san'at holatiga qiziqish, qo'shimcha ma'lumot manbalarini qidirish.	O'qituvchi, otanonalar tomonidan tizimli motivatsiyani talab qiladigan talabalarning bilim faoliyati; dasturning cheklangan bilim doirasi; ularning bilimlarini boyitish uchun qo'shimcha ma'lumot manbalaridan foydalilmaydi.	Kognitiv inersiya; ongsizlik, manfaatlarning noaniqligi; noaniqlik; o'qitishda yaxshi natijalarga erishish istagi yo'q dunyoqarashning torligi, qiziqishning beqarorligi; o'z-o'zini ish bilan ta'minlash tendensiyasi mavjud emas.

Ijodiy mustaqillikning yuqori darajasida talaba o'zining shaxsiy rivojlanishga bo'lgan ishtiyoqidan kelib chiqib, asosiy e'tiborini mustaqil ishga qaratadi. U mustaqil ishning mohiyati, o'quv va ijodiy faoliyatni mustaqil olib borishda ko'maklashadigan yoki xalaqit beradigan shaxsiy sifatlar to'g'risida nisbatan chuqur bilimga ega. Talabada mustaqil ish bilan shug'ullanish uchun zarur ko'nikmalar majmuasi shakllangan, shuningdek, ularni ijodiy izlanish jarayoniga yo'naltirish qobiliyati ham yaxshi rivojlangan. Talaba ishning maqsad va vazifalari, ularni amalga oshirish yo'llarini aksariyat hollarda mustaqil rejlashtiradi, o'qituvchi bu o'rinda ko'proq maslahatchi sifatida namoyon bo'ladi va uning faol talabaga beradigan yordami ko'lami ko'p emas.

Ijodiy erkinlikning o'rta darajasida talaba mustaqil faoliyat olib borishni istaydi va shu bilan birga, uni tashkil qilishda o'qituvchining ko'magi va rahbarligiga katta ehtiyoj sezadi. Uning mustaqil ishslash ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmagan. Talaba faol emas, shuningdek, maqsad va vazifalarni aniqlashtirishda barqarorlik va izchillik yetishmaydi.

Ijodiy mustaqillik darajasi past talaba, odatda, o'z kuchi va iqtidoriga ishonmaydi, o'qish-o'rganishda yaxshi natijalarni qo'lga kiritishga urinmaydi. Bu toifa talabalarda tashabbuskorlik yo'qligi, ijodiy izlanish ishtiyoqi sustligi kuzatiladi. Ular ko'pincha reproduktiv bilish doirasidan tashqariga chiqishmaydi.

Vazifalarnibajarishdakursdoshlaribajarganishlargaqarab ko'chirmakashlik qilish, bajarayotgan o'quv postanovkalarini va xomaki etyudlarning yakunlanmay qolishi, tasviriy san'at texnologiyalaridan unumli foydalanmaslik va samarali texnik usullarni o'rganishdagi qo'nimsizlik, turli tasviriy vositalar bilan ishslash ko'nikmasining yo'qligi – bular ijodiy mustaqillik darajasi past talabalarga xos xususiyatlarning ayrimlaridir.

Mustaqil ish uchun yaratilgan vazifalar dasturida kompozitsiya tuzilishi jihatidan murakkab, muammoli tamoyillarga asoslangan ishlarni amalga oshirilishida talabalarning ijodiy mustaqilligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish uchun zamin yaratadi.

Turli yo'nalishda ijod qilgan tasviriy san'at ustalarining badiiy usullari va shaxsiy texnikasining o'ziga xos xususiyatlarini (bir-biriga qiyosan) tahlil qilish asosiga qurilgan vazifalar ijodiy izlanish va ijodiy tashabbuskorlikning shakllanishiga xizmat qiladi. Muammoli ta'lif tamoyilini qalamtasvir va rangtasvir sohasiga nisbatan qo'llash bitta vazifani tabiatiga ko'ra turlicha etyudlarda rang-barang yo'llar orqali muvaffaqiyatli hal qilish mumkinligini anglatadi. Natura, usul va badiiy ifodalash vositasini talaba mustaqil ravishda tanlaydi (o'rganish predmeti hisoblangan vazifalarda predmet oldindan qayd etib o'tiladi).

Rangtasvir ishlarini bajarish usul va uslublarini o'rgatish kerak. Alla prima uslubida qisqa muddatda etyudlar yaratish, shuningdek, uzoq muddatli va ko'p seansli etyudlar chizish, katta ijodiy kompozitsiya ustida ishlashni izchil va uslubiy ketma-ketlikda o'zlashtirish tizimli fikrlashni tarbiyalaydi. U esa, o'z navbatida, mushohada qilish faoliyatining tarkibiy qismlaridan biri sifatida talaba harakatlarini yuqori pog'onalarga ko'taradi.

Talaba auditoriyadan tashqari o'quv-ijodiy faoliyatni samarali olib borish uchun mustaqil ishning quyidagi ko'nikmalarini o'rganishi kerak:


- turli o'quv-ijodiy vazifalarni belgilash va ularni hal qilish;
- nazariy bilimlarini egallash, predmet ijodiy kompozitsiyalar tuzishda foydalana olish;
- qiyoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, ya'ni analiz va sintez qilish faoliyatini amalga oshirish.

Talabalarning qalamtasvir va rangtasvir bo'yicha o'quv xonasidan tashqarida mustaqil ijodiy faoliyat olib borish qobiliyatini shakllantirish uchun bu jarayonga ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlashtirib olishimiz lozim. Hujjatli, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va tadqiqot olib borish asnosida bu masalaga oydinlik kiritildi. Talabalar ijodiy mustaqilligining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillarni biz besh guruhga ajratdik (1.3.2-rasm):

- motivatsiya beruvchi omillar - bilim va o'rganish predmetiga qiziqish, sinchkovlik, izlanuvchanlik, o'qish-o'rganishga puxtarloq tayyorgarlik ko'rish istagi, yangi bilimlarni

anglash ishtiyoqi va b.:

- ta'lim-tarbiya omillari – tasavvurlar, faktlar, qonunlar, nazariyalar va ishslash uslublari va b.;
- protsessual omillar – o'qituvchining talabalar bilan ishslash usullari, uslublari va vositalari;
- ruhiy omillar – talabalarning yoshga oid xususiyatlari, moyilliklari, ijodiy qobiliyatları, fanga qiziqishlari, irodasi va b.;
- ijtimoiy omillar – tasviriy san'at, ommaviy axborot vositalari va boshqa sohalarda ishlaydigan mutaxassislar, yetakchi ustalar bilan tanishish.



### 1.3.2-rasm. Talabalar ijodiy mustaqilligining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan omillar

O'qituvchi huzurida talabaning mustaqilligi uning bevosita ko'rsatmalari ta'sirida rivojlanadi, uning ishtirokisiz esa ko'plab omillarni (mas'uliyat, ishga vijdanan yondashish, maishiy-turmush sharoitlari va b.) inobatga olgan holda, talabaning shaxsiy tashabbuskorligiga bevosita bog'liqidir. Bundan tashqari, har bir mustaqil ish vazifasi o'zagini alohida o'quv topshirig'i sifatida belgilab olish o'qituvchiga talabaning bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasini bosqichma-bosqich kuzatib borish uchun imkoniyat yaratadi. Bu esa jarayonni oqilona boshqarish, ta'lim berish tizimini

umumiylar va xususiy maqsadlardan kelib chiqib rejalashtirishda qo'l keladi.

Ushbu tadqiqotimiz ma'lumotlari protsessual omillarning yetakchi rol o'ynashidan dalolat bermoqda. Shundan kelib chiqib, o'qituvchining talabalar bilan ishlashda qo'llaydigan usul, uslub va vositalari ularda ijodiy faollik va mustaqillikning shakllanishida juda katta ahamiyatga ega ekani to'g'risida xulosaga kelish mumkin.

Talabaning o'qish jarayonida orttirgan bilimlari ta'lim tizimida doimo ham mustaqil faoliyat sifatida e'tirof qilinmaydi. Buning uchun o'qish davrida shakllangan (shakllanayotgan) bilim, malaka, ko'nikmalar tegishli baholash uchungina o'zlashtirilgan muayyan ma'lumotlar to'plami doirasidan chiqib, talaba uchun alohida ahamiyat kasb etishi kerak. Ular o'qish-o'rGANISH jarayonida talabaning shaxsiy qadriyatlari safidan o'rIN olishi lozim. Bu mustaqil faoliyat mohiyatini belgilab beruvchi juda muhim tushuncha hisoblanadi. Talabaning o'quv va ijodiy vazifalarni bajarish bo'yicha harakatlari rejasi va uning voqelikka nisbatan munosabati shu tushuncha asosida hosil bo'ladi. Bu qonuniyatni talabaning "Kolorit" mavzusini o'rGANISH jarayonidagi faoliyatini kuzatish orqali ko'rib chiqamiz. Mavzuni o'rGANISHGA kirishgan 2-kurs talabalari koloritning asosiy tushunchalarini oldingi darslarda o'rGANISHGAN. Shu sababli mustaqil faoliyatni tashkil qilishda talaba mavzu bo'yicha o'zlashtirgan bilimini yangicha sharoitdagi kuzatuv predmeti sifatida obyektivlashtirishi lozim.

Predmetni kolorit bo'yicha avval o'zlashtirgan tasavvurini shunchaki namoyon qilish bilangina cheklanib qolmay, ranglar uyg'unligi va mutanosibligi to'g'risidagi bilimlaridan yangi tushunchani ifodalaydigan o'zaro munosabatlar, o'zaro ta'sirlar tizimini aniqlashtirishda foydalanishga undaydi. Shuning uchun kolorit tarkibiy qismlarini aniqlash ham, ularning mohiyati ham talaba uchun bevosita va maxsus o'rGANISH obyekti sifatida ko'rilmaydi. Chunki u bu bosqichlardan avvalgi darslarda o'tgan. Bu o'rinda gap barcha jihatlarni yaxlitlikda ko'rib, voqelik va borliqni ranglar uyg'unligida badiiy ifodalashni bilish xususida

bormoqda. Aynan shu vazifa talaba faoliyatida xususiy ahamiyat kasb etadi.

Talabaning mazkur vaziyatdagi faoliyatining ruhiy jihatlari, A.N.Leontev ta'biri bilan aytganda, mohiyati uning motivi – maqsadi, ya'ni o'rganilayotgan muayyan naturadagi u yoki bu ranglar guruhi yoxud yagona rang yetakchiligining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga intilish bilan belgilanadi.

Dasturni shakllantirish jarayonida faoliyat maqsadi boshlang'ich, shu bilan birga, undan ilgarida yuruvchi jihat sifatida ko'rildi. Faoliyat dasturi ishlab chiqilganidan keyin esa maqsad bu zanjirning yakuniy natijasi sifatida kiritiladi. Shunday qilib, mustaqil faoliyatning maqsadi bo'lg'usi natijanigina emas, balki shu natijaga olib kelgan talaba mehnatining yakuniy holatini ham ifodalaydi. Bu jarayon faoliyat predmeti – faoliyat vositalari – uning tarkibiy qismi hisoblangan harakatlar va urinishlarning ketma-ketligidan iborat. Uni chizma shaklida quyidagicha tasvirlash mumkin. (1.3.3-rasm).



### 1.3.3-rasm. Talabalar mustaqil ta'lim faoliyati predmeti va vositalari

Mazkur jarayonning kechishi talabani mustaqil ishni bajarishga undaydigan faoliyatining to'la anglab yetilgan motivi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, motiv bajarilayotgan ishga mazmun bag'ishlaydi. Faoliyat motivi va maqsadining o'zgarishi talaba ish olib borayotgan materialning xususiy

mazmuniga ham o'zgartirishlar kiritadi. Shunday qilib, mustaqil faoliyatning mohiyatini aks ettiradigan asosiy xususiyat talabaning o'qituvchi yordamisiz ishlayotganida emas, balki ana shu faoliyat jarayonini boshqarish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Faoliyatning maqsadi predmet mazmunini o'rganish jarayonida tartibga soluvchi hisoblanib, talabaning mustaqil o'qish-o'zlashtirishida yanada rivojlanishi, yangi bilim, tajriba, ko'nikmalar orttirishida yordam beradi. Tabiiyki, talaba mustaqil ta'limining mohiyati faoliyat maqsadi bilan shu faoliyatni boshqarish maqsadining bir-biriga to'la-to'kis mos kelishidir. Albatta, bu talabaning oliv o'quv yurtini bitirish arafasida nisbiy darajadagina erishishi mumkin bo'lgan mavhum maqsad. Bu mavhumlikni tadqiqotimizga talabaning mustaqil ishi tabiatini to'laqonli ochib berish istagida kiritdik, xolos.

Bevosita ta'lim jarayonida faoliyat maqsadining mazmuni va bu faoliyatni boshqarish maqsadining o'zaro uyg'unlashishi o'qituvchining talaba mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilishdagi rahbarlik maqomi doirasini ancha toraytiradi. U mustaqil ishi vazifalarini talabalarning avvalgi o'qish bosqichlarida shakllangan faoliyat tajribasiga tayanib tuzib chiqish va taqdim qilish bilan kifoyalanadi. Talaba bu vazifalarni asosan o'ziga ma'lum nazariy tushuncha va ta'riflarni ma'lumotlar, hodisalar, holatlar, jarayonlarni tahlil qilish uchun qo'llash darajasida bajaradi. Talabaning bu ko'rinishdagi mustaqil ishi ta'lim berish jarayonida juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi tomonidan ma'lum bir davriylikda tashkil qilinadigan bu tadbirlar talabalarga olgan bilimlarini yanada mustahkamlash, faoliyat vositalari turini ko'paytirish, ularni amaliyotda qo'llash imkoniyatini kengaytirishda qo'l keladi.

Talabalarning o'qish davridagi ijodiy faoliyati va olgan bilimlaridan amaliyotda foydalanish jarayoni P.I.Pidkasistiy [131] tomonidan atroflicha tahlil qilingan. Uning ta'lim psixologiyasi sohasida o'tkazgan tadqiqotlari natijasi va tajribalaridan olingan ma'lumotlar o'quv materiallari mazmuni va tuzilishi ta'lim muvaffaqiyatini ta'minlaydigan asosiy

shartlardan biri hisoblansa ham, ular o'quv faoliyati jarayoni va tarkibini bevosita belgilaydigan omil emasligini ko'rsatdi.

Talabaning mustaqil ishi tizimi samarali ishlashi uchun uning "talaba-o'quv vazifasi-o'qituvchi" uchligining o'zaro munosabatlaridan hosil bo'ladigan alohida xususiyatlarni topish talab qilinadi. Ehtimoliy aloqalar va ular zamirida yuzaga keladigan munosabatlar vazifa mavjud bo'lgandagina o'zini namoyon qiladi. Shundan kelib chiqib, avvalo, har qanday shakl va turga mansub mustaqil ish tuzilmasida, bir tomonidan, talabaning o'qish jarayonidagi tafakkuri va idrokining o'zaro aloqasitabiatini aniqlashtirish, boshqatomondan esa, talabaning idrok etish qobiliyati bilan bilimlari orasidagi o'zaro bog'liq munosabatlar va yaxlitlikka oydinlik kiritib olish zarur. Chunki bular talabaning muayyan kognitiv faoliyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning talaba faoliyatini rag'batlanirishdagi rolini aniqlashtirish masalasi muhimdir.

Ta'lim jarayonida berilgan talabaning mustaqil ishlarini bajarishi samaradorligi ko'p jihatdan:

- mustaqil ish tizimining qanday tashkil qilingani;
- mustaqil ish mazmuni;
- undagi bilimlar tabiatи;
- mantiqan ifodalanishi;
- bilimlar manbasi;
- shu ish berishi mumkin ehtimoliy bilim va tajriba mazmuni;

- talabaning shu ishni bajarish jarayonida erishgan natijalari sifati va boshqa omillarga bevosita bog'liq.

Ba'zi holatlarda talaba mustaqil ishni bajarish orqali yangi bilimlar orttiradi. Ular talabaning o'rganish jarayonidagi izlanishlari natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Boshqa vaziyatlarda, ya'ni talabaning yangi hodisalarni o'rganish paytida qo'llaydigan shu bilimlari yangi bilimlarni o'zlashtirish vositasi, faoliyat "quroli" sifatida xizmat qiladi. Masalan, rang va tus munosabatlarini o'rganishda talabalar avval "rang", "tus", "rang to'yinganligi" kabi tushunchalarni o'zlashtirishadi, keyin shularning o'zidan ranglar o'rtasidagi

munosabatlarni aniqlashtirish, tasvirni badiiy ifodalash usuli sifatida foydalanishadi, etyudlarini ranglarning o'zaro uyg'un munosabati asosiga qurishga harakat qilishadi.

O'rganish faoliyatining turli bosqichlarida tafakkur rivoji va bilimlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik alohida ahamiyat kasb etishni boshlaydi. Chunki talabaning bilimidan o'qish-o'rganish vositasi sifatida foydalanishga urinishi muayyan darajada shakllangan mushohada, tafakkurni talab qiladi. Albatta, ayrim hollarda talabaning bilim doirasi ko'r-ko'rona va "quruq" yodlangan qoidalardan iborat bo'lishi mumkinligini ham unutmaslik kerak. Shu nuqtayi nazardan, bilimlarni o'zlashtirish – tafakkurni rivojlantirish va ularni talabaning mustaqil faoliyati mahsuli hisoblangan ijod namunalarida gavdalantirishning zarur shartidir. Lekin mustaqil ishni bajarish orqali bilim o'rganish va uni badiiy obrazlarda ifodalashga urinish doimo ham talaba tafakkurini rivojlantirmaydi.

Talabalarning mustaqil faoliyat doirasidagi reproduktiv, ya'ni namunalar asosidagi harakatlari ijodiy jarayonlarga tayyorgarlikning dastlabki bosqichi, poydevori hisoblanadi. Bizning qalamtasvir va rangtasvir bo'yicha mustaqil ishlar mohiyatini ochib berishdagi boshlang'ich nuqtamiz shundan iborat.

## **II BOB. TALABALARING MUSTAQIL TA'LIM OLİSH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH METODIKASI**

### **2.1-§. Tasviriy san'at yo'nalishlari talabalarining mustaqil ta'lif faoliyatini tashkil etish va boshqarish modeli**

Nazariy-metodik adabiyotlar hamda "San'atshunoslik" fakultetlari talabalari mustaqil ta'limi tashkil qilish va boshqarishning amaliyotdagi tahlili asosida talabalarining mustaqil ta'lif faoliyatini tashkil etish va boshqarish modeli ishlab chiqildi. Talabalar mustaqil ta'limgatizimliyondashuvdan kelib chiqib, uning asosiy elementlarini belgilaymiz. Bular: talabalar mustaqil ta'liming maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakllari, metodlari, metodik usullari, ta'minlash vositalari.

Model dinamik tizim hisoblanadi. Uning elementlari orasida doimiy o'zaro ta'sir ro'y beradi. Ulardan birini batafsil o'rganish talabalar mustaqil ta'limi butun jarayonini optimallashtirishga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlashga olib keladi. Ustaxonalarda o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar bilan birlikda talabalar mustaqil ta'limi qalamtasvir, rangtasvirga va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlarini o'rgatish jarayoniga kiradi. Mustaqil ta'limi biz asosan ta'lif maqsadlariga erishishga xizmat qiladigan, boshqariladigan jarayon sifatida olib qaraymiz. Ularni (maqsadlarni) belgilash – mustaqil ta'lif samaradorligining asosiy omili. Pedagogika OTM "San'atshunoslik" fakultetida ko'p profilli mutaxassis tayyorlashning o'ziga xosliklarini hisobga olgan holda yaxlit o'quv-tarbiyaviy tizimni tashkil etadigan o'qitishning har bir bosqichi maqsad va vazifalari, mazmunini talabalarning amaliy ishlariga nisbatan aniq belgilash muhim. "San'atshunoslik" fakultetlari talabalarining qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlari bo'yicha auditoriyadan tashqari ishlarning metodik tizimini ishlab chiqishda maqsadni belgilash prinsipiga qat'iy amal qilindi.

"San'atshunoslik" fakultetlarining 2- va 3-kursida

talabalar mustaqil ta'limining maqsadi, vazifalari va mazmuni tasviriy san'at ta'lim yo'nalishida qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlarini o'rgatishning umumiy maqsadlaridan kelib chiqadi. Mustaqil ta'limni tashkil etishda fanning asosiy maqsadlariga mos kelishiga qarab va mavzularni saralab olishda quyidagi mezonlarga rioya qilindi: maqsadga erishishning realligi mumkinligi va qarama-qarshiliklarning mavjud emasligi. Rejalahtirilayotgan talabalar mustaqil ishlarining xususiyatlari asosiy maqsadining ustuvorligi, pirovard natijaga, yo'nalganlik hisoblanadi.

Qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlarini o'qitish umumiy jarayonning bir qismi sifatida talabalar mustaqil ishi ularda erishilishi kasbiy tayyorgarlikning maqsadi bo'lgan va shu jarayonni tezlashtiradigan ko'nikma va malakalarni shakllantirishga ko'maklashishi lozim.

Fan dasturlari va o'quv rejalarini talablariga tayanib, bo'lajak rassom-pedagoglar qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlarini o'rganishning boshlang'ich bosqichida egallash lozim bo'lgan asosiy malakalar ro'yxatini shakllantirish mumkin:

- naturani yaxlit ko'ra olish va ayni vaqtida uning barcha qismlarini qiyoslash;
- ishni metodik izchillikda savodli olib borish;
- tasvirni qog'oz yoki mato tekisligida to'g'ri kompanovka qilish;
- qalamchizgi yoki etyudda tus va rang munosabatlarini naturadagidek haqqoniy tarzda ifodalash;
- naturaga qo'yilgan shakllarning yoritilish holatini fazo muhitiga mos ravishda o'zaro bog'liq tarzda tasvirlash;
- tus va ranglar vositalarida shakllar hajmi, fazoviyl holati va joylashuvini hamda haqqoniyligini ifodalash;
- tasvirni bir butunlikka (yagona holatga) keltirish;
- kompozitsiya markazini belgilash va qo'yilmada ikkinchi darajali shakllar bilan uyg'unlikka keltirish va boshqalar.

Mustaqil ish topshiriqlarini belgilashda mazkur vazifa

qaysi maqsadlarga xizmat qilishi, qanday turdag'i malakalarni rivojlantirishi kerakligini aniqlab olish lozim. Qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlari bo'yicha talabalar mustaqil ishlarining asosiy mazmuni ish usullarini o'zlashtirishga oid faoliyat bo'lib qolmasdan, asosan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarning ijodiy qo'llash malakalarini shakllantirish, har bir boshlovchi rassom-pedagogning individual ijodiy imkoniyatlarini kashf qilishdan iborat.

Qalamtasvir, rangtasvir fanlarini o'rgatish dasturlari, Tasviriy san'at bakalavriat yo'nalishi "Malaka talablari"da belgilangan mutaxassislik talablarini tahlil qilish asosida shakllantiriladi. "San'atshunoslik" fakultetlari talabalari tayyorgarligining bosqichi (II va III kurslar) har bir semestr uchun qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlarini o'rgatish maqsadlari alohida ajratildi va tartiblashtirildi (2.1.1- va 2.1.2-rasmlar).

Mustaqil ish davomida ta'limga asosiy funksiyalari amalga oshiriladi: bilimlarni o'zlashtirish, mustahkamlash va barqaror ko'nikma, malakalarga aylantirish; ratsional ish usullarini shakllantirish; qalamtasvir, rangtasvir fanlarida kompozitsiyaga oid mashqlarni kengaytirish asosida ijodiy fikrlashni rivojlantirish; bilimlarni mustaqil izlash ko'nikmalarini o'zlashtirish; ijodiy faoliyatga jalb qilish. Boshqariladigan va tashkil qilinadigan talabalar mustaqil ishlari ta'lim muassasasida o'quv-tarbiyaviy ishlar yaxlit tizimining qonuniyatli tarkibiy qismi sifatida ularning mustaqil ta'limi bilan uzviy bog'liqlikka ega.

Mustaqil ta'lim faoliyat tajribasini shakllantirishning muhim sharti va vositasi bo'lib maxsus tashkil qilingan pedagogik jarayonga xizmat qiladi. Talabalarni mustaqil ta'limga tayyorlash talabalar mustaqil ishlarining asosiy vazifalaridan biri, u o'qituvchi va talabalar hamkorligi asosida amalga oshiriladi.



### 2.1.1-rasm. Qalamtasvir fani bo'yicha talabalarning mustaqil ish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar



### 2.1.2-rasm. Rangtasvir fani bo'yicha talabalarning mustaqil ish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar

Talabalar mustaqil ta'limga rahbarlikka qaratilgan o'quv-tarbiya jarayoni pedagogning tashqi boshqaruvi va talabalarning o'zi tashkil qilgan mustaqil ishi sintezini o'zida aks ettirishi lozim. Bunday o'zaro hamkorlik tizimi talabalar o'z o'quv-ijodiy faoliyatini mustaqil rejalashtirishga o'rganishi va qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish sari harakatlanishi uchun ichki sharoitlar yaratadi.

Talabalarning qalamtasvir va rangtasvir bo'yicha uy ishlari topshiriqlar bilan belgilanadi va ko'p hollarda qisman boshqariladigan jarayon hisoblanadi. Bu uni xarakteri va ketma-ketligi oldindan belgilangan, shuningdek, nazorat va korreksiyani nazarda tutadigan maqsadli o'quv harakatlari (amallari) majmausi sifatida rejalashtirish imkonini beradi.

Talabalarning auditoriyadan tashqari ishlarini ilmiy-metodik asosda tashkil qilish psixologiya, umumiylidik didaktika va tasvirisan'ato'qitish metodikasita lablarini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. Psixologik jihatdan talabalarning ta'limgarayoniga ijobiy munosabati va o'qituvchining bu ikki tomonlama jarayondagi o'rnini tushunib yetishni shakllantirish muammosi alohida e'tiborga molik. Insonning o'zi o'qishi, o'qituvchi esa bunda faqat yordam berishini anglab yetish - talabalar mustaqil ta'limi samaradorligining asosiy psixologik sharti. Bilihga qiziqishning mavjudligi talabalar o'quv faoliyatining juda muhim omilidir. Biror hodisani mustaqil o'rganganda talabalarda haqiqiy qiziqish yuzaga keladi. Rangtasvirni o'zlashtirishda talabalarning ijodiy tashabbuskorligini faollashtirish uchun ba'zida bitta alohida masalani mustaqil hal qilishga rag'bat, o'rganilayotgan hodisa ijodiy ishda qanday aks etishini ko'rsatib berishning o'zi kifoya qiladi.

Mustaqil faoliyat talabalarning bilishga qiziqishlari chuqurlashishi bilan uzviy bog'liq. Talabalar o'zlarining rivojlanishini, bilimlari ortayotganini his qiladi va bu muammoni keyingi o'rganish uchun rag'bat bo'lib xizmat qiladi. Talabalar mustaqil ishlari muvaffaqiyatining yana bir muhim psixologik omili deb, talabalar o'z o'quv mehnatining ijobiy natijalarini ko'radigan tarzda tashkil qilinishini ko'rsatish mumkin.

Mustaqil ta'lim samaradorligining asosiy didaktik sharti talabalarning oldingi harakatlari natijalarini keyingilariga erishish usuli sifatida kiritishga undaydigan topshiriqlarni bajarishga muntazam jalb qilishdan iborat.

Mustaqil (uy) ishini muvaffaqiyatli bajarishning muhim shartlaridan yana biri mustaqil ta'limning ilmiy-metodik ta'minoti, ya'ni metodologiya, psixologik, didaktika va o'qitish metodikasi talablariga javob beradigan hamda rassom-pedagogning zarur kasbiy sifatlarini shakllantirishni ta'minlay oladigan maxsus interaktiv elektron o'quv-metodik qo'llanmalarning mavjudligidir.

Talabalar bilan o'qituvchi o'rtasidagi munosabatlar katta ahamiyat kasb etadi. Talabalarning o'quv faniga qiziqishi o'qituvchining ularning muvaffaqiyatidan manfaatdorligi, uning talabalarga yuqori malakali mutaxassis bo'lishda astoydil yordam berishga samimiy intilishi bilan qo'llab-quvvatlanadi. Talabalarni faol va maqsadli ishlashga undab, o'qituvchi har bir talabaga auditoriyadan tashqari ijodiy-o'quv faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, qalamtasvir, rangtasvir fanlari bo'yicha tayyorgarlik vaqtini butun semestrga ratsional taqsimlash, talabani ko'rgazmali misollar va metodik ko'rsatmalar bilan ta'minlashi lozim.

Ko'plab pedagoglarning ta'kidlashicha, bilimlarni o'zlashtirish samaradorligi va sifati talabalarning individual xususiyatlari: ta'limga motivatsiyasi, tajribasi, shaxsiy sifatlariga ko'p jihatdan bog'liq. Fikrimizcha, talabalar mustaqil ishlari maqsadiga erishishi uchun talabalarda mustaqil ta'limga tayyorlik, yangi bilimlarni o'zlashtirish va tajribasini takomillashtirishga doimiy ehtiyojni shakllantirish zarur. Bunday ishni tashkil qilish esa o'zaro bog'liq, uyg'un tarzda birlashtirilgan metodik prinsiplarning majmuasi bilan belgilanadi.

Prinsiplar deganda, talabalar mustaqil ishlari mazmuni va xarakterini belgilaydigan boshlang'ich qoidalarni tushunamiz. Ko'plab tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish natijasida, talabalar mustaqil ishlarining quyidagi asosiy prinsiplarini ajratib ko'rsatish mumkin, degan fikrga keldik: ilmiylik prinsipi,

tizimlilik va izchillik prinsipi, onglilik va faollik prinsipi, tushunarлilik va yetarlilik prinsipi, nazariya bilan amaliyotning birligi prinsipi, ko'rgazmalilik prinsipi, individuallashtirish prinsipi, mehnat ko'lmandorligi prinsipi, optimal rejalashtirish prinsipi, ijodiy faoliyatga jalg qilish prinsipi.

Bu barcha prinsiplar o'zaro bog'liq va umuman talabalar tomonidan mustaqil o'quv-ijodiy faoliyat jarayonining bilimlar tizimini egallah va amaliy malakalarni takomillashtirish jarayoni sifatida tushunilishini ta'minlaydi. Oliy ta'lim sharoitida mustaqil ishning tizim hosil qiluvchi prinsipi, fikrimizcha, o'qituvchi va talabaning hamkorlikdagi ijodi bo'lishi lozim.

Mustaqil ta'limni tashkil qilishga rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasini qo'llab, bu ishning quyidagi qo'shimcha prinsiplari ajratildi: talabalarda mustaqil ta'limga ijobiy yondashuvni shakllantirish prinsipi, talabalar tomonidan mustaqil ta'lim jarayoni zarurligining anglanishi prinsipi, yuqori darajadagi murakkablikda o'qitish prinsipi, mustaqil ta'limni tashkil qilishda o'qituvchining yetakchi roli prinsipi, har bir talabaning ijodiy rivojlanishi ustida tizimli ishslash prinsipi.

Bu prinsiplarga rioya qilingan auditoriyadan tashqari o'quv-ijodiy faoliyat talabalarda jonli hissiyat va irodaviy soha bilan bog'liq mustaqil va izlanuvchan tafakkurni uyg'otishga qaratilgan. Bu mustaqil ta'limni bajarishda monotonlik va zerikishni bartaraf qilishga ko'maklashadi. Tizimlilik va izchillik – talabalarning tasviriy savod nazariyasiga oid bilimlar, rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasining asosiy qoidalarini chuqur va mustahkam o'zlashtirishining muhim shartlaridir. Talabalar mustaqil ishlarida tizimlilik o'quv-ijodiy faoliyatning mantiqiy izchil tizimi, birinchi kursdan to bitiruvchi kursgacha mustaqil mashg'ulotlar maqsadliligi va uzlusizligini nazarda tutadi.

Talabalar mustaqil ta'limini samarali tashkil qilish uchun talabaning individual xususiyatlarini aniqlash lozim. talabaning ustaxonada bajarilgan birinchi ishini (nisbatan murakkab, ikki-uch predmetdan iborat natyurmort) ko'rgandayoq uning maxsus tayyorgarlik darajasi aniqlanadi va har bir talaba uchun individual tarzda tasviriy savodxonlik asoslarini shakllantirish

yo'llari belgilanadi.

Talabaning individual xususiyatlarini ta'lim jarayonida ayniqsa, mustaqil ishda hisobga olish zararligi, shubhasiz. Chunki talabalar bir-biridan turli ko'satkichlariga ko'ra jiddiy farqlanadi. Bu talab ta'limni pedagogika nazariyasida individuallashtirish yoki individual yondashuv nomi bilan yuritiladi. Bu prinsipni amalgalashirishga umumiy yondashuv K.K.Gomoyunov tomonidan shakllantirilgan: "Mashg'ulotlarni, bir tomonidan, mustaqil ta'limning qandaydir minimumini barcha talabalar tomonidan so'zsiz bajarilishini, boshqa tomonidan esa, yaxshiroq tayyorgarlikka ega talabalarning yanada intensiv ishlashini ta'minlagan holda olib borish kerak".

Talabalar mustaqil ta'limini tashkil qilishning shaxsiy yo'naltirilgan tipi (axborot tipidan farqli o'laroq) talaba shaxsining rivojlanishi va o'zini o'zi rivojlantirishi, o'zini o'zi mustahkamlashi, o'zini o'zi realizatsiyalashini ta'minlaydi. Talabalar faoliyatini individuallashtirish – auditoriyadan tashqari ish tizimida muhim shartlardan biri. Talabalar o'zining individual darajasiga mos topshiriqlarni bajarganida ularning rivojlanishi jadalroq kechadi. Ta'limni individuallashtirishni materialni eng past darajada tayyorgarlikka ega bo'lgan talabalar uchun asta-sekin minimallashtirish va soddalashtirish deb tushunmaslik. Unga tenglashtirmaslik lozim. Talablarning pasaytirilishi savodli, yuqori malakali mutaxassisni tayyorlashga ko'maklashishi mumkin emas.

Talabalarga individuallashtirilgan yondashuv nafaqat taklif qilinadigan topshiriqlarning hajmi, murakkabligi va bajarish muddatlarini tabaqlashtirish, balki ko'proq ta'limda ko'rsatiladigan yordam miqdori va xarakterini tabaqlashtirishni nazarda tutadi.

Talablarning mustaqil rivojlanish imkoniyatlari o'quv materialining puxta o'ylab saralangani va bu asosda tuzilgan mustaqil ta'lim topshiriqlariga bevosita bog'liq. Biroq bu vositalar rivojlanish omillari, xolos. Ta'lim haqiqatan ham ta'limiy samara berishi uchun bitta shartga rioya qilish – rivojlanayotgan subyekt faoliyat va muloqotga jalb qilingan bo'lishi lozim. Ta'lim samaradorligi nafaqat beriladigan

topshiriqlar xarakteri, balki talabaning subyekt sifatidagi faolligiga ham bog'liq. Bu qoidani inkor qilish sifatli o'quv topshiriqlari bajarilish effektini nolga tenglashtirishi mumkin. Talabaga topshiriqlar beriladigan, talablar qo'yiladigan passiv obyekt sifatida munosabatda bo'lism, topshiriq berilishining o'zi uning bajarilishini avtomatik ko'zda tutishi haqidagi soxta tasavvurga asoslanish yaramaydi. Ko'plab pedagoglarning fikricha, o'quv jarayonini o'zida o'zi tartibga solish qobiliyatini shakllantirish shaxsning faolligini tarbiyalash mahsuli hisoblanadi. Demak, mustaqil ta'llim dasturini muvaffaqiyatlil amalga oshirish uchun, avvalo, talabaning maqsadi o'qish bo'lgan pedagogik-psixologik vaziyatni yaratish zarur. Bu bo'yicha polshalik didakt V.Okonnning fikricha, qiziquvchanlik va manfaatdorlik, o'zlashtiriladigan materialning zarurligini anglab yetish, vazifalarni hal qilish jarayonidan intellektual qoniqish o'quv motivlari bo'lib xizmat qiladi va talabada o'qishga ijobiy hissiy munosabat yaratadi.

Talabalar mustaqilligini rag'batlantirishga qaratilgan o'quv jarayonini tashkil qilish, nafaqat "San'atshunoslik" fakultetlarida o'qitish uchun dolzarb, balki ancha uzoq vaqtdan beri didaktikaning asosiy masalalaridan biri bo'lib kelmoqda.

Tadqiqotlarimiz davomida biz o'quv jarayonini boshqarishning talabalar faolligi bilan farqlanadigan ikkita shaklini aniqladik. Ularning birinchisi, talaba faoliyatini qat'iy reglamentlashni nazarda tutadi: harakatlar tizimi unga tayyor ko'rinishda beriladi (algoritmlar asosida o'qitish). Boshqaruvning ikkinchi shakli, talabalarni muammoli topshiriqlarni hal qilishga yo'naltirish. Aynan shu shakl faollikka olib keladi.

Muammoli o'qitish talabalarning nafaqat fikrlash jarayonlarini faollashtiradi, balki izlanishli topshiriqlar vositasida ularda qiziqish va zarur o'quv motivatsiyasini shakllantiradi. Talabalarni faollashtirishning oliy shakli - ijodiy faollikni shakllantirishdir.

Mustaqil ish sohasidagi tadqiqotlar mualliflari ijodiy tashabbusni tarbiyalashning sharti talabalarda elementar bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladigan quyi

bosqichlarda undan (mustaqil ta'lidan) oldin keladigan va unga hamrohlik qiladigan faollik degan xulosaga keladi. Ayni vaqtda, fikrimizcha, tasviriy savodxonlik asoslarining tiklanish davrida uy vazifalarining ijodiy tomoniga birinchi darajali ahamiyat qaratish hamma vaqt ham foydali bo'lmaydi, chunki kuchsiz talabalar uchun zararli bo'lishi ham mumkin.

Faqat talabalar qalamtasvir va rangtasvirning asosiy qonuniyatlarini o'zlashtirgandan keyingina naturani, ayniqsa, kompozitsion ishlarda, tasvirlashga ijodiy yondashuv elementlarini asta-sekin joriy qilish mumkin. O'qitishda davom etib, ijod uchun imkoniyatlar yaratish kerak. Aks holda o'zlashtirish ishonchli bo'lmaydi, jarayon formal va zerikarli bo'ladi, olingan bilimlar, kundalik maqsadli mashqlar bilan mustahkamlanmagani holda oson unutiladi. Talabalar hamma vaqt o'qishni xohlashlari, ularda bilishga nisbatan doimiy tashnalik bo'lishi lozim.

Ijodiy topshiriqlarni o'quv jarayoniga asta-sekinlik bilan kiritish kerak. Bunda naturadan qalamtasvir va rangtasvir bajarishning ahamiyatini sira pasaytirib bo'lmaydi. Talabalar ishonchli obraz yaratish uchun naturani batafsil o'rganish zarurligini anglab etishi lozim. O'quv vazifalarini qalamtasvir va rangtasivrida ijodiy tarzda tasvirlash birinchi o'ringa qo'yiladi.

O'quv va ijodiy ishlar ko'rgazmalari talabalar ijodiy faolligi va mustaqilligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. Talabalar ijodiyishini samaralitashkil qilish huchun ularning ijodiy yutuqlarini baholashning ilmiy asoslangan mezonlari kerak. Ijodiy muvaffaqiyatlarni baholash – bu talaba dasturdan ortiq erishgan natijalarining barchasini, o'zini ko'rgazma, ehtimol, tadqiqotchilik, ilmiy-metodik faoliyatda ham qanday namoyon qilganini baholash. Ijodiy jarayonning produktiv xarakterini inobatga olgan holda talabalarning ijodiy muvaffaqiyatlarini baholash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin: ijodiy kompozitsiyaning yangiligi va mavzuning ahamiyatliligi, natijaning originalligi va sifati, ijodiy ish kompozitsiyasining bugungi kun talablariga mosligi va tarbiyaviy ahamiyati.


O'qituvchining talabalar mustaqil ishlarida rahbarlik roli prinsipi shundan iboratki, uni tashkil qilish, boshqarish,

metodik jihatdan ta'minlash, nazorat va natijadorlik uchun o'qituvchi javobgar hisoblanadi, shuning uchun o'quv, ilmiy-metodik va tashkilotchilik ishining barcha turlari uning (mustaqil ta'larning) samarali ta'minlanishiga qaratilishi kerak. Sanab o'tilgan metodik prinsiplar izolyatsiyalangan turli xil qoidalar emas, balki yaxlit tizimni namoyon qiladi. Bu tizim prinsiplaridan birini samarali amalga oshirish boshqa hammasiga qat'iy rioya qilish bilan uzviy bog'liq.

Talabalar mustaqil ta'larning yuqorida keltirilgan ro'yxati tugal emas. Ular ta'larning turli bosqichlarida talaba tayyorgarligining maqsad va vaziyatlari, boshqa omillar ta'sirida variatsiyalashi va to'ldirilishi mumkin. biroq amalga oshirilgan tajriba-sinov va ish tajribasi ko'rsatadiki, ko'rib chiqilgan prinsiplar talabalar qalamtasvir, rangtasvir fanlarining nazariy qoidalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi, bo'yoq bilan ishslash malakalarini shakllantirishi, bilish faolligi, ijodiy mustaqilligi oshishi, o'ziga o'zi ta'lim berish, o'zining nazariy va amaliy bilimlarini doimiy takomillashtirishga qodir bo'lgan rassom-pedagog shaxsining tiklanishini ta'minlay oladigan mustaqil ish tizimining asosini tashkil qiladi.

Tajriba davomida talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatlarini tashkil etish uchun bir nechta o'yinli topshiriqlar, muammoli topshiriqlar, so'rovnomalar (<https://fineart.cspri.uz/2023/sorovnama-2905/>) berildi va ularning qiziqishlari, bilim darajalari, mantiqiy fikrlay olish qobiliyatları kabi bir qator xususiyatlari o'rganildi. Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish hamda pedagogik izlanish natijalarini umumlashtirish asosida talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish modeli ishlab chiqildi (2.1.3-rasm).

Mazkur modelda o'qitishning an'naviy, noan'anaviy, innovatsion pedagogik texnologiyalari, elektron ta'lim va dasturiy mahsulotlardan foydalanish orqali talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodikasi takomillashtirilgan. Oliy ta'lim talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodikasini takomillashtirish modeli to'rtta (maqsadli, tashkiliy, boshqaruv, natijaviy) qismdan iborat.



## 2.1.3-rasm. Talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish modeli

Mazkur qismlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Ijtimoiy buyurtma. Raqobatbardosh, mustaqil fikrli, ijodkor pedagog-rassom kadr tayyorlash.

2. Maqsad. Talabalar mustaqil ta'lmini tashkil etish va boshqarish.

3. Pedagoglarning kasbiy faoliyat komponentlari quyidagi turlarga bo'lindi: motivatsion, refleksiv, kognitiv, faoliyatli hamda ijodiy komponent.

4. Mustaqil ta'lif metodlarini qo'llash shart-sharoitlari talabalarning mustaqil ta'lif olish faoliyatini tashkil etish va boshqarishda pedagogik yondashuvlar, tamoyillar va tashkiliy metodik ta'minotni o'z ichiga oladi.

4.1. Yondashuvlar. Talabalarning mustaqil ta'lif olish faoliyatini tashkil etish va boshqarishda kompetentli, axborotli, loyihamiy, tizimli va kreativ yondashuvlarning katta ahamiyat kasb etishi aniqlashtirildi.

4.2. Tamoyillar. Talabalarning mustaqil ta'lif olish faoliyatini tashkil etish va boshqarishda ko'rgazmalilik, intgerativlik, yosh va individual kompetensiyalarni rivojlantirish va baholash mezonlaridan tashkil topgan.

4.3. Tashkiliy metodik ta'minot. Yuqorida keltirilgan yondashuvlar va tamoyillarni talabalarning mustaqil ta'lif olish faoliyatini tashkil etish va boshqarishda moddiy-texnik baza, bosma va elektron ta'lif resurslarini talab darajasida shakllantirish maqsadga muvofiq.

5. Talabalarni mustaqil faoliyatga tayyorlash mazmuni.

5.1. Bosqichlari. Tadqiqot ishi davomida talabalarning bir nechta umumiy hamda kasbiy kompetensiyalarni belgilab olib, o'qitish metodlari orqali ushbu kompetensiyalarni talabalarda shakllantirish va rivojlantirish orqali mustaqil ta'lif faoliyatini tashkil etish va boshqarishda asosiy maqsad qilib olingan. Talabalarning mustaqil ta'lif faoliyatini tashkil etish va boshqarishda 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lif yo'naliши о'quvrejasif fanlar blokidan qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlari tanlab olindi. Ushbu fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning KK-1.1,

KK-1.3, KK-1.7 kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Bunda talabalar: kompyuterning axborotga ishlov beruvchi vosita sifatidagi rolini; kompyuter dasturlari va ularning axborotlarga ishlov berish jaryonidagi o'rnini; shaxsiy kompyuterlar tasnifi va tarkibini; tizimli blok va uning tuzilmasini; kompyuterda ma'lumotlarni tashkil etish va saqlashni; elektron darsliklardan foydalana olishni; internet tarmog'idan kasbiy sohaga mos ma'lumotlarni topa olishni; internetdan axborotni izlab topish, umumlashtirish va tushunarli shaklga keltirishni; kompyuter o'yinlari, didaktik o'yinlar yordamida mustaqil ta'lim olishni bilish kabi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.

Talabalarni mustaqil faoliyatga tayyorlashda mustaqil ta'lim quyidagi bosqichlar (loyihalash, modellashtirish, konstruksiyalash va amalga oshirish)da amalga oshiriladi:

5.1.1. Loyihalash bosqichi. Ushbu bosqichda professor-o'qituvchi talabaga hal qilinishi kerak bo'lgan muammo, maqsad va vazifani qo'yadi. Talaba esa ushbu muammoni o'rganib, dalillarni tahlil qilib, gipoteza ishlab chiqishga kirishadi.

5.1.2. Modellashtirish bosqichi. Bu bosqichda mustaqil ta'lim jarayonining modeli quriladi, ya'ni barcha tahlil qilinayotgan dalillar ma'lum bir modelga tushiriladi.

5.1.3. Konstruksiyalash bosqichi. Maqsadlar nomlanib, o'quv vositalar tuzilmasi ishlab chiqiladi, saralanadi va loyihalanayotgan tizim yoki texnologiya asoslanadi.

5.1.4. Amalga oshirish bosqichi. Ma'lumotlarni olish, tadqiqot natijalarini baholash, amaliyotga joriy etish tadbirlari amalga oshiriladi.

5.2. Shakllari. Talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish va boshqarish shakllari jamoaviy, guruhli va individual ko'rinishdagi shakllardan iborat:

5.2.1. Jamoaviy. Talabalar jamoasiga tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanidan bitta muammoli vaziyat (keys stadi) vazifasi mustaqil ta'lim topshirig'i sifatida beriladi. Mazkur topshiriqni butun jamoa kelishgan holda tizimli yondashib mukammal yechim topishi talab etiladi.

**5.2.2. Guruhli.** Talabalar guruhlarga ajratilib, ularga mustaqil ta'lim topshirig'i sifatida rangtasvir fanidan mavzuli kompozitsiya chizish vazifasi beriladi. Guruhlarga ajratish talabalarning ishslash uslubi, rang palitrasи bir-biriga yaqin bo'lganligiga qarab shakllantiriladi. Vazifa yakunida talabalar bitta mavzuda hamfikr bo'lib, kompozitsion uyg'unlikdagi yaxlit asar yaratishadi. Talabada jamoaviy qarorlar qabul qilish, boshqalar fikrlarini eshitish, bir-biridan o'rganish, liderlik qobiliyatlari kabi kompetensiyalar shakllanadi.

**5.2.3. Individual.** Har bir talabaga alohida uning bilim darajasi, psixologik xususiyati, ishslash uslubiga qarab mustaqil topshiriqlar berib boriladi va bevosita professor-o'qituvchi mustaqil ta'lim faoliyati bilan individual shug'ullanadi. Individual bajarilgan mustaqil ta'lim topshiriqlari natijalaridan talabaning o'ziga xos sifatlari o'rganiladi. Har bir talabaning iqtidoriga mos mustaqil ta'lim topshiriqlari shakllantiriladi.

### 5.3. Metodlari:

**5.3.1. An'anaviy.** Mustaqil ta'limni tashkil etish va boshqarishda ananaviy darslik, o'quv qo'llanmalar, topshiriq, savol-javob, mustaqil ta'lim dasturlari asosidagi vazifalar berish metodlaridan foydalilaniladi.

**5.3.2. Noan'anaviy.** Aralash ta'lim, ko'rgazmali, o'yinli, hamkorlik metodlaridan foydalilaniladi.

**5.3.3. Innovatsion ta'lim texnologiyalari.** Mustaqil ta'limni tashkil etish va boshqarishda interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalilaniladi.

**5.3.4. Elektron ta'lim.** Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish va boshqarishda ta'lim platformalari (Moodle, Hemis), dasturiy mahsulotlar, interaktiv elektron qo'llanmalar (Tasviriy san'at o'qitish metodikasi elektron o'quv qo'llanmas), interaktiv test, krossvord, mobil ilovalardan foydalilaniladi.

6. Talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini boshqarish.

6.1. An'anaviy usullar orqali. Amaliy ish, savol-javob, topshiriqlarni qabul qilish.

6.2. Platformalar orqali. Moodle yoki Hemis tizimi orqali mustaqil ta'lim topshiriqlari berish va qabul qilish.

6.3. Dasturiy mahsulotlar orqali. "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi (mustaqil ta'lif uchun)" elektron-o'quv qo'llanmasi, "Amaliy bezak san'ati" elektron darsligi, mobil ilovalar orqali talabalarning mustaqil ta'lif faoliyatini boshqarish.

#### 7. Baholash mezonlari.

7.1. Reproduktiv. Topshiriqlarni, bilimlarni, tushunchalarni, qonuniyatlarni, past darajada tushunib yetadi.

7.2. Produktiv. Topshiriqlarni ma'lum qonun-qoidalar bo'yicha yoki o'quv adabiyotlardan foydalani bajaradi, mustaqil bajarishga harakat qiladi.

7.3. Qisman izlanishli. Nostandard muammoli vaziyatlarni hal eta oladi, hamda avval o'zlashtirgan bilimlarni ikkilamchi holatga ko'chira oladi.

7.4. Kreativ. Ijodkorlik xarakteriga ega bo'lib, turli vaziyatlarda o'zlashtirgan keng doiradagi bilimlarni qator topshiriqlarda qo'llay oladi.

#### 7.5. Darajalar: yuqori, o'rta, past.

8. Natija. Yuqoridagi tashkiliy jarayonlar davomida kasbiy faoliyatga tayyor mutaxassis malaka talablari bo'yicha bir qator umumiy hamda kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lishi kuzatildi. Turli o'qitish metodlari, pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarni mustaqil ta'lif faoliyatiga faol tatbiq etish orqali talabalar mustaqil ta'lifini tshkil etish va boshqarish maqsadiga erishildi. Provardida, raqobatbardosh, mustaqil fikrli ijodkor pedagog-rassom kadr tayyorlashga erishildi.

### **2.2-§. Talabalarning mustaqil ta'lif olish faoliyatini tashkil etish va boshqarishda pedagogik rahbarlik qilish metodikasi**

Tasviriy faoliyatga o'rgatish metodi deganda biz talabaning qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiyaga oid nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bo'yicha amaliy va bilishga oid faoliyatini ma'lum vositalar yordamida tashkil qiladigan o'qituvchining izchil va tartiblangan o'zaro bog'liq harakatlari tizimini tushunamiz. Talabalarning mustaqil ta'limi

tizimida ta'larning barcha ma'lum metodlari u yoki bu darajada o'rinn tutadi. Bu metodlar quyidagicha tasniflanadi:

bilim manbasiga ko'ra: og'zaki (suhbat), ko'rgazmali, amaliy;

talabalarning bilish faoliyati xarakteri va o'quv jarayonida o'qituvchining ishtirokigako'ra: axborotli-retseptiv, reproduktiv, muammoli mashqlar, tadqiqotchilik va evristik;

o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorligiga ko'ra: instruktaj (yo'riqnomा), mustaqil ish.

Axborotli-retseptiv metod o'qituvchi tomonidan ma'lum bir nazariy plandagi axborotni ta'larning xilma-xil vositalari: ko'rgazmali qurollar, o'quv ishlari namunalari, foto reproduksiyalar, turli moslamalardan foydalangan holda uzatishdan iborat. Uyga vazifa berishda o'rnatuvchi (tanishtiruvchi) suhbat, yo'riqnomा, pedagogik ustakovkalar berishda qo'llanadi.

Reproduktiv metod pedagog tomonidan tasviriy faoliyat usullari, qalamtasvir va rangtasvirni yuritishning metodik ketma-ketligi namoyishini nazarda tutadi. Bu metoddan foydalanganda o'qituvchi faoliyati yo'naltiruvchi, korreksiyalovchi (to'g'rilovchi, tuzatuvchi) xususiyat kasb etadi, talaba esa turli xil mashqlar vositasida naturadan amaliy ishlarni bajaradi. Bu metod fakultetda qalamtasvir va rangtasvirga boshlang'ich o'qitish davri davomida qo'llanadi hamda amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda asosiy hisoblanadi.

Axborotli-retseptiv va reproduktiv metodlar ko'pincha o'zaro bog'liqlikda qo'llanadi, ammo birinchisi hamma vaqt ikkinchisidan oldin keladi. Birgalikda ular talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga ko'maklashadi. Asosiy fikriy operatsiyalarni (tahlil, sintez, umumlashtirish, ko'chirish, tasniflash va boshqalar) shakllantiradi, biroq ular talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishini kafolatlamaydi.

Ijodiy mustaqillikni rivojlantirish uchun boshqa metodlardan foydalanaladi. Muammoli mashqlar metodidan biz talabalarda tasviriy faoliyatga oid ma'lum ko'nikma va

malakalar shakllanganidan keyingina foydalandik. U darajasi yanada yuqori bo'lgan tadqiqotchilik va evristik ta'limg metodlariga o'tish metodi hisoblanadi. Bunda pedagogning faoliyati muammoli vaziyatni yaratishdan iborat bo'ladi. Masalan, talabalarga havo bulut bo'lgan kunda nayurmort etyudini mustaqil bajarish vazifasi beriladi. Talabalar o'quv ustaxonasida yorqin top munosabatlari bilan nayurmort etyudini bajargani sababli bu topshiriq (aynan umumiy qorong'u fonda tonal munosabatlarni ifodalash) ular uchun ma'lum darajada qiyinchilik, yechilishi kerak bo'lgan muammoni keltirib chiqaradi. Ta'larning boshlanishida uy vazifalarining katta qismi muammoli xarakterga ega bo'ladi, bu bilan keyingi kompozitsion o'quv-ijodiy topshiriqlarni bajarish uchun ancha mustahkam asos yaratiladi. Talabalar tomonidan muammoli topshiriqlar bajarilishida har bir tayyor ishning bat afsil tahlilini berish, uning afzalliklari, xarakterli xatoliklarni ko'rsatish lozim bo'ladi. Bu muammoli mashqlar metodini qo'llash samaradorligini oshirish hamda ta'larning tadqiqotchilik va evristik metodlarini kiritish imkonini beradi.

Tadqiqotchilik metodi reproduktiv tasviriy faoliyat ko'nikmalarini o'zgargan, nostandard vaziyatda qo'llashni nazarda tutadi, muammoli mashqlar metodi kabi u ham tasvir nazariyasining nazariy qoidalarini o'zlashtirish va akvarel bo'yoqlar bilan ishslash usullarini o'rgangandan keyin qo'llanadi. Masalan, talabalarga yoritish rangi o'zgarganida naturaning rang xarakteristikalarini tadqiq qilish vazifasi beriladi. Bunda talabalar yangi, elektr nuri bilan yoritilgan, nayurmortning postanovkasi etyudini ishlaydi, shu vaqtga ular faqat kunduzgi (tabiiy) yoritilgan nayurmortlarni ishlagan. Bu metodning qo'llanishi pedagogning oz miqdordagi korreksiyalovchi roli bilan talabalarning mustaqil ishslash faolligi oshishiga ko'maklashadi.

Evristik metod. Tasviriy faoliyatga o'rgatishda bu metod talabalar tomonidan tasviriy faoliyatning tadqiqotchilikka oid o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Ikkinci semestrda tematik nayurmort bo'yicha kompozitsion topshiriqlar bajariladi.

Bu mustaqil ishslash uchun topshiriqlar bo'lib, produktiv (mahsuldor) tasviriylar faoliyat shakllanishiga ko'maklashadi. Ta'limning bu metodini uyda bajarilgan kompozitsiyaga oid izlanishlar, qoralamalar va etyudlarni muhokama qilishda evristik suhbatlar shaklida amalga oshirishda o'qituvchining roli katta.

Bayon qilingan ta'lif metodlari o'qitishning doimo birlashtirib qo'llanadigan va o'zaro bog'liq bo'lgan usullaridan foydalanishdan iborat bo'ladi. Ularni tanlash talabalarga berilishi zarur bo'lgan dasturiy material va ularning individual qobiliyatlariga bog'liq.

Yuqorida ta'kidlanganidek, talabalar mustaqil ta'limining samaradorligi, avvalo, talabalar faoliyatini tashkil qilishga bog'liq. O'qituvchi turliyo'llarva usullaryordamida talabalarning faolligini oshirishga intiladi. Usullar ta'limning o'ziga xosliklari, qo'llanadigan ta'lif metodlari va shakllariga bog'liq. Muammoli o'qitishda – bu muammoli vaziyatlar yaratish, axborotli-retseptiv va reproduktiv metodlar qo'llanganda muayyan maqsadlarga erishish uchun talabalar xatti-harakatlarini batafsil rejalashtirish o'qituvchi va talabalarning faoliyati xarakteri hamda uni tashkil qilish usuli ta'lif shakllari bilan belgilanadi. Ular yakka tartibdagi guruhli: ham ma'ruza, ham amaliy mashg'ulot, ham seminar mashg'uloti va shu kabilar bo'lishi mumkin.

Talabalarning qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlari bo'yicha mustaqil ta'limi tizimida ta'limning asosiy shakli talabalarning yakka tartibdagi mustaqil ishlari hisoblanadi. Tanishtiruvchi ma'ruza o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lib, unda talabalar mustaqil ishlarning maqsadi, vazifalari, asosiy mazmuni, mustaqil ish jarayonida o'qituvchi va talabalarning o'zaro hamkorlik tartibi tushuntiriladi. Talabalarning mustaqil ishlari uchta asosiy yo'nalishda olib borilishi lozim: o'zini o'zi tarbiyalash, o'zini o'zi o'qitish va o'zini o'zi boshqarish. Uni faollashtirish uchun:

- talabalarning mustaqil ishslashga motivatsiyasini oshirish va ularni qo'llab-quvvatlash, ijod jarayoni, umuman

tasviriy san'at, xususan, qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metododikasi fanlari va rangtasvirga barqaror, doimiy rivojlanib boradigan qiziqish uyg'otish;

- zarur mustaqil ishslash ko'nikma va malakalarini shakllantirishga ko'maklashish;

- talabalar bilan ularning tayyorgarlik va qiziqish darajasini hisobga olgan holda yakka tartibda ishslash talab etiladi. Bularning hammasi ko'p jihatdan o'qituvchining malakalari va istaklari, tajribasi, pedagogik mahoratiga bog'liq. Rangtasvir kafedrasi professor-o'qituvchilar jamoasi tomonidan olib boriladigan tadbirlar majmuasi talabalar uchun qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metododikasi fanlari bo'yicha mustaqil ishning barscha turlarini samarali va sifatli bajarish uchun maksimal darajada qulay vaziyat yaratish hamda talabalarning mustaqil ishlari bilan bog'liq ta'limning barcha funksiyalarini amalga oshirishga qaratilishi lozim. Ular ikki guruhga bo'linadi: tashkiliy-metodik va ilmiy-metodik tadbirlar. Tashkiliy-metodik tadbirlar qatoriga: talabalarning mustaqil ta'limini rejalshtirish (mustaqil ta'lim dasturi va o'quv rejalarini ishlab chiqish); talabalarning mustaqil ta'limi uchun vaqt budgetini belgilash; talabalarni o'quv adabiyotlari va zarur ko'rgazmali vositalar bilan ta'minlash; auditoriyadan tashqari fakultet ustaxonasida mustaqil ishslash uchun imkoniyat yaratish; talabalarning mustaqil ishlari ustidan nazoratni ta'minlash kabilar kiradi. Sanab o'tilgan tadbirlar zarur, ammo talabalarning muvaffaqiyatli ishlashi uchun yetarli emas.

Ilmiy-metodik tadbirlar qatoriga: talabalarni mustaqil ta'lim metodlariga o'rgatish; talabalarning mustaqil ishlariiga metodik rahbarlik, og'zaki yo'riqnomalar berish; talabalar mustaqil bajarishi uchun berilgan topshiriqlarning hajmi va ko'lamini aniqlash; talabalarning mustaqil ishlashi uchun o'quv va ijodiy topshiriqlar ketma-ketligini aniqlashtirish; fanlararo aloqadorlikni aniqlash va talabalarning mustaqil ishlashi uchun alohida topshiriqlarni ularga muvofiqlashtirish; yakka tartibdagi topshiriqlarni berish; bajarilgan ishlarni tahlil qilish; kamchiliklarni to'g'rakash bo'yicha tavsiyalar berish va

boshqalar mansub.

Boshqaruvga oid qo'llab-quvvatlash talabalarning uyda bajariladigan o'quv-ijodiy ishlarini tashkil qilishning mustaqil funksiyasi sanaladi. uning vazifalari talabaga kasbiy va ijodiy o'zini o'zi belgilash jarayonida zarur va adekvat yordam berishdan iborat. Boshqaruvga oid qo'llab-quvvatlash o'qituvchi tomonidan izchillik bilan kengaytirib boriladigan, talabalaning ijodiy salohiyatini realizatsiyalash, qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metododikasi fanlaridan ko'nikma va malakalari, mustaqil ishslash qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladigan muammoli-kreativ vaziyatlarni yaratish orqali amalga oshiriladi.

Talabalar, odatda, nimani o'rganishi kerakligi, qaysi ko'nikma va malakalarni ishlashi kerakligi, nima uchun boshqa emas, aynan shu topshiriqlar ta'lif dasturiga kiritilganinini to'liq bilmaydi. Ikkinci kurs talabalarini oliy ta'lif metodlariga moslashtirish, jumladan, o'z faoliyatini to'g'ri tashkil qilishga o'rgatish muammosini hal qilish o'qituvchilar rahbarligida ta'limning birinchi yili davomida maqsadli amalga oshirilishi kerak. Talabalarning mustaqil ishlari umuman o'quv jarayonini tashkil qilish bilan bog'liq va uning muhim qismini tashkil qiladi. Auditoriya mashg'ulotlarida o'qituvchi talabalarning yetarlicha mustaqilligi va faolligini ta'minlashi kerak bo'lsa, uy vazifasini bajarishda uni tashkil qilish va zarur darajada rahbarlikni amalga oshirishi lozim. Bu jarayon samarali bo'lishi uchun o'qituvchi o'zining va talabalarning faoliyat natijalarini doimiy tahlil qilib borishi, erishilgan darajani rejalashtirgani bilan solishtirishi va keyingi ishslash uchun korreksiyalashi kerak.

Pedagog faoliyati tuzilmasida quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatish mumkin: loyihalashtirish, tashkilotchilik, kommunikativ va diagnostik. O'qituvchining talabalarning mustaqil ishlariga rahbarlik faoliyatini ham shu komponentlar bo'yicha baholash maqsadga muvofiq.

O'qituvchining talabalar mustaqil ishlariga rahbarligi bo'yicha harakatlari: 1) mustaqil ish zarurligini asoslash; 2)

talabalarning mustaqil ishlarini rejali tarzda murakkablashtirib borishni hisobga olgan holda tashkil etish; 3) metodik yordam ko'rsatish; 3) talabalarning psixologik xususiyatlari va individual imkoniyatlarini hisobga olish; mustaqil ish topshiriqlari xarakteri, murakkablik darajasi va ketma-ketligini korreksiyalash; 4) mustaqil ish bajarilishini nazorat qilish va talabalarning kasbiy o'sishini baholash; 5) rejalashtirilgan maqsadlarga erishish uchun talabalarning faoliyatini korreksiyalash; 6) talabalarni erishilgan natijalarni tahlil qilishga jalb qilish. Bevosita rahbarlik asta-sekin va izchillik bilan bilvosita rahbarlikka almashtiriladi. Talabalarning auditoriyadan tashqari o'quv ishlari samaradorligini oshirish yo'llaridan biri mustaqil ta'lif dasturini ishlab chiqish va shu dastur bo'yicha o'qitishni metodik ta'minlash hisoblanadi. Mustaqil ta'lif uchun mashqlarni rejalashtirish – butun o'quv jarayonining zaruriy, unga bevosita bog'liq bo'lgan tarkibiy qismi. Mustaqil ta'lifni rejalashtirish o'quv rejalarini mazmuni, hajmi, beriladigan topshiriqlarning muvofiqlashtirilgani, takrorlar (dubllashlar) yo'qligi, talabalarga bog'liq bo'limgan boshqa omillar bilan belgilanadi. Biroq barcha holatlarda ham u talabaning, mutaxassislik bo'yicha o'quv rejada belgilangan, real vaqt budgetini hisobga olishi lozim. Talabalar mustaqil ishlarining o'rtacha davomiyligi haftasiga 4-6 soatni tashkil etadi. Badiiy grafika fakultetlari II va III kurs talabalari uchun mustaqil ta'lif dasturini ishlashda yuqorida ma'lumotlarga asoslanildi. Biroq talabalar uydagi o'quv-ijodiy ishga sarflaydigan vaqtini, o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlardagi kabi uzil-kesil belgilash qiyin, chunki mustaqil ta'lif talabaning o'zi tomonidan tashkil etiladi va uning intensivligi talabaning qobiliyatlari, shaxsiy qiziqishlariga bog'liq bo'ladi.

Mustaqil ta'lif – yakka tartibdagi jarayon. Shu sababli uni tashkil qilishda bajaruvchining shaxsiy xususiyatlari inobatga olinishi kerak. Uy vazifalari tabaqlashtirilgan holda, alohida talabalar qalamtasvir va rangtasvir tajribasini egallashda duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni, shuningdek, guruh talabalaridan ayrimlari guruhdagi umumiylar darajadan

o'zib ketishi mumkin bo'lgan vaziyatni e'tiborga olgan holda berilishi kerak. O'qituvchilarning talabalarning amaliy harakatlari hamda xulqi va faoliyatini dasturlashtirishga oid kundalik ishlari individual pedagogik rejalashtirish mohiyatini tashkil etib, o'quv-tarbiya ishining hal qiluvchi sharti sifatida gavdalanadi. Talabalarning qalamtasvir va rangtasvir bo'yicha mustaqil ta'limini rejalashtirish har bir talaba tomonidan o'qituvchi rahbarligida ishlab chiqiladigan shaxsiy rejada o'zining aniq ifodasini topishi lozim. Pedagogika oliv ta'lim muassasalarining "San'atshunoslik" fakultetlariga o'qishga kirish uchun tashkil etilgan repetitorlik (tayyorlov) bo'limida bunday ish bir necha yil mobaynida amalga oshiriladi va ijobji natijalar bermoqda. Shaxsiy rejaga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat: tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlari qonuniyatlarini egallashga tayyorlik darajasini hisobga olish; tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlari bo'yicha uyga vazifalar hajmining boshqa fanlar bilan mutanosibligi; har bir topshiriq uchun muayyan vazifani majburiy tartibda ajratib ko'rsatish; vazifalarni izchil murakkablashtirib borish; o'quv topshirig'ini bajarishda ijodiy yondashuvni rag'batlash. Tabiiyki, yakka tartibdagи topshiriqlar bo'yicha ishslash o'qituvchilaridan qo'shimcha sa'y-harakatlarni talab etadi. Biroq bu metodlarning samaradorligi shubhasiz.

Biz talabalar tomonidan o'quv-ijodiy topshiriqlarning bajarilishi ularning qiziqish va mas'uliyatini keskin oshirishi, tafakkuri va tasavvurini rivojlantirish, asosiysi, rassom-pedagog uchun eng muhim sifat – ijodiy faolligini shakllantirishga ishonch hosil qildik. Individual rejani tuzish talabalarning mustaqil ta'limini tashkil qilishda birinchi qadam bo'lishi kerak. Talabaning asosiy e'tiborini ishni bajarish, jarayonga formal emas, balki ijodiy munosabatga qaratish lozim. Bunda hal qiluvchi shart sifatida maqsadga intiluvchanlik, rejalilik va mustaqil mashg'ulotlarning muntazamligi hisoblanadi. Talabalar mustaqil ta'limini rejalashtirishda rivojlantiruvchi ta'lim sohasidagi tadqiqotlar natijalarini hisobga olish muhim. Pedagog-olimlar tomonidan olib borilgan tajribalar ko'rsatdiki,

talabalar qobiliyatlari rivojlanishini tezlashtirish mumkin. Bunga tegishli materialni saralash va mustaqil o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan ratsional mustaqil ish malakalarini shakllantirish hisobiga erishiladi. Rivojlantiruvchi ta'limga bag'ishlangan tadqiqot natijalarining tahlili talabalar mustaqil ta'lif metodikasi uchun muhim xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. Har bir alohida olingen talabaga nisbatan ta'lif faqat shu talabaning rivojlanish darajasiga moslashtirilgandagina rivojlantiruvchi bo'ladi.

2. Erishilgan darajadan kelib chiqish zarurati har bir talabada shu darajani aniqlashni talab etadi. Bu talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning muhim bosqichi.

3. Individual yondashuv talabalar mustaqilligini rivojlantirish uchun butun ta'lif davri mobaynida muhim.

4. Maxsus ko'nikma va malakalarini rivojlantirish maxsus vositalar – mazmuniga ko'ra optimal darajada murakkab va ratsional bilim, kasbiy faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantiradigan rivojlantiruvchi topshiriqlarni nazarda tutadi.

Talabalarning mustaqil ta'lmini rejalashtirishning namunaviy tuzilmasi quyidagilarni nazarda tutadi:

- qalamtasvir va rangtasvirni o'rghanish bilan bog'liq pedagogik-psixoloik, ijtimoiy va fiziologik omillarni farqlash;

- talabalarning ta'limga tayyorlik darajasini aniqlash;

- talabalarning mustaqil ishlari dasturini ishlab chiqish. Taklif qilingan topshiriqlarni bajarish metodlar va vositalarni ko'rsatish;

- kalendar-mavzuli reja tuzish.

Talabalarning mustaqil ta'lif dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi munosabatlarning alohida turini o'z ichiga olgan o'z ta'lif muhiti zarur. Talabalarning auditoriyadan tashqari o'quvijodiy ishini optimal tashkil qilish alohida ishonch muhiti, hamkorlik, birgalikdagi ijodni nazarda tutadi. Talabaning subyektiv tajribasini faqat o'qituvchining professional sifatidagi pozitsiyasini hisobga olgan holda maxsus tashkil qilingan

bilim mazmuni bilan almashish jarayonida aniqlash mumkin. Pedagogik hamkorlik (o'zaro ta'sir) – talabalarning mustaqil ta'limini samarali tashkil qilish va qo'yilgan ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishning juda muhim vositasi.

Talabalarning ijodiy o'zini o'zi rivojlantirishi uchun ularning mustaqil ishlarini ta'lim oluvchi shaxsini nafaqat ta'lim, tarbiya obyekti, balki uning subyekti, ta'lim jarayonida hamkor sifatida tan olishni nazarda tutadigan "pedagog-talaba" shaxsga yo'naltirilgan o'zaro hamkorligi asosida tashkil qilish muhim. Bunday o'zaro hamkorlikning asosiy xarakteristikaları: o'zaro tushunish, o'zaro ta'sir, kelishuvchanlik, shaxsda ijobiysiga tayanish, ishonch, xayrixohlik, obyektivlik (xolislik), har ikkala tomonning faolligi, dialog hisoblanadi. Muloqotga asoslangan o'zaro ta'sir tomonlarning bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, hamkorni boricha qabul qilish, samimiyl fikr almashuvi, ochiqlik, samimiyat, oldindan shakllangan fikrlarning mavjud emasligi bilan ta'minlanadi. Talabani "bostirish" (unga bosim o'tkazish), indefferantlik (befarqlik), rasmiy (formal) munosabatlarga yo'l qo'yilmaydi.

O'qituvchining talaba mustaqil ta'limini tashkil qilishda u bilan o'zaro hamkorlikning birinchi bosqichi umumiyl pedagogik-psixologik yondashuv bo'lishi lozim. Ikkinci bosqich individual topshiriqlar tizimini ishlab chiqish. Pedagogik o'zaro ta'sirning hamkorlik sifatida rivojlanishiga quyidagilar yordam beradi: hamkorlikdagi ijodiy ishga ijobiy ustanovka; hamkorlikdagi rejalashtirish; faoliyat natijalari tahlili, uning maqsadi va shaxsiy mazmunini anglash; ishtirokchilar tomonidan faoliyat turlari va usullarini erkin tanlash, o'zaro yordam vaziyatini yaratish. Ta'lim amaliyotida talabalarning mustaqil ishlariga pedagogik rahbarlik ko'pincha topshiriqni taqdim qilish bilan cheklanadi.

Talabalar nazorat ishini bajarganda bu o'zini to'lig'icha oqlaydi, chunki uning asosiy vazifasi – egallangan bilim va malakalarni aniqlash. Bu holatda o'qituvchi ayrim umumiyl ko'rsatmalarni berishi mumkin. Biroq talabalarning mustaqil (uy) ishlarini tashkil qilishda o'qituvchining yo'riqnomasi katta ahamiyatga ega. Harakatni shakllantirishda yo'naltiruvchi

tomon hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki u harakatning ijro qismini to'g'ri va ratsional qurishga qaratilgan. Yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish maqsadini ko'zlagan topshiriqni mustaqil bajarishga kirishishdan oldin talaba buni qanday amalga oshirishini o'zi uchun bilib olishi kerak. Bu ishda o'qituvchining vazifasi talabaga yordam berish – tegishlicha yo'riqnomा berish, ya'ni ishni qanday bajarish kerakligini tushuntirish, zarur hollarda namoyish qilish lozim.

Mustaqil ishlar metodik tizimining taklif qilinayotgan modeli topshiriqni bajarishdan oldin instruktaj o'tkazish, bevosita instruktajdan asta-sekin bilvosita instruktajga o'tish va keyinchalik tamoman istino qilishni nazarda tutadi. O'qituvchi borgan sari maslahatchi rolini bajarishga o'tadi. Talabalarni bajarilgan ishni hamkorlikda tahlil qilishga jalg' eta boradi, uning sifatiga alohida e'tibor berib, ta'limg' oluvchilarni o'zaro nazorat va o'zini o'zi nazorat qilishga o'rgata boradi. Mazkur malakalar bilan qurollantirish barobarida o'z faoliyatining har bir qadamini, mustaqil ta'limg' faoliyatining har bir bo'g'ini ahamiyatini anglashi, uning ta'limg'ning pirovard maqsadiga erishishdagi rolini tushunishi uchun talabalar tomonidan anglash borasida ishlar olib boriladiki, bu bo'lajak pedagog-rassomlar pedagogik salohiyatini shakllantirishda juda dolzarb hisoblanadi. O'qitish tajribasi va tajriba-sinov ishlari ko'rsatdiki, yo'riqnomা berilmaganda topshiriqlarni bajarish sifati pasayadi. Og'zaki frontal (yalpi) yo'riqnomা, odatda, talabalar hamma uchun umumiy topshiriqni bajarayotganda o'tkaziladi. Og'zaki yo'riqnomা – talabalarni topshiriqni bajarishga tayyorlashning tobora egiluvchan va universal metodi. Uning mazmuni guruhdagi muayyan sharoit va vaziyatga bog'liq. Ko'p hollarda ishning maqsadini tushuntirishga to'g'ri keladi. O'qituvchi talabalarning hammasi ish maqsadini aniq tushungani va topshiriqni bajarishda unga rioya qila olishiga ishonch hosil qilish uchun talabalar erishishi kerak bo'lgan pirovard natijalarga e'tibor qaratadi. Yangi topshiriq taqdim qilinganda kirish yo'riqnomা qo'yilgan vazifani talabalarda mavjud tayanch bilimlar, avval o'zlashtirilgan tajriba yoki

harakatlar bilan bog'lash imkonini beradi. Kirish yo'riqnomalarini bajarishning mumkin bo'lgan usullari bo'yicha ko'rsatmalarni ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, talaba topshiriqni bajarayotib, tayanishi mumkin bo'lgan mo'ljallarga ega bo'ladi. Og'zaki tushuntirishning to'liqligi ta'lim bosqichiga bog'liq. Boshlang'ich bosqichda u to'liqroq, kengaytirilgan bo'lsa, keyinchalik tobora umumlashma ko'rinish hosil qilib boradi. Mustaqil ta'limga umumiylabalar va kasbiy ko'nikmalarni o'zlashtirgani sari talabalar uchun yo'riqnomalariga qisqarib, materialning eng muhim elementlari, qiyin o'rinalariga e'tibor qaratiladi. Talabalar mustaqil qarorlar qilish uchun katta imkoniyatlarga ega bo'ladi. O'qituvchining uyga vazifa oldidan kirish yo'riqnomasi, o'quv ustaxonasidagi kabi talabalarga topshiriq mazmuni (nima qilish kerakligi), uni bajarish tartibi (qanday qilish kerakligi) va qisqacha asoslash (nima uchun shunday qilish kerakligi), bajarish usullarini namoyish etish va tushuntirish, o'zini o'zi nazorat qilish uchun ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. O'zini o'zi nazorat qilishni o'rnatish ta'lim amaliyotida hozirgi paytda yo'riqnomaning eng zaif o'rni sanaladi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishda talabalarga og'zaki yo'riqnomalar bilan bir qatorda yozma yo'riqnomalar ham muhim o'rinni tutadi. Yo'riqnomaning bu turi maxsus metodik ta'minot vositasida amalga oshiriladi.

Talabalar mustaqil ishini nazorat qilish uni tashkil qilish bilan uzviy bog'liq. Hech qanday batafsil reja yoki dastur hamma kerak bo'ladiganini qamrab ololmaydi. Nazorat talabalar faoliyatini korreksiyalash va noaniqliklarni barataraf qilish uchun zarur. Nazoratning asosiy maqsadi – talabalarning o'quv vazifalarini mustaqil bajarishga tayyorlik darajasini aniqlash. Mustaqil ish bajarilishi ustidan nazorat qator didaktik talablarga rioya qilinganda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Bunda asosiy didaktik talablar: tizimlilik, obyektivlik, baholash mezonlarining mavjudligi, individuallashtirish, topshiriqlarning maqsadliligi va aniqligidir. Oldindan talabalarning topshiriqni bajarishga tayyorligi, ularning nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi

baholanadi. Joriy nazorat har hafta amaliy mashg'ulotlarda, asosan, uy vazifalari bajarilganining tahlili vaqtida suhbat ko'rinishida o'tkaziladi. Joriy nazorat davomida mustaqil ish natijalari - talabalar o'qituvchining bevosita rahbarligisiz bajargan etyudlar, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish dinamikasi tahlil qilinadi; kamchiliklar to'g'rilanadi. Bunda talabalarning o'z etyud va kompozitsiyaga oid izlanishlarinini taqdim qilishi va o'zi tahlil qilishiga alohida e'tibor qaratiladi, chunki bu, bir tomondan bo'lajak pedagogning (nutqi, tafakkuri, o'z nuqtayi nazarini asoslashi) rivojlanishiga ko'maklashadi, boshqa tomondan esa, o'qituvchi talabaning o'quv va ijodiy g'oyalarini tushunishini ta'minlaydi. Haftalik joriy nazoratni o'tkazish talabalar bilan yaqindan aks (teskari) aloqa o'rnatish va keyingi topshiriqlarning mazmuni va murakkablik darajasiga kerakli o'zgartirishlarni kiritish imkonini beradi. Uyda bajarilgan etyudlarni tekshirish o'qituvchiga ular qanchalik muvaffaqiyatlari bajarilganini aniqlash, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida ko'rsatish va ularni to'g'rilash yo'llarini taklif qilish, talabaga zarur amaliy ish ko'nikmalarini egallahda yordam berish imkonini yaratadi.

Oraliq nazorat semestr o'tkasida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat o'quv rejada har bir semestr oxirida ko'zda tutilgan bo'lib, mustaqil ishning yakuniy natijalarini qayd qilishga yo'naltirilgan. Bunda maqsadga erishganlik darajasi baholanadi, xatolar tahlil qilinadi, talabalarning yanada murakkab maqsadlarga motivatsiyasi shakllantiriladi. Talabalarning mustaqil ishlarini nazorat qilish uchta: qayd qiluvchi, korreksiyalovchi va tashkiliy funksiya bajaradi. Qayd qiluvchi funksiya bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligi va shakllanganlik darajasini aniqlashdan iborat. Bu funksiyani muvaffaqiyatli bajarish uchun talabalarning mustaqil ta'limini nazorat obyektiv mezonlar bo'yicha baholash bilan birga kechishi lozim. Talabalar ko'pincha o'z etyudlari baholanishiga jiddiy e'tibor bilan qaraydi. Ularning ishiga obyektiv baho va diqqat bilan munosabat keyingi faoliyat uchun rag'bat vazifasini o'taydi. Baho talabaga o'z ishining natijaviyligini anglash

imkonini beradi va uning uchun rag'bat va mo'ljal bo'lib xizmat qiladi. Talabalar mustaqil ish davomida duch keladigan xato va muammolar vaqtida to'g'rilab borilmasa, to'planib va ko'payib qoladi. Nazoratyordamida xatolarni qayd qilish va ular maqsadga erishishga putur etkazmasidan oldin ularni to'g'rilash mumkin bo'ladi. Bundan tashqari, talabalar mustaqilligini faollashtirish uchun ularning muvaffaqiyatlarini qayd qilish juda muhim. Nazorat nafaqat xatolar, balki muvaffaqiyatlarni ham aniqlash imkonini beradi. U faoliyatning aynan qaysi yo'naliishlari tobora samarali ekanini aniqlashga ko'maklashadi.

Nazoratning korreksiyalovchi funksiyasi talabalar o'zlashtirishida mavjud bo'shlilar kabi o'qitish metodikasi va talabalarning mustaqil ishlariga rahbarlikdagi kamchiliklarning mavjudligi va ularni bartaraf qilishning dolzarblik darajasini aniqlashdan iborat.

Talabalarning mustaqil ishlarini nazoratning tashkiliy funksiyasi talabalarни tizimli ishlash, belgilangan muddatlarda bilim, ko'nikma va malakalarni belgilangan hajmda o'zlashtirishga rag'batlashdan iborat. Sanab o'tilgan funksiyalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun talabalarning mustaqil ta'limi nazorati obyektivlik, individuallik, har tomonlamalik va tizimlilik kabi talablarga javob berishi lozim. Nazoratning yo'qligi muammoga qiziqishning mavjud emasligidan dalolat beradi. Biroq uning mavjudligi, agar o'qituvchi nazoratni tashkil qilishda xatolarga yo'l qo'yadigan bo'lsa, hamma vaqt ham talabalarning mustaqil ishlashini rag'batlantirmaydi. O'qituvchining nazoratdagi xatoliklari sirasiga epizodiklik, formallik, saylanmalik kabilarni kiritish mumkin. Bundan tashqari, talabalar mustaqil ishini faollashtirishga yashirin nazoratlar o'tkazish va faqat o'zi uchun xulosa qilish salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin. Talabalarning mustaqil ishlari va mustaqil ta'limga munosabatidagi har qanday ijobjiy o'zgarishlarni o'z vaqtida payqash, ularga bu haqida bildirish va rag'batlantirish kerak. Muvaffaqiyat - keyingi izlanishlar garovi, kafolati. Korrekt shaklda va o'z vaqtida bildirilgan xolis tanqid ham talabalarning mazkur jarayonda

faolligini boshqarishning samarali vositalaridan sanaladi. Talabalarning mustaqil o'quv mehnatiga rahbarlikning yetakchi vositalaridan biri o'zini o'zi nazorat qilishdir. Ta'lif oluvchining o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini o'zi baholashga qodirligi ta'limda individual yondashuvni amalga oshirishning muhim jihat, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim shartlaridan biridir. O'zini o'zi nazorat o'zining bilish-amaliy faoliyatini ongli boshqarish bo'lib, talabalar tomonidan bilimlarning chuqur va mustahkam o'zlashtirilishi, tegishli malakalar shakllantirilishini ta'minlaydi, uni yanada takomillashtirish yo'llarini ochib beradi.

### **2.3-§. Talabalarning tasviriy san'at fanlaridan mustaqil ishini tashkil etish va boshqarishning metodik ta'minoti**

Mustaqil ish bevosita o'qituvchi rahbarligidagi ijodiy ishlar va bilvosita tasviriy san'atning nazariy asoslarini yorituvchi maxsus uslubiy metodik adabiyotlar, san'atshunoslikka oid materiallar, usta rassomlarning tasviriy san'atasarlarijamlangan kataloglari yordamida boshqarilishi kerak. Ixtisoslikka oid uslubiy qo'llanmalar, interaktiv elektron qo'llanmalar, dasturiy mahsulotlar va mobil ilovalar talabalarning auditoriyadan tashqaridagi o'quv faoliyatining muhim vositasi hisoblanadi. Talabalar mustaqil ta'liming muvaffaqiyatini ta'minlash uchun qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlarining asosiy tushuncha va qonun-qoidalari qisqa va lo'nda tarzda yoritilgan, shuningdek, o'quv postanovkalarini metodik izchillikda tasvirlash usullari keng yoritilgan va amaliy vazifalardan iborat o'quv qo'llanmalari zarur. Bunday adabiyotlarga bo'lgan ehtiyoj, bir tomonidan, oliy ta'limgacha bo'lgan tayyorgarlik bosqichining sifat darajasi, boshqa tomonidan, talabalar mustaqil ishida, ayniqsa, kechki va sirtqi ta'lif shaklida amaliyotning roli oshib borishi bilan ifodalananadi.

Qalamtasvir, rangtasvir va kompozitsiyaga o'rgatishda o'zbek olimlaridan S.Abdullayev, B.Azimov [19], B.Baymetov [21], N.Tolipov va boshqalarning adabiyotlaridan foydalansila,

chet ellik rassom metodist olimlardan, G.V.Beda, N.N.Volkov, A.A.Unkovskiy, V.S.Kuzin, N.N.Rostovsevlarning asarlari katta samara beradi. Moybo'yoq, suvbo'yoq va guash bilan rangtasvir namunalari yaratishning amaliy usullari yuqorida nomlari keltirilgan mualliflarning darslik va o'quv qo'llanmalarida batafsil yoritilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, tasviriy san'atga o'rgatish bo'yicha boshlovchi rassomlar uchun nihoyatda zarur va foydali hisoblangan adabiyotlar chet el pedagog-olimlari va o'zbek metodist rassomlari tomonidan juda ham kam nomlarda nashr qilingan. Ushbu kitoblarni faqat internet saytlaridan va yirik kutubxonalarning o'quv zallaridan topish va shu yerning o'zidagina foydalanish mumkin. Bu esa ularning amaliy ahamiyatini nihoyatda pasaytiradi. Rangtasvirga o'qitish bo'yicha so'nggi yillarda chop qilingan ixtisoslashtirilgan adabiyotlardan eng e'tiborga moligi, nazarimizda, bir guruh mualliflar tomonidan yaratilgan "Rangtasvir" monografiyasini hisoblanadi. Xorijiy mualliflarning so'nggi yillarda nashrdan chiqqan, tasviriy san'at asoslariga oid rang-barang va yorqin suvratlarga boy qo'llanmasi unga kiritilgan foydali ma'lumotlarning ko'pligi bilan ham alohida qadrlidir. Afsuski, bu kitoblar rus tiliga ko'pincha tasviriy san'atdan yiroq odamlar tomonidan tarjima qilinadi. Ularda qo'llanilgan maxsus atama va tushunchalarining noto'g'ri tarjimalari tasviriy savodxonlik asoslarini hali yetarlicha o'rjanmagan talabalarni chalg'itmoqda.

Talabalarni sifatli va ma'lumotga boy ixtisoslashtirilgan adabiyotlar bilan ta'minlash maqsadida keyingi yillarda Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasini professor o'qituvchilari tomonidan, o'quv qo'llanmalarini chop etish yo'lga qo'yildi.

Talabalarning ixtisosligi bo'yicha maqsadli mustaqil faoliyat olib borishi uchun mo'ljallangan maxsus darsliklarning o'ziga xos xususiyati – ularning bevosita amaliy harakatlarga yo'naltirilganidir. Talabalar mustaqil ishi samaradorligini ta'minlash uchun o'quv qo'llanmasi ma'lumotlar yig'indisigina bo'lib qolmasligi zarur. Darslik ularning kasbiy salohiyati va

ijodiy erkinligini rivojlantiradigan faol didaktik tizim shaklida qurilishi kerak.

Tasviriy san'at, jumladan, qalamtasvir va rangtasvir bo'yicha adabiyotlar mazmuni bilan tanishish mavjud darsliklar va o'quv qo'llanmalar nazariy ma'lumotlarning boy manbasi sifatida xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatdi. Lekin, ayrim istisnolarni inobatga olmasa, ular bevosita amaliy harakatlar uchun yo'riqnomalar vazifasini o'tay olmaydi. Bundan tashqari, ushbu o'quv qo'llanmalar ularning amaliy faoliyatdagi samaradorligiga putur etkazadigan bir qator kamchiliklarga ham egadir. Xususan, adabiyotlarda tasviriy san'atdan ko'rgazmali materiallar juda ham kam, borlari ham asosan rangsiz. Tasviriy san'atga oid tushuncha va atamalar turli adabiyotlarda turlicha talqin qilingan. O'quv ma'lumotlari va rassomlarning ijodiy ishlari bir adabiyotdan boshqasiga aynan ko'chib yuradi, qaytariladi.

Talabalar mustaqil ishlarining sifatini oshirish maqsadida "Qalamtasvir" nomli o'quv qo'llanma [46] (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 4-oktyabrdagi 892-sonli buyrug'iغا asosan nashrga ruxsat berilgan), "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi (mustaqil ta'lim uchun)" elektron o'quv qo'llanma [48] (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-sonli buyrug'inинг 1-ilovasi bilan foydalanishga tavsiya etilgan. Guvohnoma № 232-356), "Qalamtasvir" nomli darslik (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-sonli buyrug'inинг 1-ilovasi bilan foydalanishga tavsiya etilgan. Guvohnoma № 232-601) yaratildi va nashr qilindi. (2 ilovalarga qarang). Unda talabalarining qalamtasvir, tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlari bo'yicha auditoriya va auditoriyadan tashqarida olib boriladigan mustaqil faoliyat ishlari shakllantirilgan.

O'quv qo'llanmalar o'qituvchi va talabaga mustaqil ishni tashkil qilish va bajarishda har tomonlama yordam beradigan muhim vosita hisoblanadi. U amaliy ishlarni to'g'ri tashkil qilish

bo'yicha muhim tavsiyalar beradi. Shuningdek, qalamchizgi va qoralamalar bajarish usullari va uslublarining batafsil ta'rifini o'z ichiga oladi. Bunday adabiyotlar sirasiga taniqli olim, professor B.B.Baymetovning "Qalamtasvir" darsligini ham kiritishimiz mumkin [63]. Darslikda talabalarning qalamtasvir bo'yicha auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ish samaradorligini oshirish masalalari keng yoritilgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan qo'llanmalar "San'atshunoslik" fakultetlari kunduzgi, kechki va sirtqi ta'limalarda tahsil olayotgan talabalarga mustaqil ishlarni bajarishda yordamchi manba sifatida mo'ljallangan. U oliv ta'lim muassasalari talabalari bilan bir qatorda san'atga ixtisoslashgan maktablar, malaka oshirish kurslari tinglovchilar, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari uchun ham foydalidir. Ular:

- naturaning kompozitsion yechimini to'g'ri aniqlash;
- shakllarning konstruktiv qurilishlarini tahlil qilish va sifatli amalga oshirish;
- tus jihatdan shakllarning o'zgarib borishi dinamikasini ko'rish;
- tus munosabatlari to'g'ri belgilangan holda naturani shakllantirish;
- naturani yorug'-soya uyg'unligi va mutanosibligida tasavvur qilish kabixususiyatlarni rivojlantirishgayo'naltirilgan.

Quyi bosqich talabalarini mustaqil o'qish-o'rganishga faol jalb qilish maqsadida yaratilgan o'quv qo'llanmasi quyidagi xususiyatlar asosida shakllantirildi:

- uzoq vaqt talab qiladigan akademik vazifalar bilan birga qisqa muddatli topshiriqlarga ham ustuvorlik berildi;
- har bir topshiriqda o'quv vazifalari metodik izchillikda alohida ajratib chiqildi;
- har bir yakuniy topshiriq ijodiy vazifa tayinlash bilan yakunlandi;
- talabalar mustaqil ishni bajarish paytida duch keladigan muqarrar qiyinchiliklarga alohida e'tibor qaratildi;
- boshlovchi rassomlarning akvarel va guash yordamida

rangtasvir namunasini yaratishda yo'l qo'yadigan umumiy va texnologik xatolari tahlil qilindi, shuningdek, ularni bartaraf qilish, oldini olish yo'llari ko'rsatildi;

– o'quv qo'llanmada qalamtasvir va rangtasvir fanlarini chuqur o'rganishda yordam beradigan adabiyotlarning nisbatan to'liq ro'yxati tavsiya qilindi.

Qo'llanma vazifalari talabalarga ishni uslubiy jihatdan oqilona olib borish, tasvirni qog'ozda to'g'ri shakllantirish, tasviriy san'atning qonun-qoidalarini mukammal o'zlashtirish, qalam va turli yumshoq materiallar bilan ishslash usullari va uslublarini o'rganishda ko'maklashadi, bu esa pedagog-rassom sifatida tarbiyalashning dastlabki asoslaridan biridir.

Uy vazifalari dasturi bosqichma-bosqich murakkablashib boradi va talabalar diqqatini nazariy bilimlar, oddiy qora qalam va yumshoq materiallar bilan ishslash bo'yicha ustaxonalarda olingan amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashga qaratish maqsad qilingan. B.B.Baymetovning asarlarida talabalarning nazariy bilimlarini rivojlantirish asnosida ularning turli xil akademik va qalamchizgi mashqlarini bajarishga asosiy e'tibor qaratilgan. Bu ko'proq tusning o'zaro keskin ziddiyatli (kontrast) aloqasi, shakllarning bir-birini to'ldirish xususiyatlari, natyurmort va portretning tuslar uyg'unligiga bag'ishlangan bo'limlarda namoyon bo'ladi. Talabalarning eng yaxshi ishlaridan iborat reproduksiyalari, mustaqil ta'limda berilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilganligining isbotidir.

Qo'llanmaning nazariy materiallari buyuk rassom-pedagoglarning fikrlari, ularning asarlaridan olingan iqtiboslar bilan boyitilgan. Mavzularning tizimga solingani va nazariy tushunchalarni ifodalash uchun tanlangan sodda va tushunarli usul o'quv qo'llanma bilan ishslashda qulaylik beradi.

Mustaqil ishni bosqichlar shaklida tashkil qilish talabaning ijodiy faoliyatini yangi cho'qqilarga olib chiqadi, badiiy ifodaning yangi yo'llarini kashf qilishga undaydi. O'quv qo'llanma samaradorligini belgilaydigan muhim omillardan biri - uning tarkibiy jihatdan yaxlitligidadir. Kitob bo'limlari ilmiy, mantiqiy, didaktik uyg'unlikda tuzilgan va yaxlit bir majmua

tuzilmasini tashkil qiladi. Mutolaani yanada jonlantirishga xizmat qiladigan matn birliklari, grafik ishlar nashrning asosiy tuzilmasini yanada boyitgan. O'quv qo'llanmaning quyi bosqich talabalariga mo'ljallanganini inobatga olib, biz matnning mikrotuzilmasini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratdik.

Biz B.Baymetovning "Qalamtasvir" darsligida [63] keltirilgan dolzarb va foydali tavsiyalardan unumli foydalandik:

"... har bir mavzuni muayyan bosqichlarga va tugallangan kichik qismlarga ajrating;

talabaning qiziqvchanligini oshirish uchun har bir bosqichda keyingi mavzuning alohida qismlarini ko'rsatib o'ting, lekin uning ishtyoqini to'la qondirmang;

mavzuni shunday bo'ling va joylashtiringki, toki, keyingini o'rghanish bosqichida avvalgisini takrorlashga to'g'ri kelsin".

Matn mikrotuzilmasi xususiyatlari kitobning qo'shsahifasini yaratishda o'zining qulay aksini topdi. O'quv ma'lumotlarini yetkazish usuli uning o'zlashtirilishiga mutanosibdir. Talabalar mutolaasini mantiqan to'g'ri tashkil qilishda ko'maklashish va darslikni o'zlashtirishni yengillashtirish uchun u tegishli bo'lim va boblarga ajratildi. Kitob bo'lim va boblari sarlavhasi kabi muhim jihatlar, shuningdek, ish yuzasidan berilgan maslahatlar, mavzuning alohida e'tibor talab qiladigan o'rnlari umumiy matndan yirikroq harf yoki yozma qiya (kursiv) matn bilan ajratildi. Biz muayyan boblarni o'zaro bog'liqlikda, mantiqiy va maqsadga muvofiq ketma-ketlikda ifodalab, bir mavzu tegishli bob doirasida to'liq ochib berilishiga harakat qildik va shu orqali praktikumning o'ziga xos uslubiy qurilmasini yaratdik.

Mustaqil ravishda tasviriy san'at va badiiy ijodga mo'ljallangan журнallar, kitoblar, o'quv adabiyotlari mutolaa qilayotgan, ma'ruzalar tinglayotgan, ilmiy-ommabop filmlar tomosha qilayotgan talabalarda u yoki bu mavzu bo'yicha tug'ilgan savollarga javob topish, qo'shimcha ma'lumot olish ehtiyoji yuzaga keladi. Tadqiqotimiz va tajribamiz shuni ko'rsatadiki, talabalarga ko'p hollarda o'qituvchilar tomonidan

amaliy mashg'ulotlarni olib borishda o'zaro muloqotlar, u yoki bu materialni bajarishda o'qituvchi tomonidan qisqa muddatli ma'ruzalar tashkil etilmagan. Ko'pincha o'qituvchi amaliy mashqlarni bajarish uchun vazifaning mohiyatini noto'g'ri ifodalaydi yoki tasviriy san'atga doir maxsus atama va tushunchalarni ta'riflashda o'ta mavhumlikka berilib ketadi yoxud shaxsiy talqinini ilgari suradi. Oqibatda, talabalar uning izohlarini anglashda qiynalishadi. "San'atshunoslik" fakultetlari talabalarini ma'lumotnomaga maqomidagi maxsus adabiyotlar bilan ta'minlash, ularning mustaqil ish uchun ham kerak bo'ladigan nazariy savodxonligini oshirish, rassom-o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan omildir. Ushbu mulohazalardan kelib chiqib, "Tasviriy san'atda tur, janr va oqimlar", deb nomlangan elektron lug'atma'lumotlar bazasini ishlab chiqdik va nashr qildik (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mult agentligining 2020-yildagi DGU 08541-son guvohnomasi). Unda tasviriy san'at nazariysi, badiiy ijod psixologiyasi va pedagogikasiga oid maxsus atama va tushunchalarning qisqacha ta'rifi keltirilgan. Nazariy materiallar 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv dasturlariga muvofiq tanlangan. Elektoron materialda keltirilgan atama va tushunchalar asosan qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya va boshqa badiiy fanlarga taalluqlidir. Shuningdek, voqelikni badiiy tasvirlash va talqin qilish usullari, rangtasvir, grafikaning turli usul va uslublariga alohida e'tibor qaratildi. Kompozitsiya va kolorit qoidalari, tamoyillari ko'rib chiqildi.

O'quv va ijodiy faoliyatni mustaqil va faol olib borish uchun talabalar tasvirlash vositalari va materiallarning rang-barang olamini yaxshi bilishlari kerak. Lug'at-ma'lumotlar bazasidan o'rinni olgan maqolalarning muayyan qismi rassomning ifoda vositalari, uskunalari va materiallariga bag'ishlangan.

Turli davrlarda yashab o'tgan rassomlarning kompozitsiya, perspektiva, tus munosabatlari, shakllarning plastik xususiyatlari va borliqni tasvirlashda qo'llagan uslubiy

yondashuvlarini qunt bilan o'rganish, ularning asar yaratish jarayonidagi hissiy kechinmalarini anglab yetishga urinish talabalar dunyoqarashini kengaytiradi va ijodiy rag'batini oshiradi. Shuni inobatga olib, lug'at-ma'lumotlar bazasiga jahon tasviriy san'atining asosiy uslublari, yo'nalishlari, oqimlari va konsepsiyalarning qisqacha ta'rifi, usta rassomlar va ularning mazkur janrdagi sara asarlari namunalarini ham kiritildi.

Nashrdan o'qituvchi-rassom uchun ham muhim tamoyillar, jumladan, badiiy ijod psixologiyasi, ijod tabiatini va ijodiy jarayon qonuniyatlari, rassom ijodiy faoliyatini tashkil qilish va rag'batlantirish kabi muhim atama va tushunchalarga ham o'rinn berilgan.

60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lif yo'nalishi talabalariga mustaqil ta'lif uchun foydalanishga Tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanidan (Tasviriy san'at yo'nalishining barcha fanlari integratsiyasi asosida) “Tasviriy san'at o'qitish metodikasi (mustaqil ta'lif uchun)” nomli interaktiv elektron qo'llanmasi ([www.cspl.uz](http://www.cspl.uz) domeni serveriga joylashtirilgan) yaratilgan ([https://fineart.cspl.uz/2023/mustaqil\\_talim\\_uchun/](https://fineart.cspl.uz/2023/mustaqil_talim_uchun/)) [48]. Oddiy o'quv qo'llanmalardan elektron qo'llanmaning afzalliklаридан бирини “intellektual” kuchga ega bo'lishi bilan bir qatorda kerakli ma'lumotlarni o'z vaqtida va joyida taqdim etish imkoniyatlari bilan farqlanadi. Elektron qo'llanma ma'lum bir predmet bo'yicha hamma tegishli o'quv materiallarini o'zida ifoda etgan bo'lishi kerak. Uning intellektual darajada bo'lishi esa o'z navbatida, oddiy qo'llanmaga nisbatan bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Masalan, ma'lumotlarni tez izlab topish, mavzularni o'zlashtirish darajasini multimedia elementlari yordamida amalga oshirish va hokazo.

Zamonaviy elektron qo'llanmalardan biri bo'lgan elektron qo'llanma multimediali mahsulot bo'lib, mustaqil ta'lif va mustaqil ishlarni bajarishda o'qitishni samarali tashkil etish va tinglovchilarning ijodiy fikrlash doirasini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Bunday qo'llanmalardan uzluksiz o'qitish rejimida foydalanish tinglovchilar bilimi sifatini

oshirishga yordam beradi.

Elektron qo'llanma yaratilyotganda kursning ajratilgan qismi amaliy (mashqlar) va nazorat (test savollari) mashg'uloti, kursning katta bo'limi esa testli mashg'ulot va sinov bilan tugashi lozim. Elektron qo'llanmadan o'quv jarayonida foydalanilganda quyidagi afzalliklarga ega bo'linadi:

- tanlangan fan yoki kurs bo'yicha bayon etilayotgan axborotlar to'plami yaxshi strukturaga ega bo'lib, tugallangan fragmentlarni tasvirlaydi;

- o'quv kursining strukturali elementi gipermatnli, ko'rgazmalilik, audio va videoizohli yoki videoko'rgazmali kalitli mavzulardan tashkil topadi va malakali o'qituvchi yoki ma'ruzachi o'qilayotgan fandagi o'z fikrlarini bildiradi hamda oddiy qo'llanmada o'zlashtirish qiyin bo'lgan fikrlarni izohlaydi;

- gipermediali grafikadan foydalanib, qo'llanmaga tegishli murakkab model va ko'rgazmalarni tushunarli hamda sodda shaklda tasvirlash imkoniyatidan foydalanadi;

- elektron qo'llanma ko'p oynali interfeysga ega bo'lib, har bir oynada o'zaro bog'langan axborotlar joylashtiriladi;

- qo'llanmada matnli qism ko'p sonli kesishgan gipermatnli bog'lan ishga ega bo'lib, zarur axborotni izlash vaqtini qisqartiradi va qo'shimcha videoaxborot yoki animatsiyali kliplardan kursning matnli qismlarini bayon etish mushkul bo'lgan bo'limlarini ifodalashda to'liq foydalaniladi;

- elektron qo'llanmada foydalanuvchi tomonidan amallarning to'g'ri bajarilishi, yordam olish jarayoni ovozli signallardan, axborotning boshqa ko'rinishlari esa multimediali vositalarning imkoniyatlaridan foydalanadi;

- axborotning sifati, ishonchliligi va uning strukturasiga talab oshadi.

Yuqorida bayon etilganlardan ko'rinish turibdiki, hozirgi zamonaviy pedagogikada elektron qo'llanmalardan foydalanish asosiy masala bo'lib qolmoqda. Elektron qo'llanma va ensiklopediyaning jahon ta'lim standartiga to'liq javob bera olishi tinglovchilar bilim sifatini oshirishdagi ahamiyati muhim ekanligi bayon etiladi. Bugungi kunda amaliy jihatdan elektron

qo'llanma va ensiklopediyaga tegishli ishlar juda kam ishlab chiqilgan.

Interaktiv elektron o'quv qo'llanma talabaga zamon talablari asosida atroflicha interaktiv ta'lif berish, fanning nazariy jihatlarini vizual, audio, animatsiya, simulyatsiya, video, o'yinli va mustahkamlovchi ta'limiy dasturlar asosida mustaqil bilim berish uchun zarur. Interaktiv elektron qo'llanmalar talabalar uchun istalgan joyda qulay foydalanish, bilimlarni oshirish, mustahkamlash, bilimini tekshirish, ustozni bilan bog'lanish imkoniyatini taqdim etadi.

Mazkur interaktiv elektron o'quv qo'llanma professor-o'qituvchi uchun har bir talaba bilan individual ishslash imkoniyatini yaratib beradi. O'qituvchi mustaqil ta'limni tashkil etadi, boshqaradi va nazorat qiladi. Talabaning har bir harakati natijasi o'qituvchining elektron manziliga avtomatik qayd qilib boriladi. Bu orqali talabaning mustaqil ta'lim olishi kafolatlanadi, nazorat qilinadi, mustaqil ta'lim tizimi to'g'ri tashkil etiladi, shaffof baholanadi va talaba rag'batlantiriladi.

Ta'lim jarayoni axborot, elektron texnologiyalarni qo'llab, amalga oshiriladigan hozirgi elektron ta'lim tizimi quyidagi asosiy tamoyillarga ega bo'lishi kerak:

- ta'limning ochiqligini va moslashuvchanligini ta'minlash tamoyili. Iste'molchilarga qulay bo'lgan istalgan joyda foydalanuvchilarining hamma toifalari uchun ta'lim olish imkoniyatini yaratishni ko'zda tutadi;

- individuallashtirish tamoyili. Kirish va joriy nazorat hamda har bir tinglovchi bilimlarining individual darajasiga muvofiq materiallarni taqdim qilish orqali amalga oshiriladi;

- interfaollik tamoyili. NIT vositalarini qo'llagan holda "talabalar - o'qituvchi" va "talaba - talaba" muloqotlari qonuniyatlarida aks etadi.

Shunday qilib, talabalar mustaqil ishlarini optimal tashkil qilish qator shartlarni o'z ichiga oladi:

- talabalarning bilimlari va maxsus tayyorgarligi darajasini aniqlash;

- qalamtasvir va rangtasvirga o'qitish maqsad va

vazifalaridan kelib chiqib, didaktik asoslangan rejalarshirish;

– talabalar mustaqil ishlari uchun topshiriqlar, metodik ko'rsatmalar va pedagogik tavsiyalarni tayyorlash;

– har bir topshiriqning o'quv va ijodiy vazifalarini belgilash;

– tavsiya qilinadigan adabiyotlarni tanlash;

– har bir topshiriq bajarilishini tizimli nazorat qilish.

Yakka tartibdagi samarali mustaqil mashg'ulotlar uchun talabalarga quyidagilar talab etiladi:

– mustaqil ish uchun o'quv-metodik, ilmiy, ma'lumotnoma xarakteridagi adabiyotlarning mavjudligi;

– ko'rgazmali qurollar, interfaol ishlanmalar va illustrativ materialning (talabalar ishlaridan namunalar) mavjudligi;

– o'qituvchining maslahatchilik-metodik yo'naltiruvchi rolini kuchaytirish;

– talabalar intizomliligining yetarli darajada ekani;

– ish jarayonida talabalar va o'qituvchilar bilan muloqot qilish imkoniyati.

Tasviriy san'at o'qitish metodikasi elektron qo'llanmasi orqali talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish mustaqil ta'lim samaradorligini oshirish omillaridan biri hisoblanadi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib, elektron qo'llanma vizuallik dinamik asoslarga qurilgan. Bu esa bugungi yoshlar uchun yanada qiziqarli va zamonga mosdir. Talaba fanni mustaqil o'zlashtirish jarayonida sun'iy intellekt tomonidan tasviriy san'atning nazariy tomonlari so'zlab beriladi, turli interaktiv o'yinli texnologiyalar orqali bilimlari sinaladi hamda talabaga yangi bilimlar beradi. Mavzu yuzasidan videodars, amaliy mashg'ulot bo'yicha mahorat darslari namoyish etiladi. O'rgangan bilimlarini yanada mustahkamlash uchun jamoa bo'lib krosvord bajarishadi. Olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va tekshirish uchun interaktiv tarzda test bajarishadi. Usta rassomlar hayoti va ijodiy asarlari katalogi bilan ham chuqurroq tanishadi.

Elektron qo'llanma o'qituvchi va talabalarda ma'lum malakalarni shakllantirishda vaqtini qisqartiradi; mashq

qilinadigan topshiriqlar soni oshadi; o'quvchilarning ishslash sur'ati jadallahadi; kompyuter tomonidan faol boshqarishning talab qilinishi natijasida talaba ta'lif subyektiga aylanadi; talabalar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyati hosil bo'ladi; kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda darsni uzoqdagi manbalar bilan ta'minlash imkoniyati hosil bo'ladi; kompyuter bilan muloqot didaktik o'yin xarakterini oladi va bu bilan o'quvchilarda o'quv faoliyatiga motivatsiya kuchayadi.

Ma'lumki, o'qituvchi-rassom kasbi keng qirrali va murakkabdir. Tasviriy san'at o'qituvchisi nafaqat mahorat bilan rasm chizishni bilishi, balki yuqori darajada dars berish mahoratiga ham ega bo'lishi kerak. Shuning uchun u ixtisosligi bo'yicha izchil tayyorgarlikni o'tashdan tashqari, tasviriy san'atni o'qitish uslubiyotidan ham mukammal bilim va tajriba orttirishi lozim. A.A.Milyukov fikricha, fakultetda bu muammoni o'qish davrida ta'lif-tarbiya ishini talabalarga mavzularni muntazam va maqsadli o'rgatib borishni (taqdim qilishni) ta'minlaydigan yagona tizim asosida tashkil qilish va masalaga dastlabki bosqichlardanoq muayyan uslubiy-pedagogik nuqtayi nazardan yondoshish orqaligina hal etish mumkin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, pedagogika oliy ta'lif muassasalarining "San'atshunoslik" fakultetlarida tasviriy san'at o'qitish metodikasi fani II bosqichida o'tiladi. Dastlabki yillardan talabalar qalamtasvir va rangtasvir asoslarini o'zlashtirishadi. Lekin, umumta'lif maktablarida mazkur fanlardan amaliy mashg'ulotlarni o'tish uchun o'qitish metodikasi fani muhim ekanligi xususida deyarli o'ylab ko'rilmagan. O'qishning bu davrida talabalar o'zining bo'lajak kasbi – tasviriy san'at o'qituvchisi ixtisosligi talablaridan kelib chiqib harakat qilishmas ekan, ularning ushbu muxatassislik to'g'risidagi tasavvurlari shakllanmay qolaveradi. Bunday yondashuv oqibatida esa bilim va ko'nikmalar talabaning o'qitish malakalarini oshirmaydi va u, afsuski, muayyan ixtisoslik sohibi bo'lolmaydi. Biz bu muammoni maxsus fanlarni

o'rganishning uslubiy asoslariga alohida urg'u berish orqali hal qilish mumkin deb hisoblaymiz. Talabalar qalamtasvir va rangtasvirga o'qitishning uslubiy asoslarini egallash uchun fakultetdagi ta'larning dastlabki davridan boshlab:

- kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladigan o'quv vazifalari qo'yishning maqsadga muvofiq tartibini o'zlashtirishi;

- ta'lim bilan bog'liq maqsad va vazifalarni mustaqil belgilashni o'rganishi;

- tasviriy ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradigan topshiriqlarni belgilab o'zlashtirishi;

- amaliy vazifalarni yuqori darajada tahlil qila olishi va ishning borishini nazorat qilish qobiliyatiga ega bo'lishi va xolis baholashni bilishi kerak.

"San'atshunoslik" fakultetlari talabalari qalamtasvir va rangtasvir sohasida amaliy tajribaga ega bo'lish bilan cheklanib qolmay, kelajakda bo'lajako o'quvchilarga tasviriy san'atasoslarini o'rgata olishi va yoshlarni ham badiiy jihatdan tarbiyalashga o'rganishlari lozim. Biz pedagogika oliy o'quv yurtlari bilan bir qatorda badiiy akademiya, maxsus rassomlik maktablari, kasbhunar kollejlari ta'lim jarayonida yoshlarining badiiy didlarini shakllantirish, kelajakda qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar atrofdagi go'zallikni tasavvur qila olishini maqsad qilib qo'yanmiz. Shu jihatdan "Qalamtasvir", "Tasviriy san'atda tur, janr va oqimlar" lug'at-ma'lumotlar bazasisi, "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi (mustaqil ta'lim uchun)" interaktiv elektron o'quv qo'llanmalari aynan shu nuqtayi nazardan kelib chiqib yaratildi. Bu adabiyotlar talabalarning mustaqil o'qishi va ijod qilishini tashkil etish, ularning bo'lajak rassom-pedagog sifatida shakllanishi, har ikki yo'nalishda mahoratini teng oshirib borishida yordam beradi.

Ta'limsifatiningyuksalishio o'qituvchilarning auditoriyadan tashqarida mustaqil bajariladigan vazifalar tizimini ishlab chiqishi, shu jarayonning mohiyatini ochib beradigan uslubiy materiallarni tayyorlashi va taqdim qilishi bilan bevosita bog'liq. Qolaversa, talabalarda:

- o'z-o'zini nazorat qilish;
- faoliyatini mustaqil tashkil qilish;
- olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq etish kabi xislatlarni shakllantirish mas'uliyati ham o'qituvchilar zimmasidagi asosiy vazifalardan biridir.

Texnik imkoniyatlarning kun sayin ko'payib borayotgani o'quv jarayonini kompleks tarzda tashkil qilishda qo'l kelmoqda. O'quv va uslubiy qo'llanmalar bilar bir qatorda taqdimotlar, videolavhalari, multimedia kurslari, ta'lim natijasini baholaydigan rang-barang test sinovlari kabi vositalardan foydalanish talabalar dunyoqarashini yanada boyitib, ularning erkinligi, ijodiy faolligi va o'qishga bo'lgan ishtiyoqini rivojlantiryapti.

Shaxsiy kompyuterlardan foydalanishning ommaviylashishi nazariy va amaliy ta'lim tizimiga ulkan o'zgarishlar olib keldi. Zamonaviy didaktikadagi mustaqil ta'lim muammosini tadqiq qilishda ushbu masalani nazardan chetda qoldirish mumkin emas. Bu barcha yo'nalishlar, jumladan, tasviriy san'at sohasiga ham taalluqlidir. Mustaqil ta'limni tashkil qilish va amalga oshirish jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish mutaxassislarga katta yengillik va qulaylik beryapti va ularning ahamiyati kun sayin ortib bormoqda.

Interfaol ta'lim dasturlari ishlab chiqish bugunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Albatta, eng mukammal kompyuter texnologiyasi ham pedagogik faoliyat bo'yicha katta tajribaga ega shaxs – musavvir, ustoz rassom o'rmini bosolmaydi. Garchi kompyuter imkoniyatlari muayyan darajada cheklangan bo'lsa ham, u boshqa har qanday didaktik vositalardan afzal hisoblanadi.

60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv jarayonida auditoriya va undan tashqari jarayondagi mustaqil faoliyatni rejalashtirish, tashkil qilish, boshqarishda o'qituvchi omili yetakchi o'rinnegallaydi. U maqsadni belgilaydi, vazifalar shaklini tanlaydi va natijaga erishish usullarini aniqlashtiradi.

Elektron ta'lif vositalarini yaratish – zamonaviy o'quv-metodik faoliyatning muhim yo'nalishlaridan biridir. Elektron ta'lif vositalari ixtisoslashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasi (darsliklar, ensiklopediyalar, lug'atlar, ma'lumotnomalar), ixtisoslashtirilgan dasturlar esa didaktik vositalardan tarkib topadi. Ular ta'lif muhitida multimedia texnologiyalari ta'sirida paydo bo'ldi va jadal rivojlanib bormoqda. Mazkur ta'lif vositalarining afzalligi, nazarmizda, birinchidan, mobilligi; ikkinchidan, zamonaviy ilmiy bilimlar rivojlanishi va insonning axborotga bo'lgan ehtiyoji darajasiga mos ko'lamda taraqqiy topgani; uchinchidan, kompyuter tarmoqlarining shiddat bilan kengayib borishi natijasida foydalanuvchilar sonining ham keskin o'sib borishida ifodalanadi.

Bugungi zamonaviy ta'lifda elektron ta'lif vositalariga qiziqish va e'tibor dunyo miqyosida oshib borayotganini ko'rib turibmiz. Hozirgi kunda bunday qo'llanmalarni yaratish tor doiradagi xususiy urinishlar chegarasidan chiqdi va ularni ta'lif jarayoniga faol tatbiq etishga harakat qilinmoqda, bu borada muayyan tajriba ham to'plandi. Zamonaviy multimedia texnologiyalaridan qalamtasvir va rangtasvirga o'qitish sohasida foydalanishning quyidagi ko'rinishlarini e'tirof qilishimiz mumkin:

- qalamtasvir va rangtavslit texnologiyalari va tasviriy savodxonlik asoslari bo'yicha ma'ruzalarni elektron mahsulotlar tarzida boyitish. Fan borasida umumiylasavvur beradigan mahorat darslarini tashkil qilib, talabalarning mustaqil ta'lif mashg'ulotlarida foydalanish;

- qalamtasvir, rangtasvir va tasviriy san'at o'qitish metodikasi fanlari bo'yicha didaktik, uslubiy materiallar va qo'shimcha ma'lumotlardan tarkib topgan elektron o'quv qo'llanmasini yaratish, shuningdek, mustaqil o'qish-o'rganishda keng ko'lamda foydalanish, shaxsiy bilimlarni nazorat qilishda yordam beradigan dasturiy ta'minotni ishlab chiqish.

Bunday elektron o'quv qo'llanmasi talabalarning mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishi va o'tkazishida zarur bo'ladigan didaktik, uslubiy, ilmiy ma'lumotlar asosida tuziladi.

U ta'limga oluvchilarga mavzularni mustaqil o'zlashtirish, shuningdek, o'qituvchi rahbarligida o'tkaziladigan darslarga tayyorgarlik ko'rishda, o'quv fanlari bo'yicha qo'shimcha axborot va ma'lumotlar olishda qo'l keladi. Qolaversa, elektron dastur talabalarga o'quv fanlari bo'yicha bilimini shaxsan nazorat qilib va baholab borish, o'qituvchilarga esa o'quvchilarining joriy va yakuniy o'zlashtirishini xolis kuzatish, shu orqali ta'limga berish sifatini yanada oshirish imkoniyatini taqdim etadi. Bu esa zamонавији kompyuter texnologiyalarining an'anaviy ta'limga berish shakl va vositalari, o'quv-metodik ta'minot usullariga nisbatan ustuvor jihatlarga ega ekanini yanada yaqqol namoyon qiladi.

Tasviriy san'at fanlaridan talabalarning mustaqil ta'lmini tashkil etish va boshqarishga munosabatni aniqlash maqsadida turli hududlardagi uchta OTMning 6011200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'limga yo'nalishi kunduzgi ta'limga shakli 2- va 3-kurs talabalari o'rtasida so'rov nomada o'tkazildi<sup>1</sup>. Mazkur so'rov nomada umumiy 402 nafar respondent ishtrok etdi.

So'rovda tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib, bir nechta savollar bilan murojaat qilindi va respondentlardan javoblar olindi. Xususan:

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'limga yo'nalishiga qiziqib kirganmisiz?

(ha – 79 %, yo'q – 21 %).

Tanlagan mutaxassisligingiz bo'yicha ta'limga olishdan manfaatdormisiz?

(ha – 40 %, yo'q – 60 %).

Mutaxassislik fanlaridan qaysi biriga qiziqasiz va siz uchun qaysi fanlar muhim deb o'ylaysiz?

(rangtasvir – 23 %, qalamtasvir – 21 %, kompozitsiya – 19 %, kompyuter grafikasi – 28 %, boshqa fanlar – 9 %).

Mutaxassislik fanlaridan mustaqil ta'limga uchun sizda vaqt yetarlimi?

(ha – 7%, yo'q – 19%, ba'zida yetarli – 15%, ba'zida yetmaydi – 29%, ha alabtta – 6%, vaqtimiz umuman yo'q –

---

<sup>1</sup> <https://fineart.cspi.uz/2023/sorovnoma-2905/>

24%).

Fan dasturida mustaqil ta'lif uchun belgilangan vazifalarni bajarish uchun auditoriya va moddiy texnik baza yetarlimi, rahbariyat mustaqil ta'lifni auditoriyada moddiy texnik ba'zadan foydalanishga ruxsat beradimi?

(ha – 22%, har doim ruxsat beradi – 16%, yo'q, lekin ruxsat beradi – 29%, ha, lekin foydalanishga ruxsat bermaydi – 33%).

Semestr davomida mustaqil ta'lif bilan shug'ullanasisizmi?

(muntazam shug'ullanaman – 26%, vaqtiga vaqtiga bilan – 31%, shug'ullanmayman – 43%).

Bitta mutaxassislik fanidan haftasiga nechtadan mustaqil ta'lif vazifasini bajarasiz?

(haftasiga 1-2 ta – 26%, haftasiga 3-5 ta – 23%, haftasiga 10 dan oshiq – 19%, umuman mustaqil ta'lif bajarmayman – 32%).

Uyingizda, ijarada yoki talabalar turar joyingizda mustaqil ta'lif bilan shug'ullanish uchun sharoitingiz bormi?

(ha – 16%, yo'q – 23%, deyarli yo'q – 20%, har doim ham emas – 19%, mustaqil ta'lifni universitetda bajargan afzal – 22%).

Sizga dars berayotgan professor-o'qituvchilar, odatda, auditoriyadan tashqari bajariladigan mustaqil ta'lif topshiriqlarini qanday shaklda beradi?

(taqdimot – 15%, referat – 0%, mustaqil ta'limga etibor yo'q – 27%, ijodiy ishlar – 36%, amaliy loyiha – 8%, case study – 3%, media materiallar – 11%).

Siz mustaqil ta'lifning asosan qanday shaklda tashkil qilinishini ma'qullaysiz?

(referat va testlar – 27%, adabiyotlar katalogi – 9%, kichik guruhlarda topshiriq – 12%, konferensiya – 4%, masofaviy platforma – 18%, dasturiy o'yinlar – 30%).

Sizga dars berayotgan professoro'qituvchilar mustaqil ishingizni baholaganda ko'proq nimaga e'tibor qaratadi?

(ijodiy yondashuvga – 36%, ishning originalligi (ko'chirilmaganligi) – 4%, ishning hajmi – 38%, ishning

jozibadorligi (tashqi ko'rinishi) – 22%).

Sizgadarsberayotganprofessoro'qituvchilarauditoriyadan tashqari bajariladigan mustaqil ishni bajarishingizda sizga maslahatlar berishga vaqt ajratadimi?

(ha – 11%, tez-tez maslahat olib turaman – 14%, qisman, ba'zida vaqt ajratadi – 18%, yo'q, o'qituvchi faqat topshiriq beradi – 23%, maslahatga vaqt yo'q – 7%, men ko'proq mustaqil ta'limdan bilim olaman – 26%).

Sizga dars berayotgan professoro'qituvchilar auditoriyadan tashqarida bajargan mustaqil ishingiz bahosini oraliq hamda joriy nazorat ballariga singdiradimi?

(ha – 17%, yo'q – 83%).

Sizga dars berayotgan professor-o'qituvchilarning auditoriyadan tashqarida mustaqil ta'limni tashkil etishini qanday baholaysiz?

(a'lo – 19%, yaxshi – 38%, qoniqarli – 43%).

Siz, odatda, mustaqil ishlarni o'zingiz bajarasizmi?

(ha, o'zim bajaraman – 22%, ayrimlarini o'zim bajaraman – 28%, ayrimlarini boshqalarga bajartiraman – 41%, to'liq boshqalarga bajartiraman yoki internetdan tayyor ishlarni olaman – 9%).

Mustaqil ta'limga tayyorgarlik uchun o'zingiz qancha hajmda kitob, material o'qiyisiz?

(javob berishga qiynalamani – 8%, bir oyda bitta kitob, bir-ikkita ijodiy ish bajaraman – 22%, bir oyda ikki va undan ortiq kitob o'qiyan va ikki-uchta ijodiy ish bajaraman – 17%, mustaqil ta'limga umuman vaqtim yo'q – 25%, darsdan bo'sh vaqtimda ishlayman – 28%).

Mustaqil ta'limni ta'limiy dasturlar bilan masofadan tashkil etish va boshqarishga qanday qaraysiz?

(menga farqi yo'q – 11%, albatta ijobiy – 89%).

Mazkur kuzatishlarimiz va so'rovnomalaridan quyidagi xulosalarga kelindi:

- talabalar mustaqil ishini nazorat qilishga ijodiy yondashilmayapti. O'quv rejalarida auditoriya soatlariga nisbatan auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limga ko'proq

vaqt ajratilayotganiga qaramasdan, ko'pincha bu vaqt talabalar tomonidan o'quv faoliyatidan tashqaridagi "bo'sh vaqt" sifatida qabul qilinmoqda. Bunda auditoriyadan tashqari mustaqil ta'larning soatlari haftalik kesimda rejalashtirilmayotgani va nazorat qilmasligi, rag'batlantirish choralarining yetarli emasligi asosiy o'rinni tutyapti. So'rovda ishtirok etgan talabalarning aksariyati mustaqil ishlari bahosining umumiy bahoga qo'shilmayotgani, ba'zi o'qituvchilargina umumiy ballga qo'shayotganini ta'kidlagani ham mustaqil ishlarni rag'batlantirish sust darajada ekanini ko'rsatadi;

- auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni bajarishda talabalar tomonidan plagiatsi va o'zlashtirish holatlari keng tarqalgan hodisa bo'lib qolmoqda. Talabalar akademik halollik qoidasini buzishini tan olmoqda. Mazkur holat OTMlarda professor-o'qituvchilar tomonidan talabalarga akademik halollik borasida yetarlicha tushuntirish ishlari olib borilmayotgani hamda mustaqil ishlarni antiplagiat dasturlari orqali tekshirish amaliyotining mavjud emasligi bilan bog'liq. Mustaqil ishlarni hanuzgacha qo'lyozma shaklda qabul qilish amaliyotining saqlanib qolganligi ham mazkur muammoni yanada chuqurlashtirmoqda;

- talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarnini tashkil qilishda "oddiydan murakkabga" tamoyiliga amal qilinmayapti. Shu bilan birga, mustaqil ish mavzusi hamda usulini tanlashda talabaning qobiliyatlari va qiziqishlari hisobga olinmayapti;

- professor-o'qituvchilarning yarmidan ko'pi mustaqil ishlarni o'quv kursining faqat nazariy masalalari bilan cheklangan holda tashkil etmoqda. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash, talabada real amaliy muammolar bilan ishslash ko'nikmalarini shakllantirish qoniqarli holatda emas;

- professor-o'qituvchilarning yangi ilmiy manbalar bilan ishslash faolligi past darajada qolmoqda. Bu ham, o'z navbatida, talabalarning mustaqil ishlarni tashkil etishda ilmiy va innovatsion bo'shliqlarni yuzaga keltiradi;

- mustaqil ta'limga tashkil qilish, boshqarish, nazorat

qilish hamda baholashda deyarli innovatsion, interaktiv o'yinli dasturiy ta'minotlardan, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanimasligi ma'lum bo'ldi.

Yuqoridagi so'rovnama, test, intervyu, kuzatish orqali talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodikasini takomillashtirish hamda tizimli yo'lga qo'yish, mustaqil ta'limni odilona shaffof baholash va nazorat qilish mexanizmini yaratishni maqsad qildik. Ushbu maqsadni amalga oshirishda talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodikasini takomillashtirish modelini asos qilib oldik.

Ta'lim sifati ta'lim tizimi faoliyatining eng muhim mezonlaridan biridir. O'qitish sifatini baholash turli darajada, turli vositalar bilan va turli usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Raqamlashtirilgan ta'lim tizimida o'qitishning sifatini tashxis qilmay turib, undagi jarayonlarni samarali boshqarish, ta'limni maqsadiga erishishda bir qancha murakkabliklar vujudga keladi. Pedagogik jarayonlarda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari sifatini belgilangan mezonlar va yondashuvlar orqali aniqlash bu boradagi muammolarni yechish imkoniyatini yaratadi.

Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish va boshqarishda AKT, dasturiy mahsulotlarni qo'llash, raqamlashtirish samarali hisoblanadi. Raqamlashtirilgan ta'limda pedagogik tashxis talabalar bilim, malaka va ko'nikmalarining shakllanish darajasini aniqlashni, nazorat qilishni, baholashni, umumlashtirish va statistik ma'lumotlarni tahlil qilishni hamda kelgusida bu jarayon rivojini bashorat qilishni o'z ichiga oladi. Metodika sohasidagi ilmiy izlanishlarda talabalar o'zlashtirishlarining tashxisi, ularni erishilgan malakalarining darjasini sifatida qayd etish ekanligiga e'tiborni qaratsak, unda komyuterlashtirilgan pedagogik tashxisning maqsadi ta'lim jarayoni olib borilishining tahlili va uni baholashni o'z vaqtida aniqlashdan iborat bo'ladi.

Pedagogik nazorat tekshirish faoliyatining yagona

didaktik va metodik tizimini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchi va talabalarning bunday o‘zaro bog‘langan birgalikdagi faoliyati ta’lim jarayoni natijalarini aniqlash va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan.

Ta’lim jarayonining maqsadi talabalar tomonidan fan bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini egallashlaridir. Bu maqsadga erishish vositasi talabaning semestr davomida muntazam ishlashi va olingen bilimlarni tizimli nazorat qilishdir.

Ma’lumki, nazorat, olingen natijalarning oldindan belgilangan o‘quv maqsadlariga muvofiqligini tekshirishdir. Ammo uning vazifalari bilim va malakalarning ta’lim standarti talablariga javob berishini tekshirish bilan cheklanmaydi. Nazorat sohasida uchta asosiy o‘zaro bog‘liq vazifalar mavjud: diagnostik, o‘quv va tarbiyaviy.

Tashxis vazifasi: nazorat – bu talabalarning bilim darajasini aniqlash jarayoni. O‘qituvchi talabalar bilimlaridagi bo‘shliqlar, tez-tez yo‘l qo‘yilgan xatolar va ularning tabiatini haqida ishonchli ma’lumotlar oladi.

Nazoratning o‘quv funksiyasi o‘quv materialini o‘zlashtirish bo‘yicha ishlarni faollashtirishda namoyon bo‘ladi.

Tarbiyaviy vazifasi: nazorat tizimi mavjudligini tartiblashtiradi, talabalar faoliyatini tashkil qiladi va boshqaradi, bilimdagi bo‘shliqlarni aniqlashga yordam beradi, bu bo‘shliqlarni bartaraf etadi, fanga ijodiy munosabat va qobiliyatlarini rivojlantirishga intilishni shakllantiradi.

S.Y.Shalovaning ta’kidlashicha: “ta’lim jarayonida to‘g‘ri tashkil etilgan nazorat nafaqat teskari aloqa funksiyasi bo‘lib xizmat qiladi, balki talabaga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi: o‘qishga bo‘lgan qiziqishni oshirishga yordam beradi, o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi va o‘z-o‘zini baholashni ta’minlaydi”.

K.G.Delikatniyning ta’kidicha: “Har bir imtihonchida bilimni baholashning umumiy mezoni bilan birga imtihonga o‘zining yondashuvi, pedagogik talab tamoyillarini o‘zicha tushunishi va haqgo‘yligi, o‘zining bahoga munosabati bo‘ladi”.

Shu bois talabalar mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etish

va boshqarishda axborot texnologiyalari qo'llashda yuzaga keladigan obyektiv va subyektiv ta'sirlar bilan bog'liq omillarni aniqlash lozim bo'ladi.

Raqamlashgan ta'limda tashxis va monitoringni rejalashtirishda talabaning ta'lim traektoriyasida shaxs sifatida ijobiy yoki salbiy rivojlanishni aniqlash muhim sanaladi.

Kompyuter texnologiyalari asosidagi monitoring faqat mutaxassis – pedagoglar tomonidan emas, balki pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zлari tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday texnologiyalarni monitoring tizimida joriy qilishda pedagogik jarayon ishtirokchilarining axborotga, bilimga bo'lgan ehtiyoj va ishtiyoqlarini faollashtirishga erishish zarur.

Bilim olish sifatini nazorat qilish, qo'yilgan ta'lim maqsadlariga erishish darajasini baholash har qanday ta'lim texnologiyasidan foydalanishda ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Tasviriy san'at fanlarida mustaqil ta'lim, odatda, quyidagi ketma-ketlikda taqdim etiladi:

- ma'ruza materiali;
- topshiriqlarni amaliy bajarish uchun namuna;
- mustaqil yechish uchun topshiriqlar (fanning nazariy qismini mustahkamlash uchun);
- test.

Dastlabki ikki bosqich haqiqiy o'quv jarayonini tashkil etadi, uchinchi bosqich o'z-o'zini nazorat qilish uchun, to'rtinchisi esa olingan bilimlarni nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish uchun zarurdir.

Talabalarning bilimlarini intellektual nazorat qilishning turli metodlari mavjud bo'lib, kompyuter texnologiyalari asosidagi og'zaki, grafik nazoratlar, virtual amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish orqali tekshirish hamda test sinovi metodlari hozirda mustaqil ta'limga keng kirib kelmoqda.

Kompyuter texnologiyalari vositasida bilimlarni og'zaki usul bilan tekshirish metodi asosan bir-birini to'ldiruvchi ikki qismdan: birinchisi, sinxron muloqotda beriladigan tekshirish savollari va vazifalardan; ikkinchisi esa, qo'yilgan savol va

vazifalarga sinxron muloqotda olinadigan javoblardan tashkil topadi. Sinxron muloqotda beriladigan savol va topshiriqlarning mazmunini belgilashda, o'rganilayotgan o'quv materialining mazmuni bilan ilgari o'zlashtirilgan materiallar mazmuni orasidagi bog'lanishni tahlil qilish, yetakchi fikrlarni ajratish imkonи vujudga keladi.

Kompyuter texnologiyalari yordamida amaliy ishlarni tekshirish, talabalarning nazariy bilimlарини; eksperimental topshiriqlarni bajarishda nazariy bilimlarni qo'llay olish ko'nikma va malakalarini aniqlashni nazarda tutadi.

Mustaqil ta'lim ishlarni kompyuter texnologiyalari asosida tashkil etish va boshqarish quyidagi to'rt bosqichda amalga oshiriladi: nazoratni o'tkazishga tayyorgarlik; tashkil etish; o'tkazish; natijalarni tahlil etish.

Nazoratni tashkil etishda uning har bir bosqichlarining maqsadlarini belgilash, mustaqil ishlarning mazmunini tanlash, tekshirish vazifalarini loyihalash lozim bo'ladi.

Virtual amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarni bajarish orqali tekshirish usuli yordamida talabalarning egallagan nazariy bilimlari asosida amaliy topshiriqlarni bajarish, turli jadvallardan, kompozitsiya qonuniyatlaridan, san'at asarlaridan, tasvir ishslash qonun-qoidalaridan foydalanish ko'nikma va malakasi shakllanganlik darajasi aniqlanadi.

Talabandan AKT texnologiyalaridan foydalanib, mustaqil topshiriqlarni bajarishning algoritmini tuzish talab etiladi, bunday faoliyat talablarda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Talabalar bilimini kompyuter texnologiyalari orqali nazorat qilishning maqsadini amalga oshirishda uning:

- nazorat funksiyasi;
- o'qitish;
- tashxis;
- bashorat;
- rivojlantiruvchi;
- yo'naltiruvchi;
- tarbiya qilish kabi vazifalarini aniqlashtirish lozim.

Xususan, bular ichida eng muhimi – nazorat funksiyasi bo'lib, talabalar erishgan bilim, ko'nikma va malakalarning darajasini, ularning bilish faoliyati bo'yicha yondashuvlarni, o'zlashtirganlik ko'rsatkichlariga ko'ra ularning aqliy faoliyatlarining rivojlanish darajasini aniqlashtirish imkonini beradi.

Uning ikkinchi muhim vazifasi o'qitish bo'lib, u talaba erishgan bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishni, uning tizimliligini nazorat qilishni ta'minlaydi. Bunday nazorat jarayonida talabalar o'rganilayotgan materialni qaytarish va mustahkamlash bilan shug'ullanadilar. Bilimlarni kompyuter texnologiyalari asosida tekshirish, o'rganilayotgan materialdan asosisyni ajratib olish, shuningdek, erishilayotgan bilim, ko'nikma va malakalarning mazmunini aniqlash imkonini beradi.

Nazoratning uchinchi – tashxis vazifasi, talabalar o'zlashtirayotgan bilim, ko'nikma va malakalardagi kamchiliklar, yetishmovchilik, xatolar haqida, xatolarning soni hamda xarakteri haqida ma'lumot olishga yordam beradi. O'qitish jarayonida tashxisiy nazoratlar uchun ma'lum darajada samarali metodikani tanlashga yordam berishi bilan muhim sanaladi.

Kompyuter texnologiyalari asosida bilimlarni nazorat qilishda, uning bashorat etuvchi vazifasi, ta'lim-tarbiyaviy jarayon haqida, uning kelajagi, ya'ni oldindan ko'ra bilish mumkin bo'lgan holati to'g'risidagi axborotni olish uchun xizmat qiladi.

U o'quv jarayonining ma'lum bosqichida o'quv materialining ma'lum qismi bo'yicha mo'ljallangan aniq bilim, ko'nikma va malakalar yetarlicha shakllangani yoxud shakllanmaganligi bashoratini nazorat qilish imkonini beradi. Ma'lum ilmiy bashorat bo'yicha erishilgan natijalar talabalarning keljakdagi faoliyatlarini modelini yaratish uchun qo'llaniladi. Bunday bashorat, keljakda o'qitishni rejorashtirish va amalga oshirish uchun aniq xulosalar olishga ko'mak beradi.

Bilimlarni nazorat qilishning rivojlantiruvchi vazifasi,

talabalarning bilishga bo'lgan faolliklarini, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda namoyon bo'ladi. Kompyuter texnologiyalari asosida amalga oshiriluvchi nazorat jarayonida talabalarda nutq, xotira, diqqat, tasavvur, iroda va fikrlash qobiliyatlarining rivojlanishi yaqqol seziladi. Nazorat jarayoni, shaxsnинг qobiliyati, moyilligi, qiziqishlari va ehtiyojlari kabi xususiyatlarning shakllanishiga ta'sir qilishi bilan muhim hisoblanadi.

Shuningdek, talabalar erishayotgan bilimlarni nazorat qilishda uning yo'naltiruvchi vazifasi ham mavjud bo'lib, uning mohiyati, alohida talaba yoki butun guruh tomonidan o'qitishning maqsadiga qay darajada erishilganligi, ya'ni o'quv materiali qanday miqdorda va qanchalik chuqur o'zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Bunday nazorat tufayli, yo'l qo'yilgan xatoliklar, kamchiliklar o'rganilib, ular talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarini takomillashtirishda qanday yondashuvlarga e'tibor berish lozimligini ma'lum qiladi. Nazorat talabani o'z bilim, ko'nikma va malakalarining shakllanganlik darajasini aniqlashiga, qobiliyatlarini, imkoniyatlarini anglash va odilona baholashiga yordam beradi.

Ayni paytda, talabalar o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilishning keng tarqalgan yo'li – interaktiv testlar yordamida aniqlash bo'lib, u bilimlarni baholashning kompyuterlashtirilgan tizimini yaratish imkonini beradi. Mazkur tizim pedagogning kompyuter imkoniyatlarini o'zlashtirishi, undan samarali foydalanishi orqali uning talaba bilan mustaqil individual ishlari jaryonini muvofiqlashtiruvchi vosita sifatida yuzaga keldi. Xusan, talaba bilim va malakasini kompyuterlashtirilgan holda nazorat qilish, talab qilinadigan bilimlar majmuasining sifatini aniqlash muammosini hal qilish lozimligini, erishilgan bilimlarning baholash mezonlarini va ularning o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash qobiliyatlarini belgilash mumkin emasligi oydin bo'ldi.

Interaktiv kompyuter testlariga asoslangan nazoratga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- validligi;

- aniqligi;
- soddaligi;
- bir xil ma'noni anglatishi;
- ishonchliligi.

Bunda testning validligini aniqlashda uning mazmunan va funksional jihatdan validligini farqlay bilish lozim. Mazmunan validlik test mazmunining nazorat qilinayotgan o'quv materialiga mosligini tavsiflasa, funksional validlik testning talaba faoliyatini baholanadigan darajasiga mosligini tavsiflaydi.

Testning aniqligita labablarining bajarilishi talaba tomonidan bajariladigan fan mazmuni bo'yicha topshiriqlarning berilgan test savollariga mosligining ta'minlanishini amalga oshiradi.

Testning soddaligi har bir test savollari bir xil qiyinlik darajasidagi topshiriqdan tashkil topishi lozimligi, qiyinlik daroji turlicha bo'lgan bir necha yoki majmuaviy topshiriqlardan tashkil topmasliklari bilan ifodalanadi.

Bir xil ma'noni anglatish, turli ekspertlar tomonidan test sinovlarining bajarilganlik sifati bir xil baholanadigan bo'lishini bildiradi.

Kompyuter test nazoratning ishonchliligi esa ma'lum talaba test topshirig'i bo'yicha qayta-qayta nazorat qilinganida ham uning natijalari bir xil ko'rsatkichga ega bo'lishining ta'minlanishi bilan tushuntiriladi.

Nazoratning bu shakli quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- mustaqil ta'lim natijalarini tekshirish va baholashni avtomatlashtirish va natijada bilim diagnostikasiga sarflanadigan vaqtini sezilarli darajada kamaytirish;
- o'qitishning motivatsion tomonini oshirish;
- bilimlarni xolisona baholash (o'qituvchi tomonidan subyektivlikni istisno qilish);
- o'quv materialidagi muammolarni aniqlash va ularni tahlil qilish asosida mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etishga tegishli tuzatishlar kiritish.

Sinov amaliyotida test topshiriqlarining turli shakllaridan foydalaniladi. Yopiq shakldagi topshiriqlarning asosiy

afzalliklari testning tezligi va test natijalarini tekshirishning qulayligi bilan bog'liq. Ular tekshirilayotgan fanning katta hajmini qoplash uchun ishlatalishi mumkin. Odatda, testda bitta yoki bir nechta to'g'ri javob tanlash talab qilinadi. Yopiq shakldagi topshiriqlarning kamchiliklariga kam tayyorlangan talabalar tomonidan testning qiyin savollariga javob berishda taxmin qilishni misol keltirish mumkin.

Ma'lumki, komyuterlashtirilgan ta'lim jarayonini bunday baholash, faqat talabaning o'zlashtirish darajasini belgilash bilan chegaralanib qolmay, mustaqil ta'limi rag'batlantirishda muhim pedagogik vosita va ijobiy motiv uyg'otishi bilan talaba shaxsiga kuchli ta'sir etadi. Talaba mustaqil ta'lim faoliyatini kompyuter texnologiyalari asosida obyektiv baholash, unda adekvat ravishda o'z-o'zini baholash imkoniyatini shakllantiradi va o'z ko'rsatkichlariga tanqidiy munosabatda bo'lishni tarbiyalaydi. Shu nuqtayi nazardan talaba bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning avtomatlashtirilgan texnologiyasi zamonaviy axborot-pedagogik tizimlarini yaratadi, unga mos ravishda bilimlarni nazorat qilishning tashxisiy metodlari va vositalarini takomillashtirib borishni taqozo qiladi.

Tadqiqotning tajriba-sinovida "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi (mustaqil ta'lim uchun)" elektron o'quv qo'llanmasidan foydalanildi. Mazkur elektron o'quv qo'llanmaning tuzulishi, qisqacha imkoniyatlari va mustaqil ta'limni tashkil etish va boshqarishdagi ahamiyati bilan tanishib chiqamiz (1-ilovalardagi rasmlarga qarang: "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi (mustaqil ta'lim uchun)" elektron o'quv qo'llanma).

Elektron o'quv qo'llanmada tasviriy san'at fanlaridan (qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya, tasviriy san'at tarixi, amaliy san'at, tasviriy san'at o'qitish metodikasi) o'quv adabiyotlari (darsliklar, o'quv qo'llanmalar, taqdimotlar), vizual taqdimotlar, interaktiv dinamik audio va videomanbalar, rassomlarning ijodiy asarlar katalogi, rassomlar hayoti va ijodiga oid keng qamrovli audio va matnli katalog, muzeylarga virtual sayohat qilish havolalari, simulatsion topshiriqlar,

krossvordlar, san'at asarlarini badiiy, kompozitsion tahlil qilish bo'yicha topshriqar, fanlardan mahorat darslari videomanbalar (YouTube ijtimoiy tarmog'i bilan integratsiya asosida), interaktiv testlar, qayta teskari aloqa qilish imkoniyatlari, marker chizish vositalari kabi ko'plab imkoniyatlari mavjud.

Talaba mustaqil ta'lim dasturida belgilangan vazifalarni kurs davomida bosqichma-bosqich amaliy (ijodiy) va nazariy bajarib boradi. Mustaqil ta'lim dasturidagi topshiriqlarni bajarish asanosida "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi (mustaqil ta'lim uchun)" elektron o'quv qo'llanmasi ular uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu elektron qo'llanma talabalar mustaqil ta'limini tashkil etadi va boshqarib boradi. Interaktiv elektron qo'llanmadan fanning nazariy va amaliy mashg'ulotlari haqida taqdimotlar, audio, videomanbalar orqali bilimlar olishadi va krossvord, test, simulatsion topshiriqlar asosida bilimlarini mustahkamlab borishadi. Ularning mustaqil ta'limdan olgan baholari bevosita auditoriyada olgan baholari (oraliq, joriy)ga rag'bat va motivatsiya sifatida qo'shib boriladi.

Mustaqil ta'limni tashkil etish va boshqarishda talabaning bilimini mustahkamlash, nazorat qilish hamda rag'batlantirish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda interaktiv topshiriqlar va testlar muhim ahamiyat kasb etadi. "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi (mustaqil ta'lim uchun)" elektron o'quv qo'llanmasida iSpring suite10 dasturi yordamida interaktiv testni misol tariqasida keltirishimiz o'rinli bo'ladi. Bu dastur pedagoglarga va talabalarga bir qator qulayliklarni yaratadi. Quyidagi rasmlarda interaktiv test tuzilishi, topshiriq turlari hamda uning imkoniytlaridan misollar keltiramiz.

Adabiyotlar yuklash

ILTIMOS MA'LUMOTLARINGIZNI KIRITING!

F.I.Z.H.  
Muratov Xusan Xolmuratovich

OTM nomri<sup>\*</sup>  
CHDPU

Kursi<sup>\*</sup>  
2

JO'NATISH

Kontur Eslatmalar

Qidiruv

9. ....

10. ....

11. ....

12. ....

13. ....

14. ....

15. ....

### 3.1.1-rasm. Testga kirishda talaba o'zi haqida ma'lumotlarni kiritish bo'limi

78.50 Adabiyotlar yuklash 80 Sevoldan 35

Tasvir bosqichlarini to'g'ri joylashtiring!

1.

2.

3.

4.

HAMMASINI JO'NATISH

ORQAGA KEYINGI >

Kontur Eslatmalar

Qidiruv

14.30. Rassom R. Xudoberganovning esarini taping.

14.31. Yozuvchi Oybekning maszur asari yurtimiz...

14.32. Ushbu resm tasviri sahnating qo'shi jannida yer...

14.33. Ushbu esar nomini yozing.

14.34. Ushbu resm tasviri cananning qo'shi jannida yer...

14.35. Tasvir bosqichlarini to'g'ri joylashtiring!

14.36. Tasvir bosqichlarini to'g'ri joylashtiring!

14.37. Tasvir

### 3.1.2-rasm. Tasvir bosqichlarini to'g'ri joylashtiring topshirig'i

63:54 Adabiyotlar yuklash 80 Savoldan 17

Mazkur asarning nomini toping.

- Osuda kun
- Bo'ronli kun
- Ochiq havo



HAMMASINI JO'NATISH

◀ ORQAGA KEYINGI ▶

Kontur Esatlarmalar
 

Qidiruv

kim?

- 14.13. U lotincha i'srimda haynomot olami ...
- 14.14. Sharqiga shaharlar haqidagi florimgizni bayon ...
- 14.15. Darslikda berilgan mazkur rasmning mavzu ...
- 14.16. Mazkur asarning nomini toping.
- 14.17. Mazkur asarning nomini toping.
- 14.18. Mazkur esering nomini toping.
- 14.19. Moslikni birlashtiring!

### 3.1.3-rasm. Tasviriy san'at asariga qarab asar nomi yoki mualliflarini aniqlash test turi

63:08 Adabiyotlar yuklash 80 Savoldan 20

Ushbu asar muallifini yozing.



HAMMASINI JO'NATISH

◀ ORQAGA KEYINGI ▶

Kontur Esatlarmalar
 

Qidiruv

kim?

- 14.15. Darslikda berilgan mazkur rasmning mavzu ...
- 14.16. Mazkur asarning nomini toping.
- 14.17. Mazkur asarning nomini toping.
- 14.18. Mazkur asarning nomini toping.
- 14.19. Moslikni birlashtiring!
- 14.20. Ushbu asar muallifini yozing.
- 14.21. Mazkur asar nomini kriting.

### 3.1.4-rasm. Tasviriy san'at asarlarining muallifi nomini yozish imkoniyatidagi test turi

61:22 Adabiyotlar yuklash 80 Savoldan 27

Moslikni birlashtiring!

HAMMASINI JO'NATISH

ORQAGA KEYINGI

Kontur Eslatmalar

Qidiruv

- 14.22. Rangtaqvir sezarining masnifuri vaqlilar...
- 14.23. Heykaltaros hilda ifodalananidan a...
- 14.24. Grafika assarlerini yaratishda ....lar...
- 14.25. Grafika usulida ishangan rasmlerini remka...
- 14.26. Ozingiz sevgan adabiy asar qahramoningiz...
- 14.27. Moslikni birlashtiring!
- 14.28. Rassom R. Ahmedovning asarini toping.

### 3.1.5-rasm. Topshiriqlarning mazmunan moslarini birlashtirish topshirig'i

59:48 Adabiyotlar yuklash 80 Savoldan 28

Rassom R. Ahmedovning asarini toping.

HAMMASINI JO'NATISH

ORQAGA KEYINGI

Kontur Eslatmalar

Qidiruv

- hilda ifodalananidan a...
- 14.24. Grafika assarlerini yaratishda ....lar...
- 14.25. Grafika usulida ishangan rasmlerini remka...
- 14.26. Ozingiz sevgan adabiy asar qahramoningiz...
- 14.27. Moslikni birlashtiring!
- 14.28. Rassom R. Ahmedovning asarini toping.
- 14.29. Rassom A. Abdullaevning asarini toping.
- 14.30. Rassom R. Xudoberganovin asarini toping.

### 3.1.6-rasm. Berilgan savolga mos tasviriy san'at asarlaridan muallif asarini belgilash topshirig'i

100:19 | Adabiyotlar yuklash | 50 Savoldan 30 | To'plangan ballar: 100 dan 0

Kontur **Eslatmalar**

**Lojvard rangni toping!**

 yashil rang

 sariq rang

 ko'k rang

O'tkazib yuborish JO'NATISH

Qidiruv 🔍


- 15.29. Mazkur asar muallifini toping!
- 15.30. Mazkur asar muallifini toping!
- 15.31. Lojvard rangni toping!
- 15.32. Mostikli bishashiring!
- 15.33. Mazkur asar muallifini yozing [toni va familyesi!]
- 15.34. Mazkur esarning torliq nomini yozing!
- 15.35. Rassom Akmal Nur [o'diga masub mazkur a...

### 3.1.7-rasm. Savolga mos tasvirni tanlash topshirig'i

56:23 | Adabiyotlar yuklash | 80 Savoldan 40 🔍

Kontur **Eslatmalar**

**Portret janriga doir kartinalarni doskaga tering!**

HAMMASINI JO'NATISH ORQAGA KEYINGI >

Qidiruv 🔍

- 14.37. Tasvir bosqichlarini to'g'ri joyashstring!
- 14.38. Mazkur bosqichlarini to'g'ri joyashstring!
- 14.39. ... illyustratsiya qaysi aseriga bag'ishla...
- 14.40. Portret janriga doir kartinalarni dos...
- 14.41. Rangtasvir uchun ishlattilgen an...
- 14.42. Quyosh va qorda qanday rangelar bor? To'g...
- 14.43. Fentziya nima?

### 3.1.8-rasm. Berilgan topshiriqqa mos san'at asarlari turlarini ajratib ko'rsatilgan joyga kirtish

55:27 Adabiyotlar yuklash 80 Savoldan 42

Quyosh va qorda qanday ranglar bor? To'g'ri javobni tanlang!

Quyosh - Tanlang .

Qor - Tanlang .

Xromatik rang

Axomatik rang

HAMMASINI JO'NATISH

ORQAGA KEYINGI >

Kontur Eslatmalar

Qidiruv

- 14.38. Mezkur illyustratsiya qaysi esariga bag'ishlia...
- 14.39. ... fransuzcha so'z bolib, jonsiz tab...
- 14.40. Portret janriga doir kartinalamini dos...
- 14.41. Rangtasvir uchun ishetildig'an an...
- 14.42. Quyosh va qorda qanday ranglar bor? To'g...
- 14.43. Fantaziya nima?
- 14.44. Natyurmort so'zining ma'losi nima?

### 3.1.9-rasm. Berilgan topshiriq javobini tanlash turi

54:36 Adabiyotlar yuklash 80 Savoldan 44

Natyurmort so'zining ma'losi nima?

Jonsiz tabiat

HAMMASINI JO'NATISH

ORQAGA KEYINGI >

Kontur Eslatmalar

Qidiruv

- asarga bag'ishlia...
- 14.39. ... fransuzcha so'z bolib, jonsiz tab...
- 14.40. Portret janriga doir kartinalamini dos...
- 14.41. Rangtasvir uchun ishetildig'an an...
- 14.42. Quyosh va qorda qanday ranglar bor? To'g...
- 14.43. Fantaziya nima?
- 14.44. Natyurmort so'zining ma'losi nima?
- 14.45. Kontrast rangler o'zaro qarama-qarshi r...

### 3.1.10-rasm. Berilgan savolga javob yozish topshrig'i

52:47 | Adabiyotlar yuklash | 80 Savoldan 58

Mazkur rasmni izohlab bering!

Tasvirdagi mazkur asar.....

HAMMASINI JO'NATISH

◀ ORQAGA | KEYINGI ▶

Kontur Eslatmalar

Qidiruv

- 14.53. Mosilkin bilashstring!
- 14.54. Mosilkin bilashstring!
- 14.55. Yoziq ta'silini qanday oshazeganingiz va...
- 14.56. Rassom Marat Sadikov aserini toping?
- 14.57. Rasmdag' milliy obraz haykalaroshilkin...
- 14.58. Mazkur rasmni izohlab bering!
- 14.59. Ushbu rasm tasviriy sanatning qeysi janrida yert...

### 3.1.11-rasm. Berilgan rasmga topshiriq mazmunidan kelib chiqib keng yoritish topshirig'i

Adabiyotlar yuklash

✗ Tabriklaymiz, siz testni tugatdingiz!

O'tish bali: **100% Foiz (72 Ball)**

To'plangan ballar: **4% Foiz (3 Ball)**

TESTNI KO'RING | BATAFSIL HISOROT

00:00

◀ Orqaga | Oldinga ▶

Kontur Eslatmalar

Qidiruv

- 9. ...
- 10. ...
- 11. ...
- 12. ...
- 13. ...
- 14. ...
- 15. ...

### 3.1.12-rasm. Testni tugatish va natijani bilish

**Sinov natijalari "%QUIZ\_TITLE%"**

Sana/vaqт	10 июна 2023 г. 17:19
Sevilariga javoblar:	4 / 80
To'plangan ballar	3 / 72 (4%)
O'tish balli	72 (100%)
Sarfangan vaqt:	29 Minut 01 Sekund

**Test savollari**

#	Savol	Yozilgan	Ball	Natija
1.	Qizil + Ko'k= qanday rang hosil bo'ldi?	0	1	✗
2.	Sariq + Ko'k= qanday rang hosil bo'ldi?	0	1	✗
3.	Sariq + Qizil = qanday rang hosil bo'ldi?	0	1	✗

**NATIJALARNI KO'RISH** **NATIJALARНИ CHOP ETISH**

**Kontur** **Eslatmalar**

**Qidiruv** **Qidiruv**

9. ...  
10. ...  
11. ...  
12. ...  
13. ...  
**14. ...**  
15. ...

### 3.1.13-rasm. Test natijasining batafsil hisoboti va chop etish imkoniyati

**Test natijasi: "Rangtavsirov fanidan 200 test"**

От ISpring Solutions за 2023-03-30 22:54  
Прикреплено: Заголовок, Текст

Бу автоматик тест натижалари hisoboti. Siz ushu xabarni kordingiz, chunki test mullafli elektron pochta manziliziga sinov natijalarini yuborishni yigagan (Online).

F.I.SH	Miraxmatova Maftuna Mirabobos qizi
OTM nomi	Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Kursi	1
Guruh	22.1
Sana/vaqт	30 марта 2023 г. 22:54
Sevilariga javoblar:	179 / 200
To'plangan ballar	89.5 / 100 (90%)
O'tish balli	100 (100%)
Sarfangan vaqt:	38 Minut 17 Sekund
Natija	<b>Отмagan</b>

**Savol 1 To'g'ri**  
Ball: 0.5/0.5  
Aksosi ranglar qaysi qatorda to'liq berilgan?

Foydalanuvchi javobi	To'g'ri javob
✓ Qizil, ko'k, sariq	Qizil, ko'k, sariq

### 3.1.14-rasm. Test natijasining server yoki o'qituvchi elektron pochtasida aks etishi

"Tasviriy san'at o'qitish metodikasi (mustaqil ta'limgunchalar)" elektron o'quv qo'llanmasida "Tasvir bosqichlarini to'g'ri joylashtiring" topshirig'i avtomatlashtirish imkonini beradi. Bu vazifalar bilim strukturasini shakllantirishdagi qiyin vazifani hal qilishga yordam beradi. Bunday vazifalarni ta'limgunchalariga joriy etishdan maqsad, algoritmik tafakkurni shakllantirishdir. Algoritmlar – kutilgan natijaga olib keladigan

amallar ketma-ketligidir. Test shaklidagi vazifalar faqat bitta algoritm mavjudligini nazarda tutadi (3.1.2-rasmga qarang).

Talaba bu algoritmnii mustaqil topshiriqlarni ishslash vaqtida bajaradi. Talabandan mavjud algoritmning ketma-ketligini to'g'ri tanlash talab etiladi. Bu mashg'ulotlar davrida faol bo'lgan talabalar uchun juda oson, ba'zi talabalar uchun esa qiyin tuyuladi. Bu yerda taxmin qilish test topshiriqlari singari samara bermaydi. Chunki talaba ketma-ketlikning bittasida xatolikka yo'l qo'ysa ham bu topshiriq noto'g'ri bajarilgan bo'ladi. Nazoratni bu ko'rinishda amalga oshirish talabalar uchun juda qiziqarlidir.

Bunday topshiriqni bajarish vaqtida talaba qalamtasvir fanidan amaliy mashg'ulotlarda natyurmort tasvirlashning metodik bosqichlari haqidagi amaliy bilimlar algoritmini eslashga harakat qiladi, shu tariqa u mazkur bilimlarini xotirada mustahkamlaydi.

"Natyurmort so'zining ma'nosi nima" topshirig'ida (3.1.10-rasmga qarang) talabandan odatiy testdan faqr qilgan holda variantsiz o'zi javob yozishga haqiqiy bilimini tekshirishni talab etadi. Bu esa talabani o'quv adabiyotlarni o'rganishga, nazariy bilimlarni egallahsga undaydi. Bunday turdag'i topshiriqlarni ko'p qo'llashdan maqsad talabaga fanning nazariy tomonlarini o'rgatishdir. Tajribalarimizdagi so'rovnomalar davomida kuzatib bildikki, iqtidorli talabalarimizning aksariyati nazariy bilimlarga ega emas. Ayrim talabalar ijodiy asarlarni mohirona tasvirlab berishadi, ammo tasviriyl san'at haqidagi oddiy nazariy ma'lumotlarni bilishmaydi.

"Mazkur rasmni izohlab bering!" mazmunidagi topshiriq (3.1.11-rasmga qarang) turida talabandan tasviriyl san'at mashg'ulotlarida auditoriyada olgan bilimlari asosida berilgan suratni mustaqil bilimlariga tayangan holda izohlash so'raladi. Mazkur topshiriq fanlararo integratsiyaga asoslangan bo'lib, talabani bevosita ona tili, adabiyot, san'at tarixi, geografiya kabi bir qator fanlardan bilimlarini tekshirib, uni mustaqil ravon fikrashga o'rgatadi.

Interaktiv test va simulatsion topshiriqlar dinamik va qiziqarli bo'lib, zamon talablari asosida o'yinli tarzda

shakllantirilgan. Topshiriqlar metodik izchillikda oddiydan murakkabga qarab tamoyili asosiga qurilgan. Topshiriqning muarkkablik darajasiga qarab vaqt va ballar turlicha berilgan, ayrim topshirilarga jarima ballari ham qo'llanilgan. Topshiriqlar talabaning mustaqil ta'lim olishida ularning turli kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Talabani jalb qilish va qiziqtirish maqsadida ovozli savollar, dialog tarzidagi topshiriqlar kiritilgan. Elektron qo'llanmaning jozibadorligini oshirishda, talabalarning psixologik omillarini hisobga olib, uning tashqi dizayniga alohida urg'u berilgan.

Topshiriqlar talaba tomonidan ro'yxatdan o'tib testni muvaffaqiyatli tugatgach ularning natijalari hisoboti bilan atroflicha (talaba haqida ma'lumot, testni boshlagan va tugatgan vaqt, qancha vaqt sarflangani, to'g'ri yoki noto'g'ri javob berilganligi) tizim tomonidan avtomatik tarzda server yoki professor-o'qituvchining shaxsiy elektron pochtalariga yuboriladi. Test natijasi talabaning o'ziga ham ko'rindi va tahlil qilish, chop qilish imkoniyati, testni qayta bajarish imkoniyatlari taqdim etildi (3.1.12-, 3.1.13-, 3.1.14-rasmlarga qarang).

Talabalar bilimi, malaka va ko'nikmalarini nazorat qilish kompyuter tiziminining asosiy maqsadi, ular erishgan yutuqlar va muvaffaqiyatlarini aniqlash, uni takomillashtirish yo'llarini ko'rsatish, shu asosda talabalar uchun samarali ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun sharoit yaratishdan iborat. Bu maqsad, birinchidan, talabalar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirish sifati bilan, ya'ni, o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallash darajasi bilan bog'liq. Ikkinchidan, kompyuter nazoratining asosiy maqsadini aniqlashtirish, o'zaro, shuningdek, o'z-o'zini nazorat qilish bo'yicha yondashuvlarni amalga oshirish hamda o'zaro va o'z-o'zini nazorat qilishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi bilan bog'liq. Uchinchidan esa bu maqsad talabalarda bajarilgan ish uchun javobgarlikning namoyon bo'lishi kabi shaxsning ijobiy sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Talabalarga oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'at fanlaridan mustaqil ta'limni tashkil etish va boshqarishda, bo'lajak mutaxassislarini zamonaviy mehnat bozori talablariga

javob bera oladigan holda tayyorlash; to'la motivatsion irodani shakllantirish, aksilogik faoliyat yuritish jarayoni, refleksiv baholash darajasini aniqlash; vaqt ni to'g'ri taqsimlash va munosabatlarda chuqur bilimga egalik, aniq didaktik tartib, o'ziga xoslik hamda ilmiylik o'z aksini topishi kerak. Yuqoridagi belgilangan darajalar asosida talabalar quyidagi natijalarga erishadilar: eng past o'zlashtirish ko'rsatkichiga ega bo'lganda ham mutaxassis sifatida faoliyat yuritishga tayyor bo'ladilar; o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichida talabalar ijodiy faoliyat yurita oladilar; yuqori darajadagi ijodiy faoliyatlar davomida mustaqil amaliy natijalarga erisha oladilar.

Biz talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini past, o'rta va yuqori darajalarga ajratdik.

Bunda past darajadagi ko'rsatkich uchun talaba mustaqil ta'lif dasturi topshiriqlari asosida o'quv pastanovkalari yoki san'at asarlaridan muvaffaqiyatli nusxa ko'chira olishi, ijodiy kompozitsion asar ishlay olishi, minimal nazariy bilimlar, xususan kompozitsiya qonuniyatlarini bilishi kifoya. O'rta darajadagi ko'rsatkich uchun talaba turli janrlarda ijodiy asar yarata olishi, kompozitsiya qonuniyatlarini amalda qo'llay olishi kerak bo'ladi. Yuqori darajadagi ko'rsatkich uchun talaba barcha janrlarda va tasviriy san'at oqimlaridan foydalangan holda san'at asarlari yarata olishi, perspektiva va kompozitsiya qonuniyatlarining nazariy va amaliy tomonlarini puxta bilishi, mustaqil ravishda bilimlarni o'zlashtira olishi kerak bo'ladi.

Shunday qilib, pedagog tomonidan tekshirishning kompyuter metodlari muvaffaqiyatli tanlanganligi, talabalar bilimlarini odilona baholashda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Dasturlashtirilgan nazorat metodi o'zlashtirish darajasini aniqlovchi vositalardan biri bo'lib, uning muhim jihatni obyektivlikni ta'minlashda yuqori ko'rsatkichga egaligidadir. Mustaqil ta'lif dasturi va "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi (mustaqil ta'lif uchun)" nomli interaktiv elektron o'quv qo'llanmasi yordamida talabalar mustaqil ta'lifini tashkil qilish, boshqarish va nazorat qilish pedagog uchun ham, talaba uchun ham samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

## XULOSA

Talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish va boshqarishda Qalamtasvir va Rangtasvir fanlaridan mustaqil ta'im mazmuni milliy o'quv dasturi asosida takomillashtirildi. Talabalarning mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish modeli ijodiy vazifalarni mustaqil bajarish, murakkab vazifalarni hal qilishning yangi usullarini izlab topish namoyon bo'ladigan ijodiy faollik xislatlari baholash mezonlari asosida ishlab chiqildi. Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodikasi "Tasviriy san'at o'qitish metodikasi (Mustaqil ta'lim uchun)" interaktiv elektron-o'quv qo'llanmasi orqali ta'lim olish jarayonini avtonomlashtirish va mustaqil ta'lim topshiriqlarini onlayn bajarishning individualligi, uzlusizligi va amaliyot bilan bog'liqligi tamoyillari asosida takomillashtirildi. Ta'lim olish jarayonini avtonomlashtirish va mustaqil ta'lim topshiriqlarini onlayn bajarishning individualligi, uzlusizligi va amaliyot bilan bog'liqligi tamoyillari asosida mobil ilova tayyrolashga doir tavsayalar ishlab chiqildi.

Talabalar mustaqil ta'lim olishining nazariy va metodik tizimini asoslash uchun taklif etilayotgan modelning samarali ishlashini ta'minlaydigan: talabalar mustaqil ta'lim olish prinsiplari, mustaqil ta'lim turlari, mustaqil ta'limni baholash mezonlari, mustaqil ta'limni pedagogik boshqarish kabi tarkibiy qismlari ko'rib chiqildi. Monografiyada oliv ta'limda talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodikasini takomillashtirish zarurligi, tizimlashtirishga ehtiyojligini milliy va xorijiy tajribalarni tahlil qilish jarayonida ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Uzoq yillar kuzatishlar va tajribalardan kelib chiqib tasviriy san'at fanlaridan talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish va boshqarishda samarali natijaga erishish uchun quyidagi takliflarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb o'yaymiz:

- talabalar mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini dasturiy mahsulotlar vositasida

takomillashtirish;

- tasviriy san'at darslariga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish jarayonida ta'lif samaradorligi oshirish uchun tasviriy san'at darsiga ajratilgan o'quv soatlarini ko'paytirish;

- respublikamiz oliy ta'lif muassasalari uchun axborot-mustaqlil ta'lif resurslari platformasini yaratish va uni doimiy ravishda interaktiv elektron manbaalar, topshiriqlar bilan boyitib borish hamda ulardan foydalanishni yo'lga qo'yish;

- talabalar mustaqlil ta'lifini to'g'ri tashkil etish va rag'batlantirish maqsadida HEMIS axborot tizimiga talabalar mustaqlil ta'lifi uchun ball ajratish mexanizmini ishlab chiqish.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga ega nashrlar**

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lif to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni: <https://lex.uz/docs/5013007>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-son Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 6-son. 70-modda.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lifi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019-y., 06/19/5847/3887-son. <https://lex.uz/docs/4545884>.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliv ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3775-son Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.06.2018-y., 07/18/3775/1313.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.04.2020-y., 07/20/4688/0475-son. <https://lex.uz/docs/4795687>.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldag'i "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/3255680>.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-yanvardagi "Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4119-son Qarori. <https://lex.uz/docs/4164675>.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>.

9. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentyabrdagi 302-sonli buyrug'i. 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'naliшining malaka talablari. – Chirchiq: 2022.

10. Chirchiq davlat pedagogika universiteti kengashining 2022-yil 30-avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'naliшining o'quv rejasi. – Chirchiq: 2022.

11. Chirchiq davlat pedagogika universiteti kengashining 2023-yil 30-avgustdagi 1-sonli yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlangan 60111200 – Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavriat ta'lim yo'naliшining o'quv rejasi. – Chirchiq: 2023.

12. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488-b.

13. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592-b.

14. O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi (2019 yil 29 oktabr) Qonuni // <https://lex.uz/doc/4571490>.

## **II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to'plamlar**

15. 110000 – Педагогика таълим соҳасининг Давлат таълим стандарти. – Тошкент, 2015. – 57 б.

16. 110000 – Педагогика таълим соҳасининг Давлат

таълим стандарти. – Тошкент, 2020. – 29 6.

17. Adler P.S. Beyond Cultural Identity: Reflections on Cultural and Multicultural Man // Intercultural Communication: A Reader. Belmont. CA: Wadsworth, 1997. – P. 12–23.

18. Akulova O.B. Kadrlar tayyorlash sifatini oshirish pedagogik xodimlar Boloniya jarayoni g'oyalari kontekstida // Axborot byulleteni. SPb: nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti nashriyoti A.I. Gertsen.-2006.-1 (29) - B.20.

19. Azimov S.S. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini kompyuter texnologiyalaridan foydalanib takomillashtirish p.f.f.d. (PhD) ... diss. avtoref. – Qarshi: 2021. – 50 b.

20. Badalxodjaev T.I. Elektron darslik yaratish harajatlarini aniqlash texnologiyalari. <http://tolkinjon.narod.ru/statya2.htm>.

21. Baymetov B.B., Muratov X.X. Self Sketches as a Tool in the Professional Training of a Future Artist-Teacher. Solid State Technology. 2020/2/29. Vol. 63 № 2 (2020). 224-231.

22. Baymetov B.B., Muratov X.X. Talabalarning rangtasvir fani bo'yicha mustaqil ishlariga pedagogik rahbarlik qilish metodikasi // Academic research in educational sciences. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 489-499.

23. Baymetov B.B., Muratov X.X. Tasviriy san'atdan amaliy mashg'ulotlarda talabalarning tasvirlash mahoratlarini takomillashtirish texnologiyalari // Science and Education. – 2021. – T.: 2. – № 1. – C. 349-356.

24. Baymetov B.B., Muratov X.X. Technologies for improving students' visual skills in practical classes in fine arts // Science and Education. – 2021. – T. 354.

25. Baymetov B.B., Sultanov H.E., Muratov X.X. Psychological foundations of enhancing the creative abilities of students in the process of practical training // Bulletin of Science. – 2019. – T. 1. – №. 7. – C. 67-71.

26. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T: Fan, 2007.

27. Bennett M.J. 1998. «Intercultural communication: a current perspective». Basic Concepts of Communication. Selected Readings. Ed. M.J.Bennett. Yarmouth, Maine, USA: Press, Inc. 1-34.
28. Bobomurodov O.J. Elektron o'quv qo'llanmalarini bilimlar bazasida ifodalash va uning asosida o'qitish jarayonini boshqarish usul va modellari. Diss....ped. fan. nom. – T.: 2006.- 152 b.
29. Deming W.E. "A System of Profound Knowledge," from J.F. Leonard, The New Philosophy for K-12 Education: A Deming Framework for Transforming America's Schools, ASQ Quality Press (1996), p.31.
30. Grant C.A. Turning on learning/Five approaches for Multicultural Teaching Plans for Race, Gender and Disability / C. A. Grant, C. E. Sleeter. – John Wiley & Sons, Inc., 2003. – 279 p.
31. Hayitova Sh.D. Mustaqil faoliyatni faollashtirish oliv ta'lif talabalarining tabiiy-ilmiy "dunyo qiyofasi"ni shakllantirish sharti sifatida // O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 1-son, 1-qism 2021 E.16-18.
32. IN FOCUS Universities and Agenda 2030: Engaging with the SDGs / IAU 2019 CONFERENCE / Transforming Higher Education for the Future. Vol.24 №1 \* IAU HORIZONS. [https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau\\_horizons\\_vol.24.1\\_en\\_light\\_.pdf](https://iau-aiu.net/IMG/pdf/iau_horizons_vol.24.1_en_light_.pdf).
33. Jabborova O.M. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini badiiy idrokini rivojlantirish (auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar misolida) p.f.f.d. (PhD) ... dis. avtoreferati. – Chirchiq: 2021. – 42 b.
34. Kim Y.Y. Intercultural Communication Competence: A Systems-Theoretic View // Cross-Cultural Interpersonal Communication, vol. 15. C A: Sage, 1991.
35. Kosanova N.M. Umumta'lif mакtablарida sinif rahbarlari faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari (klaster yondashuvi asosida) // p.f.f.d. (PhD) ... diss. avtoreferati. – Chirchiq: 2022. – 54 6.
36. Kudaynazarov A.K. Boshlang'ich sinfo'qituvchilarining

